

Lyuis Kerroll

Alisa mo'jizalar mamlakatida



CH0000035934

Lyuis
Kerroll

Alisa mo'jizalar mamlakatida

Shah Perro
"Zolushka"


Eduard Vavrushka
"Izquvar Brok"

Sergey Aksakov
"Olov gul"

Yuriy Kazakov
"Teddi"

Hans Kristian Andersen
"Dyugmchaxon"
"Ole-Luk-oye"

Yoqut xalq ertaklari



Nizomiy nomli
T D P U
kutubxonasi

929 708


YANGI ABR AVLODI
TOSHKENT
2019

UO'K: 821.111-3

KBK: 84(4Ingl)

K - 38

Kerroll, Lyuis

Alisa mo'jizalar mamlakatida: ertak. Lyuis Kerroll /
Tarjimon M.Zohidova. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.
– 208 b.

ISBN 978-9943-27-703-8

«Alisa mo'jizalar mamlakatida» deb umumiy nom berilgan mazkur kitobga biz bir qancha avlod vakillari sevib mutolaa qilgan va bugunning bolalari ham o'qishi kerak bo'lgan jahon adabiyotining eng sara ertaklarini jamladik.

Ertaklar mavzuyi, ko'lamidan qat'i nazar yosh kitobxon ko'ngliga shunisi bilan yaqinki, unda mo'jizalar orqali bolalar qalbi tarbiyalanadi. Bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonda bunday ma'naviy tuhfa, umid qilamizki, bolajonlarimizga munosib sovg'a bo'ladi.

UO'K: 821.111-3

KBK: 84(4Ingl)

Tarjimonlar:

O.Madayev, M.Zohidova, S.F.Ismoilova,
Ismoil Mahmud, O.Otaxon,
Usmon Qo'chqor, G.Normatova

ISBN 978-9943-27-703-8

© Lyuis Kerroll, «Alisa mo'jizalar mamlakatida». «Yangi asr avlodi», 2019-yil.

Lyuís Kerroll

ALISA MO'JIZALAR MAMLAKATIDA



Yoz kunlarining birida Alisa quyuq soyali daraxtning katta shoxida o'tirar, opasi esa daraxt tagidagi maysada unga tarix kitobini o'qib berardi. Alisaning qulog'iga gap kirmaydi, chunki u suratsiz kitoblarni yaxshi ko'rmaydi-da.

– Alisa, diqqat bilan eshit. Dunyoda suratsiz bo'lsa ham juda qiziq kitoblar ko'p, – dedi opasi.

– Bu olamda balki shundaydir, – xayolga berilgancha javob berdi Alisa. – Lekin mening olamimda, agar u mavjud bo'lsa, hamma kitoblar faqat suratli bo'ladi.

Alisa o'zining Dina laqabli kichkina mushukchasini ushlab oldi-da, daraxtdan tushdi:

– Mening olamimda sen Miyov emas, balki Rahmat, Alisa xonim degan bo'larding. Mening olamim – Mo'jizalar Mamlakati deb atalgan bo'lar edi.

Birdan u shu atrofdan yugurib o'tib ketayotgan Oq Quyinni ko'rib qoldi. Quyon kostyum kiyib olgan, qo'lida kattakon soat. U soatga qarab, vaqtni bilish uchun to'xtadi.

– Voy, – qichqirdi u, – kech qolayapman, kech qolayapman!

– Qiziq, – hayron bo'ldi Alisa. – Quyon qayerga kechikishi mumkin? Demak, juda muhim uchrashuv ekan-da!

Qiz yo'lka bo'ylab Quyon ortidan yugurdi.

– Janob Quyon! – baland ovozda chaqirdi u.
– To'xtang, iltimos!

– Yo'q, yo'q, men juda kechikayapman, – javob qildi Oq Quyon yugurib ketayotib. – Hatto salom deyishga vaqt yo'q. Hayr! Men kechikayapman, kechikayapman.

U yana tezroq yugurdi.

Alisa ham orqasidan chopdi-yu, faqat Quyonning katta inga kirib ketganini ko'rishga ulgurdi, xolos.

– Uchrashuv uchun juda g'alati joy ekanmi? – o'yladi Alisa qorong'ilik ichiga qarab. Keyin ikkilanmasdan, Oq Quyon ortidan o'sha chuqurlik sari sho'ng'idi. Qizning ko'ylagi xuddi parashut singari yoyilib ketdi va tushish tezligini pasaytirdi. Qandaydir pastlikka uchib tushar ekan, yo'lida o'sha yer osti qasrining devorlaridagi ko'zgu va suratlarni bir chiroq yoritib o'tib ketganini ko'rdi. Nihoyat, quduqning tagiga yetdi. Xayolida bunga juda ko'p vaqt ketgandek edi.

Alisaning oldida uzun yer osti yo'li paydo bo'lib, uning oxirida Oq Quyonni ko'rib qoldi. Quyon esa bir zumda tunnel oxiridagi muyilishga burilib ketdi. Alisa ham uning ketidan bordi. Muyulishdan o'tgach, katta bir xonaga kirganini sezdi. Lekin xonada Oq Quyon yo'q edi. Xonaning narigi tomonida eshik bor ekan, Alisa uni ochdi. Qarangki, undan keyin ikkinchi, uchinchi... xullas, birin-ketin eshiklar kelardi. Ularning har bittasi oldingisidan kichikroq edi. Borgan sari torayib ketayotgan-

di. Oxiri, juda kichkina eshikchaga duch keldi. Bu eshik qulf edi. Alisa egilib, kalit solinadigan teshikchadan qaramoqchi bo'ldi va eshik tutqichini burab ko'rdi.

– Voy, juda qattiq burading-da! – degan pastgina shuvillagan ovoz eshitildi. – Xo'sh, mendan qanday yordam kerak?

Gapiradigan eshik Tutqichini ko'rib, Alisa hayron qoldi.

– Oq Quyinni izlab yurgandim. Chamamda shu yerga o'tdi. Men ham...

– Yo'q! Sen juda kattasan, sig'maysan. Huv anavi stol ustidagi shishadan ozgina suv ichib ko'r-chi.

Shu zahoti g'ayritabiiy ravishda Alisaning oldida stol paydo bo'ldi. Qiz shishani oldi, unga «Meni ich», deb yozib qo'yilgan edi. Biroz ikkilanib turdi-yu, undagi suvning hammasini ichib yubordi.

– Eh, nima qilib qo'ydim? – baqirdi Alisa. Chunki oldidagi shisha kattakon, o'zi esa juda kichkina bo'lib qolgandi. Endi eshikchaga bemalol sig'ishi mumkin edi. Eshik Tutqichidan o'tkazib yuborishini so'radi. Iltimosiga javoban g'ichirlagan kulgini eshitdi:

– Qara-ya, senga aytish esimdan chiqibdi. Eshikni ochish uchun senga stol ustidagi kalit kerak.

Ammo Alisa endi shunchalik kichkina ediki, stolga bo'yi umuman yetmasdi. Stolning oyoqlaridan biriga tirmashib chiqishga harchand urinsa-da, buni eplay olmadi. Chunki u juda silliq bo'lib, Alisa sirg'anib ketaverar edi.

Nihoyat, u yengilishga tayyor edi. Shu payt kutilmaganda stol tagida quticha paydo bo'ldi. Eshik Tutqichi Alisaga o'sha qutichani ochishni buyurdi. Qutichada pishiriq bo'lib, unga «Meni ye!» deb yozilgandi.

– Nima bo'lsa bo'ldi! – dedi Alisa. U endi pishiriqni yeb tugatgandi hamki, qo'llari borgan sari kattalasha boshladi, oyoqlari ham cho'zilib-cho'zilib ketdi, oxiri boshi shipga tegdi. – Obbo xudoyim-ey! Endi shunchalik kattamanki, eshikka hecham sig'masam kerak. – Alisaning xo'rliigi kelib, yig'lab yubordi. Ko'zlaridan yosh tomchilari daryo-daryo bo'lib oqdi.

– Bunaqa yig'layversang, hammamiz cho'kib ketamiz, – dedi Tutqich qo'rqib. – Yaxshisi, qara-chi, shishada hech narsa qolganmikin?

Bu vaqtda shisha Alisaning ko'z yoshlaridan hosil bo'lgan dengizda qalqib yurardi. Qiz uni oldi-yu, tagida qolgan suyuqlikni ko'rdi. Ichgan edi, yana kichraya boshiadi. Shu qadar kichrayib qoldiki, ko'z yoshi endi ummonga o'xshardi.

– Bekorga shuncha yig'labman-a! – dedi Alisa o'ziga o'zi.

U qulf teshikchasidan suzib o'tdi. Eshikning narigi tarafi qup-quruq edi. Mitti Alisaga bu yerdagi maysalar o'rmon bo'lib ko'rinar, havoda son-sanoqsiz g'alati kapalaklar uchib yurardi. Bunday ajoyibotdan hayratda qotgan Alisa tush ko'rayotganga o'xshar edi. Shundoq yonida bitta barg ustida yalqovlarcha cho'zilib yotgan, ko'zi yarim yumuq holatdagi katta Qurtni

ko'rdi. Alisa bu g'aroyib jonivorga, Oq Quyoni izlab yurganini, salgina kattaroq bo'lishni xohlashini aytdi. Qurt esa qo'ziqoringa qarab turib, shunday dedi:

– Qo'ziqorinning bir tomoni seni katta, ikkinchi tomoni kichkina qiladi.

Alisa qo'ziqoringa biroz qarab turarkan, uning qaysi tomonini yesa katta, qaysi tomonini tishlasa kichkina bo'lishini aniqlashga harakat qildi. Keyin qo'ziqorinning har ikki tomonidan ozgina tishladi. Shu payt uning bo'yi birdan cho'zilib daraxtlarga tenglashdi. Hattoki qushning ini ham boshining ustida turib qoldi.

– Yordam beringlar, yordam! – baqirdi Zangori Qush Alisaning boshi atrofida aylanarkan.

– Hoy, alvasti! Mening polaponlarimga tegma! Shu-u, shu-u!

– Alvasti? – hayron bo'ldi Alisa, – men alvasti emasman.

– Unda kinsan? – so'radi Ona Qush.

– Men shunchaki kichkinagina qizaloqman, – javob berdi Alisa.

– Kichkina?! – xaxolab yubordi Zangori Qush.

– Xa-xa-xa-xa!

Alisa oyoqlariga qaradi. Ular ancha pastda edilar.

– E, yo'q, – yig'lagudek bo'ldi u, – men qo'ziqorinning kattaroq bo'lagini yeb qo'ygan-ga o'xshayman. Shuning uchun shunaqa o'sib ketdim, shekilli.

Alisa qo'ziqorinning boshqa tomonini tishlab asl holatiga qaytmoqchi bo'ldi.

– Shunisi ma'qulroq, – xo'rsindi u, – menimcha, endi birinchi marta hammasi to'g'ri qildim-a.

Allsa uning har ikki tomonidan sindirib oldi, keyin bittasidan kichkinagina bo'lagini tishladi. Nihoyat, u o'zining oldingi holatiga qaytdi.

– Xayriyat, – yengil nafas oldi qizcha – Birinchi marta to'g'ri ish qildim, shekilli.

Keyin qo'lidagi qo'ziqorin bo'laklariga qarab, ularni cho'ntagiga solib qo'ydi:

– Ular hali menga yana kerak bo'lib qolishi mumkin.

Endi qaysi yo'ldan borsam ekan, deb o'ylanib qoldi. Alisa birdan orqasidagi tovushni eshitdi. Qayrilib qarasa, daraxt shoxlari orasida oppoq katta tishlar va bir juft charaqlagan ko'z yaltirab ko'rinardi. U yaxshiroq tikildi: ulkan ola mushuk ekan.

– Men – Cheshir Mushugiman, – og'zini katta ochib-ochib kuldi u.

– Kechirasiz, – dedi Alisa mushukka. – Aytib berolmaysizmi, qaysi yo'ldan borsam ekan? Men Oq Quyanni izlayotgan edim.

– Unday bo'lsa, men Tentak Shlyapnikdan yoki Ovsar Quyondan so'rashim kerak. Albat, uyam jinni.

– Lekin men jinnilar bilan uchrashishni istamayman.

– Boshqa iloji yo'q. Bu yerda hamma jinni. Shu jumladan men ham.

Shunday dedi-yu, Cheshir Mushugi Alisa-ning ko'z o'ngida birdan g'oyib bo'lib qoldi. Qizcha yana biroz yurdi. Endi u birov qo'shiq

kuylayotganini eshitdi. Bu Ovsar Quyon edi. Tentak Shlyapnik ikkalasi katta stol yonida o'tirib choy ichishardi. Stol ustida choynaklar, qaynoq choy quyilgan piyolalar ham ko'p. Alisa bo'sh joylardan biriga o'tirib oldi. O'sha zahoti Ovsar Quyon qo'shiq aytishdan to'xtab:

– Joy yo'q! Joy yo'q! – deya baqirdi.

– Axir, shuncha bo'sh joy turibdi-ku! – dedi Alisa.

Ovsar Quyon bo'lsa: – Taklifsiz o'tirish juda noto'g'ri, bu – madaniyatsizlik, – dedi.

Alisa ham kechirim so'rashga o'tdi:

– Tug'ilgan kuningizni buzib qo'yganim uchun uzr. Menga ashulangiz juda yoqdi-da.

– Rahmat, lekin bu tug'ilgan kun emas.

– Bo'lmasa nima? Axir, bu tug'ilgan...

– Yo'q, bu tug'ilmagan kun! – dedi Tentak Shlyapnik.

– Bizda yilda faqat bitta tug'ilgan kun. Qolgan uch yuz oltmish to'rt kun – tug'ilmagan kun deyiladi.

– Demak, menda ham bugun tug'ilmagan kun, – xursand bo'ldi Alisa.

Ovsar Quyon esa yana kuylay boshladi:

Tug'ilmagan kuning bilan,

Tug'ilmagan kunim bilan.

Tug'ilmagan kun muborak,

Tug'ilmagan kun muborak!

qo'shiq tugadi. Tentak Shlyapnik Alisaning oldiga sakradi. Egilib, shlyapasini yechdi. Qizning ko'z oldida chiroyli bezatilgan, ustida sham yonib turgan tort paydo bo'ldi.

Bu-u-um! To'satdan tort havoga qarab uch-di-yu, portlab ketdi. Tutun ichidan kichkina sichqon chiqib, keyin o'tlar orasiga yashirindi. Ovsar Quyon va Tentak Shlyapnik xaxolab kulib yubordilar. Aftidan, ular Alisani esdan chiqarishgan edi. Qiz ham qo'l siltab, o'rmon-ga qarab ketdi. Biroz yurgach, adashib qoldi. Daraxtlarda «Bu yoqqa», «To'g'riga», «U yoqqa emas», «Orqaga» degan yozuvlar ilinib turardi...

Alisa ko'p o'ylanmay, eng yaqin yo'lakdan ketaverdi. Ammo biroz yurgach, zerikib ketdi. U Mo'jizalar mamlakatining yo'llaridan char-chagan edi. Yana orqasida shovqin eshitdi. O'girilib qarasa, bir it. Uning boshi supurgi, yo'lida uchragan narsani, hatto so'qmoqning o'zini ham supurib ketardi.

– Obbo, – qo'rqib ketdi Alisa. – Endi bu yer-dan hech qachon qaytib chiqolmasam kerak.

Ammo shu paytda tanish kulgi eshitildi. Boshini ko'tarib, daraxtda o'tirgan Cheshir Mushugini ko'rdi.

– Ha, yana adashib qoldingmi? – kinoyaomuz so'radi Mushuk. – Haliyam Oq Quyonni izlab yuribsanmi?

– Bo'ldi, jonimga tegdi, – dedi jahl bilan Ali-sa. – Hech qanaqa Quyonning ham keragi yo'q. Charchadim, uyga ketmoqchiman.

– Sen Qirolicha bilan uchrashib bo'ldingmi? – davom etdi Mushuk, – hech kim uni ko'rmasdan Mo'jizalar mamlakatini tark eta olmaydi, axir.

U shu gaplarni aytar ekan, daraxtda bir eshik ochildi. Alisa undan ichkariga kirdi. Gulzorlar bilan o'ralgan chiroyli bog'. Kiraverishda bir

katta daraxt. Uchta gulchi daraxt ustidagi oq atirgullarni qizil rangga bo'yashmoqda. Qizcha yaqinroq kelib qaradi-yu, ular o'ynaladigan qarta ekanini ko'rdi. Salomlashgach:

– Nima uchun bu atirgullarni bo'yayapsiz? – deb so'radi.

– Bilasizmi, xonim, bu daraxt qizil bo'lishi kerak. Chunki Qirolicha faqat qizil gullarni yaxshi ko'radi. Agar aslida oq ekanini bilib qolsa bormi, kallamizni olishga buyruq beradi. Yo'q, yo'q! Voy, ana o'zlari!

Bog'ning katta darvozasi ochildi. Ikki qator askarlar qadam tashlab o'tdi. Birinchi qatordagi askarlar qarta o'yinidagi tappon, ikkinchisidagi – qarg'a ko'rinishda edi. Ularning o'rtasida Oq Quyon karnay chalganicha o'tib borardi. Birdan u to'xtab qoldi.

– Imperator janobi oliyalari... iltifotli xonim... Qirolicha janoblari... Dillar qirolichasi... – dedi u nafasi tiqilib. – Ha, yana...

– Qirol janoblari... – qo'shib qo'ydi kichik tanaffusdan so'ng. Qirolicha atirgul daraxtiga yaqinlashdi.

– Gullarimni kim bo'yadi? – so'radi zarda bilan. – Boshlari tanasidan judo qilinsin!

Keyin Alisaga ko'zi tushdi:

– Xo'sh, sen kimsan?

– Mening ismim Alisa. Men Oq Quyonni izlab yurgan edim, janobi oliyalari, – dedi unga ta'zim qilarkan.

– Oq Quyonni? Qanday bema'nilik! Xo'p, mayli, kroket o'ynay olasanmi, o'zi?

– Ha, janobi oliyalari.

– Boshiadik, boʻlmasa! – buyurdi Qirolicha.

Alisa umrida bunaqa gʻalati kroket oʻyinini koʻrmagan edi. Sharchalar oʻrnida tipratikanlar, toʻqmoqlar flamingo qushlari bilan almashtirilgan. Qizcha esa mahoratini ishga solib, toʻgʻri oʻynashga harakat qilar edi. Ammo flamingo-ning boshi bilan kirpini uraman desa, qush uchib ketar va unga qarab turar edi.

Qirolicha boʻlsa oʻyindan zavqlanardi. U endi yutuqli yurishni bajarmoqchi edi, birdan orqasiga Cheshir Mushugi sakrab tushdi-da, qoʻrqitib yubordi. Flamingo vahima koʻtardi. Qirolicha muvozanatini yoʻqotib, oyoqlari osmondan kelib, yiqilib tushdi.

Alisa kulib yubordi. Askarlar ham kuldi. Hatto Qirol ham oʻzini kulgidan toʻxtata olmadi. Lekin Qirolicha oʻrnidan turgan zahoti kulgi taqqa tindi-qoʻydi. Qirolicha jahldan qip-qizarib ketgandi.

– Hozir kimningdir boshi olinadi! Seniki!!! – qichqirdi u Alisaga. – Senga ishonishim kerak emasdi oʻzi! Sen gʻishtin qargʻa emassan, qargʻa ham, chillik ham! Umuman, tappon qartayam emassan!

– Men bu yerga kelmoqchimasdim. Mening aybim yoʻq, – oʻzini oqlamoqchi boʻldi Alisa. Lekin Qirolicha uni gapirishgayam qoʻymadi:

– Bu qanaqasi yana? Bu yerda faqat men buyuraman! Olib chiqilsin! Boshi tanasidan judo etilsin!

Alisa tushundiki, uni hech kim qutqara olmaydi. Shunda choʻntagidan qoʻziqorin boʻlagini olib, tishiy boshladi. U borgan sari kat-

talashardi. Hamma qo'rqib ketdi. Askarlar har tomonga qochishga tushdi. Qirolichaning:

– Boshi olib tashlansin! – degan buyrug'iga hech kim parvo qilmasdi.

– Axir sizlar oddiygina o'ynaladigan qartalar ekansiz-ku! – dedi Alisa Qirolichaga, Qirolga va askarlarga tepadan qarab.

Shu so'zlarni aytdi-yu, o'zining yana kichraya boshlaganini his qildi. Qirolicha qo'llarini bir-biriga ishqab:

– Nima deding, asal qiz? – deya so'radi.

– Endi nima qildim-a? – Alisa yurgan yo'lida qoqilib-qoqilib ketardi. Oyoqlari birdan og'irlashdi. Haliyam Qirolichaning tovushi tinchlik bermasdi. Lekin endi uzoqdan eshitilardi.

– Bu yerdan chiqib ketishim kerak! Boshi olinsin! – Alisa shu so'zlarni shivirlar edi. Shu payt kimdir chaqirayotgandek bo'ldi.

– Tursang-chi, axir, Alisa! Tarix darsidan bi-ror narsani eslab qoldingmi o'zi?

Alisa ko'zlarini ochib, tepasida unga engashib turgan opasini ko'rdi.

– Bo'ldi, yur, uyga ketamiz, – derdi opasi.

Alisa tizzasidan mushukchasini qo'lga oldi.

– Bilasanmi, Dina, men baribir Mo'jizalar mamlakatini emas, o'zimizning ana shu dunyoni tanlagan bo'lardim, – dedi u.

M.Zohidova tarjimasi

ZOLUSHKA

ir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim zamon-
da badavlat va oqsuyak bir odam o'tgan
ekan. Uning xotini o'lib, ikkinchi marta uyla-
hibdi. Ikkinchi xotini o'taketgan bag'ritosh va
kekkeygan xotin ekan. U xotinning ikki qizi bor
ekan, ularning ham fe'l-atvori onasining fe'l-at-
voriga o'xshar ekan: dimog'dor, zahar ekanlar.
Erining nihoyatda yoqimtoy va beozor bir qizi
bor bo'lib, u o'zining juda oqko'ngil marhum
onasiga o'xshab ketar ekan.

O'gay ona birinchi kundanoq qiz bechora-
ga o'z zahrini socha boshlabdi. O'gay qizining
yoqimtoyligini ko'rib, o'gay onaning jon-poni
chiqib ketibdi. Bu muloyim qiz oldida o'z qizlari-
ning juda ham yaramas ekanligi darrov bilinib
qolibdi.

O'gay ona uydagi eng og'ir va iflos ishlar-
ning hammasini o'gay qiziga yuklabdi: u doim
idish-tovoq yuvish, zinapoyalarni tozalash,
injiq o'gay onasi va uning tantiq qizlari
yotoqxonalarning polini yuvib, tozalash bilan
band bo'libdi. Qiz bechora kechalari cherdak-
da, qoq to'shakda yotar ekan. O'gay opalari
esa, shipga tegadigan oynalar qo'yilgan par-
ket polli xonalarda, momiq to'shaklarda uxlar
ekanlar.

Bechora qiz hammasiga chidar, otasiga aytishdan qo'rqar ekan; bordi-yu aytadigan bo'lsa, otasi o'dag'aylab, uning o'zini qattiq urisharkan, chunki yangi xotinining gapidan chiqmas ekan-da! Bechora qiz, ishlarini tamomlagandan keyin, burchakdagi o'choq oldiga borib, kul ustiga o'tirar ekan, shuning uchun ham o'gay onaning katta qizi unga Isqirt qiz deb nom beribdi. Ammo, singlisi opasiga o'xshagan qo'pol – zahar emas ekan. U qizni Zolushka¹ deb atabdi. Zolushka eski ko'ylak kiygan bo'lsa ham, yasangan-tusangan opalariga qaraganda yuz marta yoqimtoy ekan.

Kunlardan bir kun shahzoda katta bazm bermoqchi bo'lib, shu bazmga mamlakatning hamma badavlat kishilarini taklif qilibdi. Shular qatorida Zolushkaning opalari ham taklif qilinibdi. Shundan keyin, ular shu qadar sevinib, o'zlariga yarashadigan kiyim-kechaklar topishibdilar. Bu bilan Zolushkaga yana ish ko'payibdi: o'gay opalarining yubkalarini dazmollashi, yoqalarini kraxmallashi kerak ekan. Opalari hamma vaqt oynaga qarab, zo'r berib yasanishnigina o'ylashibdi.

– Men bazmga zarli qizil duxoba ko'ylagimni kiyaman, – debdi katta opasi.

– Men bo'lsam, – debdi kichik opasi, – oddiy ko'ylagimni kiyaveraman. Lekin ko'ylagim ustidan oltin gulli, brilyant to'g'nog'ichli yopinchig'imni tashlab olaman. Bunaqasi har kimda ham bo'lavermaydi!

¹ «Qulqiz» degan ma'noda.

Ular eng yaxshi tikuvchiga qo'sh burmali chepets¹ buyurishibdi, juda qimmatbaho lentalar sotib olishibdi. Zolushkaning kiyim tanlashga didi yaxshi bo'lganligi uchun, undan har bir masalada maslahat so'rabdi. Zolushka opalariga jon-dili bilan maslahat beribdi, hatto: «Sochiaringizni tarab qo'yaymi?» deb ham so'rabdi. Bunga opalari suyunib rozi bo'lishibdi.

Zolushka opalarining sochlarini tarab turganda, ular Zolushkadan:

– Rostini ayt-chi, Zolushka, sen ham bazmga borishni xohlarmiding? – deb so'rabdi.

– Voy opajonlarim, meni hech mazax qila ko'rmang! Axir meni u yerga kiritisharmidi?

– Rost-da! Agar bu isqirtni bazmda ko'rib qolishsa bormi, kulaverib hammaning ichagi uzilardi!

Agar boshqa qiz bo'lganda, bu gaplar uchun ularning sochlarini jo'rttaga xunuk qilib tarardi, lekin Zolushka oqko'ngil bo'lganidan opalarining sochlarini mumkin qadar yaxshilab o'rib, tarabdi.

Opalari xursand bo'lganliklaridan hovliqishib, ikki kun hech narsa yeyishmabdi, bellarini xipcha qilib bog'lab, oyna oldida gir aylanib yurishaveribdi.

Nihoyat, zoriqib kutgan kunlari kelibdi. Opalari bazmga ketishibdi, Zolushka esa ularning orqalaridan uzoq vaqt qarab qolibdi. Opalari tushgan kareta ko'zdan g'oyib bo'lganidan keyin, u achchiq-achchiq yig'labdi.

Uning yig'layotganini bir rahmdil sehr-gar kampir ko'rib qolib: «Nimadan xafa bo'layapsan?» deb so'rabdi.

¹ Ayollarning bir turli bosh kiyimi.

– Men xohlardimki... men ham xohlardimki... – Zolushka o'pkasini bosolmay yig'lab, gapini aytolmabdi.

Lekin buning sababini sehrgarning o'zi darrov fahmlabdi:

– Sen ham bazmga borishni xohlayotgandir-san-a? To'g'rimi?

– Ha, to'g'ri, – deb xo'rsinib-xo'rsinib javob qilibdi Zolushka.

– Mening aytgan gaplarimdan hech chiqmay-sanmi? – deb so'rabdi sehrgar. – Agar gapimga quloq solsang, bazmga borishingga yordam qilaman.

Sehrgar kampir Zolushkani o'z uyiga olib kelib:

– Sen bog'ga chiqib, menga oshqovoq uzib kel, – debdi.

Zolushka yugurganicha bog'ga chiqib, bitta eng yaxshi oshqovoqni tanlab, sehrgarga olib kelibdi. Lekin Zolushka o'zining bazmga borishi uchun bu oshqovoq qanday qilib yordam bera olishiga hech tushuna olmabdi.

Sehrgar oshqovoqni po'stigacha o'yib, keyin unga sehrli tayoqchasini teggizib qo'yan ekan, ko'z ochib yumguncha haligi oshqovoq tilla karetaga aylanibdi.

Shundan keyin, sehrgar kampir qopqonga qarab unda oltita tirik sichqon o'tirganligini ko'rib qolibdi.

U, Zolushkaga qopqonning og'zini sal ochib qo'yishni buyuribdi. Qopqondan sakrab chiqqan har bir sichqonga sehrli tayoqchasini teggizib qo'yaveribdi. Ko'z ochib yumguncha sichqon chiroyli otga aylanibdi. Shunday qilib,

oltita sichqon o'rniga sichqon rangidagi, karetaga qo'shadigan oltita ajoyib ot paydo bo'libdi.

– Kucherni qayerdan topsak ekan? – deb sehrGAR o'ylab qolibdi.

– Qani, men borib kalamush qopqonni ko'raychi, bironta kalamush tushganmikan, – debdi Zolushka, – kalamushni kucher qilish mumkin.

– Ha, rost, – debdi ma'qullab sehrGAR, – bor, qara-chil!

Zolushka kalamush qopqonni olib kelibdi, unda uchta semiz kalamush bor ekan.

SehrGAR ularning ichidan eng katta, mo'ylovli bir kalamushni tanlab, tayoqchasini teggizib qo'ygan ekan, kalamush bir zumdayoq shop mo'ylovli semiz bir kucher bo'lib qolibdi.

Shundan keyin sehrGAR kampir Zolushkaga qarab:

– Bog'dagi leyka orqasida oltita kaltakesak yotibdi. Borib shularni menga olib kel, – debdi.

Zolushka kaltakesaklarni olib kelishi bilananoq, sehrGAR ularni yoqali kiyim kiygan olti malayga aylantiribdi. Ular, bir umr shundan boshqa ish qilmagan malaylardek, epchillik bilan karetaning orqasiga o'tib olishibdi.

– Mana endi bazmga borishing mumkin, – debdi Zolushkaga sehrGAR. – Xursandmisan?

– Albatta, xursandman? Lekin ustimdagi yomon ko'ylagim bilan bazmga qanday qilib boraman?

SehrGAR tayoqchasini Zolushkaga teggizib qo'ygan ekan, uning ustidagi eski ko'ylagi ham ko'z ochib yumguncha qimmatbaho toshlar qadalgan va oltin, kumushdan ishian-

gan ajoyib zarvaroq libosga aylanibdi. Buning ustiga, sehrGAR bir juft billur tuflicha hadya qilibdi. Bunaqa chiroyli tufllar olamda hech bo'lmagan ekan!

Yarqiragan chiroyli kiyimlarni kiyib yasangan Zolushka karetaga tushibdi. Jo'nashi oldidan sehrGAR unga soat xuddi yarim kechaga zang ur-guncha qaytib kelishini qattiq tayinlabdi.

– Agar sen bir daqiqa ham kech qolguday bo'lsang, – debdi sehrGAR kampir, – karetag yana oshqovoqqa, otlaring sichqonlarga, ma-laylaring kaltakesaklarga, zarvaroq kiyiming eski ko'ylakka aylanadi.

Zolushka sehrGAR kampirga yarim kecha bo'lmasdan saroydan qaytishga va'da berib-di-da, xursandchilikdan hech yerga sig'may bazmga jo'nab ketibdi.

Noma'lum, lekin juda badavlat bir ma-lika kelganligini shahzodaga xabar qilishibdi. Shahzoda uni kutib olishga shoshilibdi, kare-tadan tushishiga yordam qilibdi va mehmonlar to'plangan zalga olib kiribdi.

Ular kirishi bilanoq butun zal jim bo'lib qolib-di: noma'lum malikaning husni-jamoliga hayron qolib, mehmonlar raqs tushishdan, skripkachi-lar skripkalarini chalishdan to'xtabdilar.

– Bunchayam chiroyli ekan-a! – deb chek-ka-chekkadan hamma shivirlay boshiabdi.

Hattoki kekxa shoh ham unga qarab hech to'ymabdi, qirolichaning qulog'iga: «Bu yaqin o'rtada bunaqangi chiroyli va bunaqangi bar-no qiz ko'rmagan edim» deb shivirlabdi.

Xotinlar bo'lsa, ertadanoq o'zlariga xuddi shunaqa liboslar buyurtirish uchun, uning kiyimlarini diqqat bilan ko'zdan kechirishibdi, lekin xuddi shunga o'xshagan ajoyib gazmollar va chevar tikuvchilar topa olarmikanmiz, deb qo'rqishibdi.

Shahzoda Zolushkani zalning eng to'riga olib borib raqsga taklif qilibdi. Zolushka shunaqangi yaxshi raqs tushibdiki, odamlar uni yana ham yaxshi ko'rib qolishibdi.

Shundan keyin, oradan ko'p o'tmay, har xil shirinlik va meva-chevalar tortilibdi. Lekin shahzoda go'zal malika bilan ovora bo'lib, birona shirinlikka qo'l ham teggizmabdi.

Zolushka opalari yoniga kelib, ular bilan muloyim gaplashibdi va shahzoda hadya qilgan apelsinni ular bilan baham ko'ribdi.

Opa-singillar bu notanish malikaning o'zlariga bunchalik mehribonlik qilganiga juda hayron qolishibdi.

Suhbat eng qizigan paytda, Zolushka soatning chorak kam o'n ikkiga zang urganini birdan eshitib qolibdi-da, tezlikda hamma bilan xayrlashib chiqib ketibdi.

Uyga qaytganidan keyin eng avval sehrgar kampirning yoniga yugurib kelibdi-da, unga minnatdorlik bildiribdi va ertaga yana bazmga borishni xohlayotganini – shahzoda yana kelishini juda ham o'tinib so'raganini aytibdi.

Zolushka bazmda bo'lgan voqealarni sehrgarga so'zlab berayotgan vaqtda, birdan eshik taqillab qolibdi. Kelganlar opallari ekan. Zolushka eshikni ochish uchun chiqib ketibdi.

– Bazmda ancha qolib ketdingiz-a! – debdi Zolushka go‘yo uyqudan endi turganday, ko‘zlarini ishqalab va tikilib.

Haqiqatan esa, opalaridan ajralganidan beri uyqu esiga ham kelmagan ekan.

– Agar sen bazmda bo‘lganingda, – debdi opalaridan biri Zolushkaga, – hech zerikmas eding. Bazmga bir malika keldi – biram chiroyliki, asti qo‘yaver! Dunyoda unaqa chiroylisi yo‘q! Biz bilan juda muloyim gaplashdi, bizni apelsin bilan mehmon qildi.

Zolushka xursandlikdan titrab ketibdi. U malikaning ismini so‘rabdi. Lekin opa-singillar: «Malikaning ismini hech kim bilmaydi, shahzoda ham shuning uchun xafa. Malikaning kim ekanligini bilish uchun shahzoda har qancha bo‘lsa ham berardi», – deyishibdi.

– Balki malika juda ham chiroylidir? – deb kulimsirab so‘rabdi Zolushka. – Sizlar xo‘p baxtiyorsizlar-da! Men ham uni hech bo‘lmasa bir marta ko‘rsam edi... Opajon, bir yaxshilik qiling, uyda kiyadigan sariq ko‘ylagingizni berib turing!

– Topgan gapingni qara-ya! – deb jerkib tashlabdi katta opasi. – Men shu isqirtga ko‘ylagimni berarmishman. O‘lsam ham bermasman!

Zolushka opasining ko‘ylak bermasligini bilarkan. Bermagani uchun bir jihatdan xursand ham bo‘libdi. Bordi-yu, opasi ko‘ylagini berguday bo‘lsa nima qilardi?..

Ertasiga Zolushkaning opalari yana bazmga ketishibdi. Zolushka ham ketibdi; u, bu safar avvalgidan ham yaxshiroq yasanib olib-

di. Shahzoda uning yonidan hech ketmay, qu-log'iga har xil yoqimli so'zlarni shivirlabdi.

Zolushka juda ham xursand bo'lib ketib sehrGAR tayinlagan topshiriqlarni butunlay esidan chiqarib qo'yibdi. U hali soat o'n bir ham bo'lmagan bo'lsa kerak, deb o'ylaganda, birdaniga soat yarim kechaga zang ura boshiabdi. U cho'chib tushibdi-da, o'qday otilib, qushday uchib qochib qolibdi. Shahzoda uning ketidan quvib yetolmabdi.

Zolushka juda shoshganligidan bir poy billur tuflichasini oyog'idan tushirib qo'yibdi. Shahzoda ehtiyotlik bilan tuflini yerdan olibdi.

Darvozabondan: «Malikaning qayoqqa o'tib ketganligini ko'rmadingmi?» deb so'rabdi. Darvozabon unga saroydan bir kambag'al qiz yugurib chiqqanligini va u qiz malikaga emas, dehqon qizga ko'proq o'xshab ketganligini aytibdi.

Zolushka halloslaganicha karetasiz, maylarsiz, o'zining o'sha eski ko'ylagida uyiga chopib kelibdi. Uning egnidagi zebi-ziynat kiyim-kechaklaridan faqat bir poy billur tuflichasi qolibdi, xolos.

Opalari bazmdan qaytib kelganlarida, Zolushka ulardan: «Bazm bugun ham kechagiday qiziq o'tdimi, o'sha sohibjamol malika yana keldimi?» deb so'rabdi.

Opa-singillar malikaning kelganligini, lekin soat yarim kechaga zang urgandagina qochib qolganligini va qochib ketayotganida oyog'idan bir poy qizil billur tuflichasining tushib qolganligini, shahzoda tuflichani qo'lga olib, bazm tamom bo'lguncha undan ko'zini uzmaganligini

aytishib: «Ko'rinib turibdiki, shahzoda o'sha tuflining egasi – go'zal malikani qattiq sevib qolibdi», deyishibdi.

Opa-singillar to'g'ri aytgan ekanlar: oradan bir necha kun o'tgandan so'ng shahzoda mana shu billur tufli qaysi bir qizning oyog'iga to'g'ri kelsa o'sha qizga uylanaman deb, butun mamlakatga jar soldiribdi.

Shundan keyin tuflini eng avval malikalarga, so'ngra gersoginyalarga, undan keyin butun saroy xonimlariga birin-ketin kiydirib ko'ribdilar. Lekin hech kimga to'g'ri kelmabdi.

Billur tuflini Zolushkaning opalariga ham olib borishibdi. Ular o'sha kichkinagina tuflini oyoqlariga kiyish uchun shuncha ko'p urinsalar ham, tufli hech sig'mabdi.

Zolushka ularning butun kuchlarini sarf etib qilayotgan bu harakatlarini ko'rib, o'z tuflisini tanibdi-da, kulimsirab:

– Men ham bu tuflini kiyib ko'rsam bo'ladimi? – deb so'rabdi.

Opa-singillar javob berish o'rniga uni masxara qilib, kukishibdi. Lekin tuflini olib kelgan saroy xodimi Zolushkaga diqqat bilan tikilibdi. U, Zolushkaning juda ham chiroyli ekanini o'z ko'zi bilan ko'ribdi va: «Menga bu tuflini mamlakatdagi barcha qizlarga kiydirib ko'rish kerak», deb farmon berishgan debdi.

Zolushkani o'rindiqqa o'tqazib, tuflichani oyog'iga kiydirgan ekan, tufli uning oyog'iga loppa-loyiq kelibdi. Opa-singillar juda hayron bo'lishibdi. Lekin Zolushka cho'ntagidan xuddi shunaqa tuflichaning ikkinchi poyini olib,

boshqa oyog'iga kiyganida, opa-singillar tamoman o'zlarini yo'qotib, hayron bo'lib qolishibdi.

Shu orada rahmdil sehrigar kampir yetib kelib, tayoqchasini Zolushkaning eski ko'ylagiga tekkizib qo'ygan ekan, uning egnidagi ko'ylak avvalgidan ham dabdabali, yana ham chiroyli libosga aylanibdi.

Bazmga borgan eng go'zal – sohibjamol malikaning kimligini opa-singil endi bilishibdi! Ular o'zlarini Zolushkaning oyog'iga tashlab: «Qilgan gunohlarimizni kechir», – deb yolvorishibdi.

Zolushka ularni o'rnidan turg'izib, bitta-bit-ta o'pibdi-da: «Gunohiaringizni kechirdim, lekin meni hamma vaqt sevinglar», – debdi.

Yasangan Zolushkami saroyga, shahzoda huzuriga olib borishibdi. Zolushka uning ko'ziga avvalgidan ham chiroyli bo'lib ko'rimibdi. Bir necha kun o'tgandan keyin shahzoda Zolushkaga uylanibdi.

Zolushkaning qalbi ham go'zal chehrasiga o'xshab rahmdil, muloyim ekan. U o'gay opalarini o'zi bilan birga saroyga olib ketibdi-da, o'sha kuniyoq ularni ikki saroy amaldoriga erga beribdi.

S.F.Ismoilova tarjimasi

IZQUVAR BROK

rok qishloqning odatdagi qo'riqchi ko'ppaklaridan edi. U shalpangquloq, yunglari o'siq, bahaybat it bo'lib, qachon qaramang paxmoq dumini u yoqdan bu yoqqa urgani-urgan edi. Uning tusi qo'ng'ir, faqat mijjalari go'yo kimdir loyqa ohakka botirilgan cho'tkani surib qo'ygandek g'alati ko'rinardi.

Brok bir fazilati bilan, ya'ni izquvarlikni xush ko'rishl bilan qishloq ahli hovlilaridagi o'z kasbdoshlaridan farq qilardi. Biror lahza bo'sh qoldimi, darrov mutolaaga mukkasidan ketardi. Katagida izquvarlikka oid kitoblari shu qadar qalashib ketgan ediki, hatto o'zi ham unga bazo'r sig'ardi. «O'rmon yong'og'ining siri», «Tovuqxonadagi o'g'rilik yoki hurpaygan maxluq», «Ajoyib gultuvakni kim sindirdi», «Xirmon ortidagi g'alati tovushlar», «Zulmatdagi sirli qadamlar», Brok bosh ko'tarmay o'qiydigan, izquvarlikka oid ba'zi bir kitoblarning nomlari ana shunday edi. Ha, shunaqa, kitob desa, Brok o'zini tomdan tashlardi. Kitob uning joni, balki, jonidan ham ortiq edi. U kitobni ko'rsa yeb qo'yguday bo'lardi. Kunduzi yetmaganday kechasi ham undan bosh ko'tarmasdi. O'qishga qulay bo'lsin uchun ne mashaqqatlar bilan katagini tun bo'yi hovlini charog'on etib turuv-

chi, sim to'rt qoplamali, kuchli elektr chirog'i yaqiniga surib olganini aytmay sizmi?!

Bordi-yu, tun yarmida uni uyqu eltib qolgudek bo'lsa bormi, tushida ham u aql bovar qilmas ajoyib sarguzashtlarni boshidan kechirayotgan bo'lardi. Tushida ham bezovta bo'lib u yoqdan bu yoqqa yurib chiqar, esnar, xo'rsinardi. Albatta, bu chinakam uyqu emasdi. Miriqib uxlamagan kimsa kun bo'yi o'ziga kelolmay, lanj bo'lib, esnab yurishi hammaga ma'lum.

Kitob o'qiyverib, Brokning ko'zlari xiralashib, charchab qoldi. Bu ahvolda oxiri yotib qolishi ham hech gap emasdi.

«Izquvarlik sohasida shuncha ilm-u hunarga ega bo'la turib, endi shunday yuraverishim durust emas, kallada esa ilm tobora ko'payib ketyapti. Shuning uchun ham kun sayin orig'lab boryapman nazarimda. Olgan bilimlarimni sarflamaganimdan keyin undan nima foyda? Endi ularni amalda qo'llashim lozim», — dedi u bir kuni o'ziga o'zi.

Uzoq xayol surib, oxiri buning ilojini topdi, ya'ni «qidiruv mahkamasi» ochishga qaror qildi.

Kelasi kuni tongda shu hovlida istiqomat qiluvchilarning bari Brokning katagi atrofida uy-malashib qolishdi. Ular og'izlarini ochgancha:

QIDIRISH MAHKAMASI

Hamma narsani qidirib topaman!!!

Tez — arzon — ishonchli

deya katta-katta harflar bilan yozib qo'yilgan e'lonni juda qiziqish va taajjub bilan ko'zdan kechirishardi.

Brok hammaning mazkur e'lon oldidan jilolmay qolishini ko'rib quvonsa ham, o'zini go'yo hech nima sezmaganga solib yuraverdi. Mana, nihoyat, mashhur izquvarlar haqida yozilgan kitoblardan orttirgan bilimlarini o'zi amalda sinab ko'rish payti yetib keladigan kun ham bor ekan-ku! Brokni oyog'ining uchida ko'rsatib yuradiganlarning ham endi ko'zi ochiladi. Nega deganda, endi qo'ni-qo'shnilarga kerak bo'lib qolishi turgan gap. Qilgan xizmati evaziga hech bo'lmasa bitta-yarimtasi ilik-milikni himmat qilib yuborsa ham ajabmas, bir qora kuniga asqatadi.

Brok yaqin kunlarda erishishi mumkin bo'lgan shon-shuhrati haqida xayol surib, biror «quvonchli voqea» sodir bo'lishini kuta boshladi. Bu, albatta, o'z tuqqaniga ham xush keladigan narsa emasligini fahmlardi, fahmlardi-yu, lekin baribir shunday voqea mana shu hovlidami yoki yaqin tevarakdami tezroq yuz berishini intiqlik bilan kutar va bunga umid bog'lardi. Ha, u tezroq biror kori hol ro'y berishini va paytdan foydalalanib o'zining izquvarlik olamidagi yuksak qobiliyatini ishga solishini, el og'ziga tushishini juda-juda istardi. Ammo aksiga olgandek, hovlida hech qanaqangi favqulodda voqea ro'y bermas, hayot bir maromda davom etardi.

Katakka yopishtirib qo'yilgan e'lon qog'ozi oftoabda sarg'ayib, harflari tanib bo'lmas darajaga kelib qolgan edi. Qidiruv mahkamasiga esa hech kim tashrif buyuray demasdi. Shu-shu bo'ldi-yu, mahkama boshlig'i nima qilishini bilmay, yana uzzukkun kitob mutolaa qilishga, bilimini yana ham oshirishga kirishib ketdi.

Ittifoqo, dastlabki mijozi kutilmaganda kelib, katak eshigini taqillatganida uning nechog'lik esankirab qolganidan taajjublanmasa ham bo'ladi. Nogoh vujudida paydo bo'lgan vahm hissini bosib olish uchun bir necha daqiqa zarur bo'ldi, xolos, o'z-o'zidan ayonki, bunday tuyg'unl u imkoni boricha pinhon tutardi. Axir, iste'dodli izquvar bo'lsa-yu, hech narsadan hech narsa yo'q qo'rquvdan qaltirasa! Mijozi nima deb o'ylaydi?

Buni qarangki, eshik taqillatib kelgan bu ilk mijozni mijoz degani ham tiling bormaydi. Sababki, «qidiruv mahkamasi»ga murojaat qilgan zot.. qimmatli qo'shnisi – mittigina qoramosh mushuk Mourek edi! Ushbu mijoz, garchi, Brokning sira ko'nglidagidek bo'lmasa-da, qabul qillshga majbur edi. Chunki u qidiruv ishlariga muhtoj bo'lgan har qanday kimsadan o'z yordamimni ayamayman, deb va'da bergan edida! Aytilgan so'z – otilgan o'q! Gap bunda ham emas, eng muhimi kim bo'lishidan qat'i nazar axiyri uning «mahkama»siga murojaat qiladigan topildi-kul!

– Xo'sh, nima gap o'zi? Qulog'im sizda, gapi-ring, ne arz bilan tashrif buyurdingiz? – deya ochiq ko'ngillik bilan so'radi u, Mourek saro-simasini osonlikcha bartaraf qilishi uchun. Nazarida, birinchi mijozi anchagina hayajonlanayotganday tuyuldi. Mijozining bu ahvolda ko'nglidagi dardini aytolmay ketib qolishi ham mumkin. – Biror narsangizni o'g'irlatdingizmi? – surishtirdi Brok. – Yoki sizga tahdid qilish-yaptimi?

Izquvarlar haqida yozilgan romanlardagi qahramonlar odatda o'ldirilishlaridan oldin qo'rqituvchi maktublar olishardi.

Mourek dudug'lanib, bu xil maktublar olmaganligini bildirdi va:

– Meni tunashdi, – dedi arang ovozi chiqarib. – O'g'ri urdi.

– E, shunga shunchami? O'g'rini hash-pash deguncha topamiz-da! – bidirlab dedi Brok. – Qani o'tiring, voqea qanday sodir bo'lganini bir chetdan so'zlab bering!

Bunday iliq muomaladan qoramosh erib ketdi. Undagi sarosimalik yo'qolib, hikoyasini davom ettirdi:

– Mening bir xilvat joyim bor edi, uncha uzoqda emas, hov to'siq oldida. Juda chuqur ham emasdi. Lekin uni hech kim bilmasdi. Har holda men shunday deb o'ylardim...

– Batafsilroq tushuntirib ayting-chi? – Mourekning gapini bo'ldi o'z ishinining bilimdoniday izquvar.

– Shundoq, oddiy chuqurcha edi. Tuynukchaday bir narsa. Tirnoqlarim bilan kavlab, yana tekislab qo'ygandim.

– E, ha, bundoq demaysizmi. – Brok kallasini sarakatlagan edi, shunda shalpangquloqlari beixtiyor lapanglab ketdi. – Xo'sh, xo'sh, keyin-chi?

Qoramosh shoshib so'zida davom etdi:

– Bu chuqurchaga men ba'zan o'zimdan ortib qolgan suyaklarni yashirib yurardim, biror yomon kunimga yarab qolar deb...

– Yaxshi qilarkansiz! – boshini qimirlatdi Brok va salmoq bilan mijozi: – Marhamat

qilib, gapning lo'ndasini aytishga harakat qiling, – dedi.

– Xo'p bo'ladi, – dedi qoramosh shoshilgan-cha. – Jonim bilan, kechagina yana o'sha yerni kavlab, yaxshigina bir tovuq suyagini ko'mib qo'yan edim, etlikkina suyak edi.

– Etlikkina edi deysizmi? – labini yaladi Brok va yana o'zini qo'lga oldi-da, jiddiy ohangda savol berishni davom ettirdi: – Agar sir bo'lmasa aytg-chi, nega siz bu masalada aynan menga murojaat qildingiz, ya'ni mening mahkamamga?

– Albatta, albatta! – aybdor kabi ojizona miyovladi mushukcha. – Men ham endi shuni aytmoqchi bo'lib turuvdim, janobi izquvar. Kechagina o'sha joyga haligi, etlik suyakchani ko'mib qo'yan edim, bugun borib ochib qarasam joyida yo'q, – deya gapini tugatdi Mourek.

Brok beso'naqay boshini old panjalariga qo'yganча o'ya cho'mib:

– Demak, bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, – dedi hamon xayol daryosida suzgancha g'udranib, – suyak g'oyib bo'lgan.

– Ha, g'oyib bo'lgan!

– Men o'ylayotgan vaqtda xalaqit berilmasin! Demak, suyak yo'qolgan ekan, bundan shunday xulosa chiqadiki, uni o'g'irlashgan, ya'ni o'marishgan! Shunday emasmi?

– Xuddi shunday! – deya uning so'zini tasdiqladi qoramosh, Brokdan nigohini uzmay.

– Shunday qilib, xulosa qilishimiz mumkin, suyakni o'g'irlashgan, aniqrog'i, o'marishgan, ya'ni kimdir bunga oldindan ko'z tikib yurgan, ya'ni o'marishga tayyorgarlik ko'rib qo'yan!

– Ha-ha, qandaydir o'g'ri bo'lsa kerak, – deb shivirladi qoramosh.

– Jim turing! – uning so'zini bo'ldi Brok. So'ng mijoziga jiddiy nigoh tashlab, so'zida davom etdi: – Bilib qo'ying, bu haqda faqat men bosh qotirishim lozim. Demak, kimdir suyakni o'margan, ya'ni o'sha «kimdir» jinoiy ishga qo'lgan, mazkur jinoyatchi bu ishga oldindan puxta tayyorgarlik ko'rib yurgan. Bundan qanday xulosa kelib chiqadi?

Qoramosh miq etmadi.

– Bundan shu narsa kelib chiqadiki, – deya ovozinı balandlatdi Brok, – birinchi navbatda, biz bu yashirin joy kimlarga ma'lum bo'lganligini aniqlashimiz lozim. Shuni aniqlasak bo'ldi, jinoyatchining jilovi qo'limizda deyavering, og'ayni.

Qoramosh, garchi, bu gaplarni sukut saqlab eshitayotgan bo'lsa-da, hayajon ichida ko'zlari bir-ikki yumib-ochdi va minnatdorlik bilan bosh iring'ab qo'ydi.

Brok esa bu mushkul muammoning xamirdan qil sug'urganday oson hal bo'lganidan benihoyat mamnuh edi. Uning bu birinchi ishidayoq muvaffaqiyat qozonishi qanday yaxshi! Eng keragi ishni bir boshlab olish. Ayniqsa, izquvar, ya'ni qidiruvchi uchun buning nechog'li ahamiyatli ekanini gapirmasa ham bo'ladi. Agar izquvar birinchi qadamidayoq xatoga yo'l qo'ysa bormi, tamom, bu xato keyingi ishlariga ham ta'sir qiladi va bir umr boshi ta'nadan chiqmaydi.

Brok uyulib yotgan kitoblarga bir-bir ko'z yugurtirib chiqdi, nazarida, bu kitobiarning

deyarli har birida mashhur izquvarlar o'g'rilik va talon-torajlik ustidan tekshirishlar olib bordilar. Ularning ishi oldida qandaydir tovuq suyagini qidirish Brokka xiyla mayda ishdek tuyulib ketdi. Shuning uchun ham yo'qolgan suyak masalasini Brok o'ynab-kulib hal etishi va xuddi mana shu kitoblarda yozilgan mashhur izquvarlar kabi tez orada shuhrat qozonishi hech gap emas!

Brok shirin xayollardan sergak tortib, o'ziga keldi.

– Bilasizmi, birodari aziz. Endi menga o'sha – o'zingiz ta'riflagan chuqurchangizning qayerda joylashganini ko'rsatib qo'ysangiz. So'ng bermalol uyingizga ketaverishingiz mumkin. Ertaga esa tongda o'z mulkingizni olib ketgani kelavering.

– Rostdanmi? – deya ko'zlarini pirpiratdi mushukcha.

– Shubha qilishga aslo o'rin yo'q, – dedi Brok va o'sha sirli joyga boshlab borishga ishora qildi.

– Mana shu joyda, – dedi Mourek to'siq yoniga borgach.

– Hech narsa yo'q-ku, bu yerda, o'rni ham bilinmaydi.

– Men o'sha zahoti yana tekislab qo'ygandim, – deya o'z ishidan minnatdorona ohangda gapirdi Mourek. – Ko'zga tashlanmasim dedim-da! Brok bosh irg'ab qo'ydi.

– Yaxshi qilgan ekansiz. Shunday bo'lsa ham, baribir men uni tekshirib ko'rishim kerak.

– Marhamat, izquvar janobi oliylari, marhamat.

«Ish degan bunday bo'пти», – deb qo'ydi Brok, o'ziga o'zi. So'ng beixtiyor ochilib qolgan jag'la-

rini g'ijirlatib qo'ydi. U shu damda mijoziga bu ishning qanday bajarilishini o'rgatishga ham tayyor edi. So'ng qudratli panjalarini harakatga keltirib, bir zumda chuqurcha qazidi va bu chuqurchani Mourekka ko'rsatib:

– Suyak shu yerda edimi? – deb so'radi. Qoramosh tasdiq ohangida boshini likillatdi.

– Shu yerda edi, endi esa yo'q.

– Yo'qligini o'zim ham ko'rib turibman. Endi menga boshqa kerak bo'lmaysiz, blrodari aziz. Tekshirish ishlarini bitta o'zim olib boraman, hech qanday guvohsiz. Mana bu yerni esa, – Brok kavlab tashlagan chuqurchaga ishora qilib ko'rsatdi, – men o'zim ko'ngildagidek qilib tartibga keltirib qo'yaman, ertagacha xayr! – shibbaladi, so'ng razm solib qarab chiqdi. Hammasi joyida edi. Birortasi ta'qib etmayotganmikin degan shubhada atrofiga bir-ikki qarab ham qo'ydi. Tekshirish ishlari qanday ketayotganligini bilish maqsadida kimdir kuzatib turgan bo'lishi ham mumkin-da! Darvoqe, ishni nimadan boshiasa ekan?

Kitoblarda yozilishicha, odatda voqea so-dir bo'lgan joyda, albatta, qandaydir iz qolishi kerak.

Brok yana atrofga ko'z yugurtirib chiqdi; hech qanday belgidan asar ko'rinmasdi. Faqat tekislangan yerda uning o'z panja izlari bor edi, xolos.

Ishni nimadan boshlasa ekan-a? To'satdan uning kallasida yalt etib najot beruvchi fikr paydo bo'ldi. Bu o'z fikri emas edi, albatta. Buni qaysidir bir kitobdan o'qigan edi. Brok o'qigan kitoblaridagi sarguzashtlarni shu qadar o'zi-

ga singdirib olgan ediki, hozir miyasida o'sha sarguzashtlar ayqash-uyqash bo'lib ketgandi; shu sababli ularning qaysi biri rost, qaysi biri yolg'onligini hozir sira farqlay olmayotgandi.

«Har qanday tajribasiz qidiruvchi ham jinoyatchining voqea sodir bo'lgan yerga qaytib kelishini kutadi, chunki jinoyatchi jinoyat qilgan yeriga qaytib kelmay iloji yo'q», – deya mulohaza qildi Brok va darhol bu kashfiyotini amalda sinab ko'rishga kirishdi (garchi Brokning hech qanday kashfiyoti bo'lmasada).

Bu ishga favqulodda oddiy tarzda kirishdi. Ya'ni, yunglarining yaltiroq sirti jinoyatchiga o'zining qayerga yashiringanligini sezdirib qo'yishidan cho'chib, sal nariroqqa, to'siqdan uncha uzoq bo'lmagan yerga tappa yotib, o'g'ri-ni kuta boshiadi.

«Hamma buyuk kashfiyotlar oddiy xulosalardan tug'iladi. Izquvarlik sohasi ham bundan mustasno emas», – Brok ko'nglini xotirjam tutib, mamnunlik bilan mulohaza yurita boshladi.

Keyin, shu taxlit jim yotaverish oxiri joniga tegdi. Brok zing'illab borib katagidan yaqinda xarid qilgan «Izquvar Foksning so'nggi muammosi» deb nomlangan kitobni olib keldi va uni o'qishga tutindi. Bekordan-bekor yotaverganidan nima foyda, hech bo'lmaganda izquvarlikka oid biror ma'nili gap o'qigani qoladi-kul! Jinoyatchini esa, chuqurchaga yaqinlashib qolganda sharpasidan ilg'ab olar. Shunday xayolda u kitobga mukka tushdi.

Xuddi shu lahzada, ya'ni izquvar Foks botqoqdan sirli panja izlarini topgan paytda

to'siq ortidan qudratli qanotlarning silkinishiga o'xshagan bir ovoz eshitilib qoldi.

Brok kitobni yopdi-da, bildirmay – bir ko'zi-ni yumib, to'siq tirqishidan o'sha tomonga mo'raladi. So'ng bu to'siqdan yengil sakrab o'tdi-da, o'takasi yorilayozgan tovuqqa qarab dag'dag'a qila ketdi.

– O'rningizdan qimirlamang! Bu yerda nima qilib yuribsiz!

– Tuproq titkilayapman. Yoki tuproq titkilash man qilinganmi-a? – deb qaqaladi tovuq.

– E'tiroz bildirilmasin! – deya uning so'zi-ni bo'ldi Brok va so'roqni davom ettira ketdi: – Men qidiruv mahkamasining boshlig'i, ya'ni bosh izquvar bo'laman. Savollarimga vijdonan javob berishingizni talab qilaman. Aks holda, bo'yingizdagi javobgarlik ortadi.

– Marhamat, lekin men hech qanday jinoiy ish qilganim yo'q-ku, boshliq... janobi oliylari.

– Qidiruv mahkamasining... – deya tovuqning yo'l qo'ygan xatosini to'g'riladi Brok. – Bosh tortmasdan, mening savollarimga to'g'ri va aniq javob bering. Ismingiz nima?

– Tovuq.

– Turar joyingiz qayerda?

– Qo'shni hovlidagi tovuqxonada.

– ...qo'shni hovlidagi, – deya yarim ovozda takrorladi Brok, so'ng bu muhim ma'lumotlar-ni qunt bilan qalingina yon daftariga tirkab qo'ydi. – Bu joy sizga oldindan ma'lummidi? – Brok tovuqqa sinovchan nazar soldi.

– Gapingizga tushunolmadim? – dedi tovuq garangsib.

Brok masxaraomuz tirjaydi:

– Xo‘p, mayli. Qani ayting-chi, siz bu yerni avval ham hech kavlaganmidingiz? Kavlaganmisiz yoki yo‘qmi, deb so‘rayapman sizdan?

– Yo‘q, hech qachon kavlamaganman.

– Shunaqami?! – deya bir lahza jim bo‘lib qoldi Brok. – Bo‘lmasa endi nega bu yerda o‘ralashib qoldingiz?

– Chuvalchang, qurt-qumursqalar qidirypman. Hamma tovuqlar qatori, – entikib javob qaytardi tovuq.

– Chuvalchang, qurt-qumursqalar qidirypman deng-a? – Brokning ovozi piching ohangi sezildi. So‘ng Brok poylab turib birdan hujumga o‘tdi:

– Nega endi aynan shu yerni tanladingiz? Aytaylik, sal nariroqni emas, a, hurmatli tovuqxonim?

G‘alaba nashidasidan Brokning ko‘zlari chaqnab ketdi. Bu savoli bilan u tovuqni tutdim deb o‘ylagandi-da! Ana endi bu qaqildoq chipor uning oldida yer o‘pib, aybiga iqror bo‘ladi!

Ammo qaqildoq pinagini ham buzmay vazmin ohangda javob qaytardi:

– Shundoq yumshoqqina yer turganda, nima qilaman boshqa joy izlab, qidiruvchi janobi oliylari. Kimdir bu yerni avval kavlagan ekan. Ha, aytmoqchi, boya qandaydir bir it qaziyotganday bo‘luvdi. Qarang-a, panja izlariyam tanishga o‘xshayapti. Kim biladi, bu yerdan nimalarni qidirganikin? Albatta, menga o‘xshab chuvalchang yoki qurt-qumursqalar izlab kelmagandir. Itning bunday mayda-chuyda narsalar bi-

lan ishi bo'lmaydi. Buni hatto tuxumdan yangigina chiqqan jo'ja ham biladi!

– Bas! – Brok bidirlab mahmadonalik qilayotgan tovuqning so'zini bo'ldi. Ammo ko'nglida uning ba'zi e'tirozlarida jon borligini ham tan oldi. Nahotki, shunday muhim bir ishning ochilishiga qandaydir bir tovuq xalaqit bersa! Bu yerda u bekorga ovora bo'lib yurgani yo'q-ku! Buni izquvarlik deb qo'yibdi. Shuning uchun ham u bu yerda ovorayi sarson bo'lib yuribdi-da!

– Hm, – deya ma'noli tomoq qirib qo'ydi Brok. Endi u vaqtdan yutishi, qanday qilib bo'lsa ham bu mahmadona tovuqdan qutulish chorasini izlardi.

– Bu yerdagi gaplar shu yerda qolsin. Men muhim bir ishning izidan tushganman. Shu sababli ham barchaga shubha bilan qarashimga to'g'ri keladi... Behuda bezovta qilganim, uchun uzr, qaqildoq xonim! Endi esa, marhamat qilib, chuqurchani tekislab qo'ying, so'ng sizga ruxsat beramiz. Omon bo'ling... Brok qutulganingiz bilan tabriklayman, degan ma'noda boshini likillatdi-da, to'siq ortidagi o'z kuzatuv joyini borib egalladi. Tovuqqa endi u e'tibor bermas, kitob mutolaa qilishga ham ko'nglida rag'bat sezmasdi. Vaqt o'tib borar, tekshiruv ishiari esa sira oldinga siljimas edi. Ertasi tong chog'i Mourek yoniga kelganida, nima deydi?

Brok o'ylay-o'ylay, axiyri bir qarorga keldi, qanday bo'lmasin bergan va'dasining ustidan chiqishi kerak. Yo'qolgan suyak o'rniga hatto o'zinikini berib bo'lsa ham mijozining ko'nglini

olishi lozim. Ming qilsa ham u birinchi mijozi! To'g'ri, bu ishi bir hisobdan qalloblikka ham o'xshab ketadi, lekin qidiruv mahkamasining obro'sini o'ylab shunday qilishga majbur.

Balki ertagacha hamma narsa yaxshi bo'lib ketar, chiqmagan jondan umid.

Ammo ishlar u o'ylagandek bo'lib chiqmadi: tonggacha bu atrofga hech bir zot yaqin yo'lamadi.

Mahkama boshlig'ining kelajakda ham bu hurmatli mijoziga sidqidildan behad hizmatlar qilishiga astoydil ishonib, ertasi kun saharda Mourek qidiruv mahkamasidan etli tovuq suya-gini olib ketdi.

Tovuq suyagini topish esa Brokka oson kech-magan edi. Garchi, uning bisotida hali yana ancha-muncha so'ngak-po'ngaklar bo'lsa-da, Mourekka boshqacharog'idan emas, aynan uning yo'qotganiga o'xshash tovuq suyagidan topib berishi lozim edi. Mahkama obro'si uchun u har qanday ishni bajarishga tayyor!

Mijoz yo'qolgan narsasining topilganidan o'zini qo'yarga joy topolmay qoldi. Xursandligi shu darajaga yetdiki, hatto yo'qotgan narsasini kim o'g'irlagani haqida surishtirish ham xayoli-dan chiqib ketdi. Hamma gap shundaki, yo'qol-gan narsasi topilgan edi! Hayajondan Brokka tashakkurlar aytib, ko'nglini ko'tarishi lozimligi ham esiga kelmadi. Brok ham ba'zi andishalar-ga borib, indamay qo'ya qoldi – ichiga yutdi. «Indamaganligi»ning ikkita sababl bor edi. Bi-rinchidan, o'zining vijdoni oldida ham tili qisiq edi. Ikkinchisi, ilk mijozi ko'ringanga izquvar Brok allaqanday yulg'ichlardan emasligini aytib

yursa, bunga ne yetsin?! Mourek xayr-ma'zurni nasya qilib g'oyib bo'ldi. Brok yana ishsiz qoldi.

Hovlida turmush odatdagicha kechardi: g'ozlar g'ag'alar, tovuqlar qaqalab shovqin solar edilar. Yon qo'shni – cho'chqaboqarning hovlisidan esa cho'chqa bolasining chapillatib atalla yegani, echkning ma'rashi eshitilardi. Hech kim o'zida yangi paydo bo'lgan iste'dodli izquvarga ehtiyoj sezmas edi.

Ammo bu hol uzoqqa cho'zilmadi. Kunning ikkinchi yarmida kimdir Brokning katagi oldida to'xtadi.

Mourek-ku!

Brokning joni naq hiqildog'iga keldi. Nahotki uning xiylasini mijozi sezib qolgan bo'lsa?! Brok uyalganidan Mourekning yuziga tik qarashga ham botinolmadi. Dunyoda vijdon azobidan yomonroq dard bormikan?

– Nima gap? Tinchlikmi, birodari aziz? – xiyoldan so'ng tilga kirib so'radi Brok.

– Sho'rim qursin, izquvar janobi oliylari, – deya so'z boshladi Mourek ming'irlab. – Yana o'sha ahvol...

– Nimalar deyapsiz? Yana suyagingizni o'g'irlab ketishdimi?

– Bu gal mo'mayrog'ini, ya'ni cho'chqa suyagini o'g'irlashdi, – dedi Mourek titrab-qaqshab.

Brok o'zini chuqur xayolga tolqanday qilib ko'rsatdi. Aslida esa, o'z holiga qo'ymayotgan bu xira qoramoshni ko'chaga itqitib yuborgan bo'lardi-yu, iloji yo'q-da! Axir, qachongacha bir tiyinga ham arzimaydigan molini deb uning boshini qotiradi? Qolaversa, Brokday izquvar

bunday arzimas o'g'rilik bilan ovora bo'lib o'tirishi insofdan emas.

Aksincha, e'tiborda turgan bir kattaroq ish bilan shug'ullansa, shuhrati ham oshardi, mahkamasining obro'si ham ko'tarilib ketardi...

Biroq baland narvonga ham eng quyi pillapoyadan chiqiladi. Bordi-yu, mijozlari ko'pligidan bosh qashishga qo'li tegmay qolganda ham boshqa gap edi, bunaqangi bachkana narsalar bilan boshimni qotirma, deb Mourekning sekin kovushini to'g'rilab qo'yardi-ya! Afsuski, uning qidiruv mahkamasiga kamoli ishonch va e'tiqod bilan qatnab turgan yagona mijoz hozircha mana shu shumshuk qoramosh bo'lib turibdi. Balki qo'ni-qo'shnilari, qani bu ishni Brok qanday uddalarkin, deb pana-panada kuzatib turishgandir?.. Shu bois ham uning Mourekka iltifot ko'rsatishdan boshqa biror-bir chorasi yo'qligi aniq.

– Hm-m, batafsil gapiravering. Men shunday bir xiyla o'ylab ishga kirishayki, natijada jinoyatchi qo'lga tushganini o'ziyam bilmay qolsin.

Mourek chuqur xo'rsinib oldi-da, bo'lgan voqeani hikoya qila ketdi. Bu gal u hech qiynalmay, ravon gapirardi...

Mourek har bir so'zni chertib-chertib, ma'noli qilib so'zlayotganiga qaramay, Brok undan zig'ircha o'ziga naf sezmadi. Chunki qoramosh aytgan gaplarning hammasi oldin aytilgan gaplarning aynan takrori edi, xolos.

Ya'ni Mourek suyakni o'sha – oldingi joyiga ko'mgan, u yerdan esa kimdir o'marib ketgan. Bor-yo'q gap shu!..

– Yana kimdir o‘marib ketibdi, – deya Mourek qissasini tugatdi. – Yordam bera olarmikin-siz-a? Cho‘chqa suyagi edi, shuni nazardan soqit qilmasangiz bo‘ldi, taqsir. – Iltijoli boqib qo‘ydi Mourek, yo‘qotgan bisotining qimmatiga shama qilgan holda.

– Ko‘nglingizni to‘q tuting, birodari aziz, – dedi qat‘iy ohangda Brok, chunki shu tobda shundan boshqa narsa uning miyasiga kelmagan edi. – Ertaga kechqurun xabar oling, yo‘qotgan suyagingizni olib ketasiz.

Izquvar Brokning o‘ziga bo‘lgan qat‘iy ishonchiga darz ketdi, shu sababli u tekshirish uchun berilgan muddatdan yutish maqsadida iloji boricha vaqtni cho‘zishga harakat qilardi.

Mourek xayr-xo‘shni o‘rniga keltirib ta‘zim qilgan ko‘yi bir zumda g‘oyib bo‘ldi. Brok yana ikki o‘t orasida qoldi va biror-bir chora topish maqsadida kitoblarni titkilashga tushib ketdi. U yana bir bor kitoblarning o‘g‘irliklar haqida hikoya qiluvchi qismlarini sinchiklab o‘rganib chiqdi; ammo bundan zig‘ircha ham naf sezmad. Barcha mashhur qidiruv ishlarining xulosalariga ko‘ra, jinoyatchi, albatta, jinoyat qilgan joyiga qaytib kelishi shart edi. Nega endi mazkur jinoyatchi bu temir qoidadan istisno bo‘lishi kerak?! Nega endi bu «xazina» jinoyatchini o‘ziga qayta jalb qilmas ekan? Kecha kelmagan bo‘lsa, balki bugun kelib qolar? Balki kelishkelmaslik haqida bir qarorga kelolmay, ikkilanib turgandir?

Brok og‘ir xo‘rsinib, «Izquvar Foksning so‘nggi muammosi» nomli kitobni qo‘liga oldi. O‘qish-

ga kirishishdan oldin odatdagidek to'siq ortidagi joyini egalladi.

Ammo bugungi o'qigan kitoblaridan hech narsa ololmadi.

U satrlarga ko'zini lo'q qilib tikkanicha uzoq o'y surib qolar, lekin gap nima haqda ketayotganiga aqli yetmasdi. Bordi-yu, jinoyatchini bu gal ham qo'lga ololmasam, cho'chqa suyagini qayerdan topaman, degan tashvishli fikr miyasini kemirardi. Bu ham mayli, Mourek mabodo kim o'g'rilik qilganligi haqida so'rab qolsa-chi? Unga nima deb javob beradi?

Shubhalari to'g'ri bo'lib chiqdi. U chindan ham hech kimni qo'lga tushirolmadi.

Kun bo'yi bu atrofda faqat ikki jonzot paydo bo'ldi, xolos! Bu ham bo'lsa bir just ko'k pashsha edi! Ular chuqurcha atrofidan ketmay, g'ing'illab uchib yurishardi.

Tashvishlanganicha ham bor ekan: ertasi kuni kechqurun qidiruv mahkamasining boshlig'i, ya'ni bosh izquvar Brok o'ziga tegishli bo'lgan mazali cho'chqa suyagidan mahrum bo'ldi.

Mijozi o'zining olihimmat muruvvatpeshasiga yana minnatdorlik bildirishni unutib, tezda uning ko'zidan g'oyib bo'ldi. Brokning omadini qarangki, Mourek go'yo bu gal ham jinoyatchining kimligini surishtirishni unutdi. Mabodo so'rab qolgudek bo'lsa, aytaman deb Brok ham antiqa bir latifabop hikoyani o'ylab qo'ygan edi. Baxtiga Mourek so'ramadi. Brok ham yolg'on so'zlashdan qutuldi. Yana shuni ham aytib o'tish kerakki, mabodo jinoyatchi yashirini olgan bo'lsa, bundan avvalo u o'zini-o'zi ovora

qilayotgan, qolaversa, bu mashhur izquvarning hali kimligini bilmagan, yuksak iste'dodini payqamagan bo'ladi, xolos.

Brokning o'z rizqidan mahrum bo'layotgani esiga tushganda esa: «Hechqisi yo'q, hali Mourek menga mutlaqo ishonish mumkinligi haqida hamma yoqqa ovoza qilib chiqqanidan keyin mijozlarim ko'paygandan-ko'payib, bu ovoragarchiliklarim unutilib ketadi», – deya o'ziga tasalli berardi.

Ertasiga uning mahkamasi oldida yana bir mijoz paydo bo'lib qoldi. Ne ko'z bilan ko'rsinki bu o'sha Mourek edi!

Uning gapiga qaraganda, bu gal kattagina bir qoramol suyagini o'g'ri urib ketibdi. Bu insofi yo'q qanday o'g'ri ekan-a?!

Brokning yuragi orqasiga tortib ketdi. Bordi-yu, ishi yana o'ngidan kelmasa, bunday noyob narsani endi u qayerdan topib beradi?

Mourek bugun o'zini har qachongidan ham sipo va xotirjam tutgan holda g'oyat burro gapirardi. Eng oxirida shunday taklifni o'rtaga tashladi:

– Balki ko'madigan joyimni o'zgartirsam-mikin-a, janobi izquvar?

– Aslo unday qila ko'rmang, ishning pachavasini chiqarishingiz mumkin-a! Hech narsa o'zgartirilmasin!

Agar chuqurcha joyi o'zgartirilgudek bo'lsa, shuncha vaqtdan beri olib borayotgan ishi barbod bo'lishini u Mourekka sabr-toqat bilan tushuntirdi. Jinoyatchi bu joyga o'rganib qolganligini, o'rganib qolgandan keyin esa hush-

yorligi kamayib, beparvo bo'lib qolishini yana erinmay uqtirdi (Brok bu gaplarni aslida izquvarlar haqidagi kitoblardan o'qigandi). Dastlabki qilingan harakatdan ko'ra keyingi harakatlari yordami bilan jinoyatchini osonroq qo'lga tushirish mumkinligini takrorladi.

– Siz uni qo'lga tushirdingizmi? – hayratdan ko'zlarini katta ochib so'radi Mourek.

Brokning nafasi ichiga tushib ketdi. O'z uy-dirmalari to'riga o'zi ilimishiga sal qoldi.

– Albatta yo'q-da, birodari aziz! Ammo men uni tutdim desam ham bo'laveradi. Chunki birinchi gal unga rahmim kelib qo'yib yubordim, u va'da berib, boshqa bunday noma'qulchilik qilmayman, deb so'z berdi. Ikkinchi galgisida juftakni rostlab qolishga ulgurdi. Endi bu uchinchi marotabasida esa u mendan qutulib bo'pti! Men uni bo'ynidan g'ippa bo'g'ib, to'g'ri oldingizga olib boraman. Qo'ni-qo'shnilarni yig'amiz, ular ham oralarida qanday ablah borligini bilib qo'yishsin.

– Demak, siz uni ko'rdingizmi, izquvar janoblari? – qoramosh hech narsani tushunmagan-day Brokka qaradi.

– Ko'rish ham gapmi, mana shu o'z panjalarim bilan tutib oldim uni, birodari aziz.

Brok yolg'on so'zlayotganligini tushunib turar, lekin bundan boshqa iloji yo'qligini ham bilardi.

– Janobi izquvar, o'sha muttaha kim ekanligini bilsam bo'ladimi? – deb qo'rqa-pisa so'radi Mourek.

– Aslo! – uning so'zini shartta bo'ldi Brok. – Ovoza qilib yuborasiz-da, hamma ishning pachavasini chiqarasiz.

Nihoyat u bu shilqim mijozdan qutulish yo'lini topganday bo'ldi.

– Kechirasiz, janobi izquvar. – Aybdorlarcha bosh egdi qoramosh, – bunday nozik ishlarga aqlim yetmasa...

Uyiga qaytayotib, Mourek, yana bir bor ortiga o'girilib qaradi-da, jur'atsizgina so'radi:

– Haligi mazali govmush suyagiga qachon kelsam bo'ladi?..

– Ertaga kechqurun, – deya umidsiz to'ng'irladi Brok va mijoziga orqa o'girib oldi. Shunaqayam xira bo'ladimi mijoz degani, faqat o'zini o'ylaydi. Bu tekshirishlar o'z-o'zidan bo'lmayotgani to'g'risida xayoliga ham keltirmaydi.

O'zi pishirgan oshni o'zi yeyishga majbur bo'lyapti. Boshqa nima ham deyish mumkin? O'zi to'qib chiqargan yolg'on-yashiiqlar domidan qanday qutulib chiqsa ekan? Mana senga maqtanchoqlikning oqibati!

Boshqa iloji ham yo'q edi-da! Axir bu tasqaraning oldida o'zining noqulay ahvolga tushib qolishiga yo'l qo'yib bo'larmidi? Mourekning yuzidagi masxaraomuz ifodani o'zi ham sezdi-ku! Yo'q, unga boshqa hech narsa aytolmasdi, mumkin ham emasdi.

Shunday xayollarga borar ekan, bexos kallasida ajoyib bir fikr yalt etib ketdi, ya'ni o'zi to'qigan uydirmalarni ochiq tan olib qo'ya qolsa qanday bo'larkin? Joni tinchirdi. Yoki aksincha bo'larmikin? Chunki Mourek bir zunda chor atrofga jar solib, unga qarshi hamma-ning nafratini qo'zg'atib qo'yishi ham hech gap emas. Shundan so'ng, albatta, qidiruv mahka-

masi yopilishi o'z-o'zidan ayon. Keyin ko'ringan jonivor Brokning ustidan kulib, jo'n ishni ham eplolmaganini ta'na qilib yuradi.

Bu gaplar aytishga oson xolos, axir u, Brok mana qanchadan buyon bu ishning uddasidan chiqolmayapti.

Iz! Birorta iz qolganidayam mayliydi! Nomi-ga bo'lsa ham qandaydir izcha kerak. Foksga oson, jinoyatchi ko'lmak chetidagi balchiqda o'z panja izlarini qoldirib ketibdi, qolgan ishni u xamirdan qil sug'urgandek bajarishi tayin.

Afsuski, jinoyatchi unga, ya'ni Brokka hech qanday iz qoldirmagan!

Brok yon-verida qalashib yotgan kitobiar-ga razm solib chiqdi. Jinoyatchini jinoyat so-dir qilgan joyida qo'lga olish uchun bu kitob-larning qaysi biridan biror ma'nili maslahat topsa bo'larkin? Jinoyatchi so'nggi daqiqalar-da yashirinishga muvaffaq bo'ldi, deb bahona qilish ham qiyin. Bu gapga endi ovsar Mourek ham ishonmaydi.

Brok og'ir xo'rsindi.

– Hali ertagacha ancha vaqt bor. Jinoyatchi-ni balki bu gal qo'lga tushirarman.

Brok sevimli kitobini olib asta kuzatuv joyi-ga yo'l oldi. Yaxshilab joylashib olgach, qo'li-dagi kitobning belgilab qo'yilgan sahifasini ochdi. Izquvar Foks ko'lmak chetidagi balchiq-da jinoyatchi qoldirgan yakka-yu yagona izni topib, shu paytgacha qo'lga tushirolmayotgan jinoyatchini tutishning antiqa loyihasini ishlab chiqa boshiadi. U bu loyiha ustida shunchalik uzoq o'yladiki, bu orada Brok panjalari orasi-

da ochiq qolgan kitob bilan uxlab qolishga ham ulgurdi.

Brok tush ko'rdi. Tushida u izquvar Foksga aylanib qolganmish. Endi jinoyatchini tutay deganda, yaramas jinoyatchi qo'ygan tuzoqqa ilinib qolibdi.

Izquvar Foks-Brok, jinoyatchini quvib ketayotib, bu tuzoqqa, ya'mi o'pqon ustidan yengilgina yopilgan qamishga bilmay oyog'ini qo'yibdi-yu, sal bo'lmasa tubsiz jarga yiqilayozibdi.

Xayriyatki, jar yoqasida osilib, ildizi bilan o'pqon chekkasiga omonatgina ilinib turgan butadan ushlab qolibdi.

Nojo'ya harakati tufayli bir o'limdan qolib, nochor buta shoxiga ilashib turgan izquvarning vujudi dag'-dag' titrarkan, u cho'chib uyg'onib ketdi.

O'ziga kelib, bu voqealar tushida ro'y berganligini anglab yetguncha ancha vaqt o'tdi. Axiyri yengil tortdi, yoqimli bir his vujudini egalladi.

Kitobga ko'z yugurtirishdan avval, har ehtimolga qarshi to'siq ortiga bir ko'z tashlab qo'ydi.

Qaradi-yu, tosh qotdi: u yerda nimadir g'ivirlar edi! «Ha-ha, u yerda kimdir bor! Jinoyatchidan boshqa kim ham bo'lardi?!»

Shu tobda hammadan shubha qilishiga to'g'ri kelardi.

Jinoyatchi nihoyat jinoyat qilgan yeriga qaytgan edi!

– O'rningdan qimirlama!

Brok ikkinchi marotaba mazkur to'siqdan hujumkor ruhda sakrab o'tdi. Uning oldida hurpayib yerda kulala bo'lib yotib olgan, hali

ona suti og'zidan ketmagan bir mitti mushukcha qo'rqinch aralash miyovlab turar, qaltiraganidan oyoqchalari o'ziga bo'ysunmasdi.

– Isming? – deya Brok yon daftarini ochdi.

– Men bilmayman... – deya javob qaytardi past ovozda miyovlab mushukcha.

– Nega endi bilmas ekansan?! Hammaning ham qandaydir ismi bo'ladi-ku!

– Men-men – mening hali hech qanday ismim yo'q! – ovozini yana ham pastlatib miyovladi mushukcha.

Brok navbatdagi savolini o'ylab ham ulgurmagandiki, miyovlayotgan mushukchanning oldida osmondan tushdimi, yerdan chiqdimi ko'zlari yulduzdek chaqnab, bahaybat ona mushuk paydo bo'ldi va bu holdan dovdirab qolgan tergovchiga tahdid qila ketdi. Tergovchi so'roqni davom ettirishni ham, ettirmaslikni ham bilmay esankirab qoldi.

– Bechora go'dakka do'q qilishni bas qiling, – deb qichqirdi ona mushuk. – Qo'rquvdan o'takasi yorilib ketishi mumkin norasidaning! Nima endi, bolalarimizga ko'chada yurish ham mumkin bo'lmay qolibdi-da?! – so'ng bolasiga yuzlanib, – qani, bu yoqqa kel-chi, oppog'im, toki onang tirik ekan, senga hech kim g'iring deyolmaydi! – dedi.

Nihoyat, Brok hushini yig'ib oldi. Gap bu yoqda ekan-da!

– Bolangiz hech qayoqqa qimirlamaydi! Men so'roq olib borishim kerak.

Bolasini olib ketishga shaylanib turgan ona mushuk ortiga o'girildi:

– Agar so‘roq qilish zarur bo‘lsa, marhamat, boshqalarni so‘roq qiling! Nega endi mening bolamga yopishib qoldingiz?!

Jahli chiqqanidan Brokning ovozi bo‘g‘ildi, xirillab dedi:

– Mendek nufuzli izquvar bilan bunday ohang-da gaplashishni sizga kim qo‘yibdi, kampirsho?!

– Nufuzli deysizmi? Aksincha, g‘irt tentaksiz, janob Brok. Axir, sizning ustingizdan butun qo‘ni-qo‘shnilar kulib yotishibdi-ku!

– Kulishyapti, deysizmi? Nega kulishar ekan?

– Juda hayron qolyapsizmi? – hujumga zo‘r berdi ona mushuk. – Oralaringizda bo‘lib o‘tgan savol-javoblarni tovuq hammaga aytib, sizni masxara qilib yuribdi.

– G‘iybatchi jodugar! – deb so‘kindi Brok boshqa gap topa olmay.

Ona mushuk tasdiq ohangida bosh irg‘adi.

– Ha, hamma tovuqlarga o‘xshab g‘iybatchi-da! Ammo uning gaplarida ham jon borgan o‘xshaydi. Marhamat qilib o‘zingiz ayting-chi, qaysi ahmoq izquvar tovuqlar yer titib chuvalchang yoki qurt-qumursqa izlashini bilmaydi?..

Brok o‘zini tutib turolmadi:

– Menga qarang, kampirsho, avvalo siz kim bilan suhbatlashayotganligingizni tanangizga o‘ylab ko‘ryapsizmi? Men bu yerda jiddiy bir jinoiy ish ustida tekshiruv olib boryapman. Siz esa menga qarab do‘q qilasiz. Janob Mourek bu yerga berkitib qo‘yayotgan suyaklar peshma-pesh yo‘qolyapti, siz umuman tasavvur qilib

ko'ryapsizmi? Janob Mourek ham shu yerda yashaydi... Ehtimol, u sizning qarindoshingiz bo'lib chiqar?

Bu gapdan ona mushuk go'yo chayon chaqqanday sakrab tushdi.

– Shunday desa ham bo'ladi. Yaqin qarindoshimiz u, bir narsa deb bo'lmaydi. Yaxshiligidan doim ishkall chiqarib yuradi. Albatta mayda-chuyda ishkallar xolos, to'g'rimi?.. Topganini bolasiga yedirib-ichirish o'rniga yiqqani-yiqqan. O'zini o'ylaydi.

Vaysab turgan mushuk nogoh jim bo'lib qoldi va qah-qah urib kulib yubordi.

– Mana bu soz bo'пти, yo'q-yo'q, qoyil bo'пти! – u yana qah-qah urib kuldi. Kulgisining zo'ridan dumalab qolay dedi. Nima gapligini tushunmay, avvaliga qo'rqib ketgan mitti mushukcha ham endi jilmaya boshiadi.

– Shunday qilib, yo'qolgan suyakni axtaryapman deng, janob izquvar? – deb masxaraomuz so'radi, kulgisini arang tiyib ona mushuk. – Haligi, anavi Mourek o'g'irlatgan suyaklarni-da! Xa-xa-xa-xa!

– Tentakka o'xshab kulavermasangiz-chi! – jahli chiqib akilladi unga Brok. – Yo'qolgan suyaklar to'g'risida sizga biror narsa ma'lummi, o'zi, a?

Brok qalamining uchini tupugi bilan ho'lladi-da, yon daftarining toza sahifasiga to'g'riladi:

– Men siz bilan hazillashayotganim yo'q, men sizni so'roq qilyapman, so'zlarimga jiddiy javob bering, kampirsho! – dedi.

Ona mushuk jiddiy tortdi-da:

– Yozing! – deya so‘zini ohista davom ettirdi. – Mijozingiz Mourek sizni qanday chuv tushirgani-ni hammaga aytib, maqtanib yuribdi.

– Tushirganini? – Brok hayron bo‘lganday, yon daftariga ko‘z tikdi.

– Ya’ni aldaganini, tushundingizmi?

Brok jim qoldi. Uning vujudiga titroq kirdi, allaqanday noxushlik ro‘y berayotganini ko‘ngli sezib turardi.

– Mourek hech qanaqa suyakni hech qachon, hech qayerga ko‘mmagan, bu uning xiyasi. Birinchisi ham, ikkinchisi ham, uchinchisi ham qip-qizil xiyla!..

– Buni siz aniq bilasizmi?

– Mourekning o‘zidan eshitdim. Aytyapman-ku, u sizni qanday laqillatganini ovoza qilib yuribdi, deb! U o‘ylab topgan chuqurchani ahmoq bo‘lib siz qanday kavlaganingizni ham ko‘ringanning qulog‘iga kula-kula quyib yotibdi.

– Yaramas-ey!

– Ha, nima, men farishta deyapmanmi? Haligi, o‘z hisotingizdan bergan suyaklarni-chi, sizdan sal nariroqda yashaydigan hamkasa-bangiz bor-ku, Baguka, o‘shanga pullayapti, aniqrog‘i, sutga ayirbosh qilyapti. Baguka sutni xush ko‘rmas ekan. Mourek esa sutni jonidan ham yaxshi ko‘radi.

– Men ham sutni juda yaxshi ko‘raman, – deya chiyilladi mitti mushukcha, onasining pinjiga suqulib.

– Sen jim tur! – asabiy baqirib berdi Brok. Uning dag‘dag‘asi ona mushukka yoqmad, u yana hurpayib oldi-da, shang‘illay ketdi:

– Mening bolamga nimaga baqiraverasiz? Qaysi aybi uchun baqirasiz, bu norasidaga? Jahlingiz chiqsa, burningizni tishlang. Hammasiga aybdor o'zingiz-ku! Kun bo'yi mudrab o'tirasiz, o'ylab topgan ahmoqona izquvarlik ishlaringiz bilan ovora bo'lib, atrofda nimalar bo'layotganidan bexabarsiz!

– Nima? Bularni men ko'rmayapmanmi? Kim tekshiryapti bo'lmasa bu yerda sodir bo'layotgan voqealarni? Chigallarni kim yechyapti?

G'azabdan Brokning tanasiga titroq kirdi.

– Juda sinchkov tergovchi ekanligingizni ko'rib turibmiz! – zaharxandalik bilan dedi ona mushuk va yana ko'ppakka qarab hezlandi. – Agar atrofga ko'zingizni kattaroq ochib qaraganingizda edi, mushuk va mushukvachchalarning katta suyaklarni yeya olmasligiga allaqachon aqlingiz yetgan bo'lardi. Bu mazali taomlarga bizning tishimiz o'tmaydi, janobi bosh izquvar. Ehtimol, siz o'zingizga nima yoqsa boshqalar ham shu narsani xush ko'radi, deb o'ylar-siz?..

Ona mushuk dumini mag'rur ko'tarib, g'olibona yurish bilan asta u yerni tark etdi. Mushukcha ham onasining oldiga tushdi-yu, dikkaygan dumchasini onasiga o'xshatmoqchi bo'lib xo'p urindi, lekin buning uddasidan to'la chiqolmadi.

Brok yolg'iz qoldi.

Hal etilmay kelinayotgan, chigal muammo-ning bunday favqulodda yechimi ruhini tushirib yuborgan edi. Ona mushuk uning ustidan oshkora kulib ketgan bo'lsa ham, holdan toygan ko'ppak hatto unga qarshi bir qur vov ham deya olmadi.

Shu kuniyoq kechqurun Brok katagining peshtoqiga yopishtirilgan:

QIDIRUV MAHKAMASI

Hamma narsani qidirib topaman!!!

Tez – arzon – ishonchli

degan lavha g'oyib bo'ldi.

Brok uydirmalar bitilgan bir uyum kitoblari axlatxonaga chiqarib tashladi va shu kecha oyoqlarini bermalol cho'zib, miriqib uxladi. «Izquvar Foksning so'nggi muammosi» nima bilan tugaganini bilmaganiga ham achinmadi, hatto u haqda o'ylamay ham qo'ydi.

Qaytanga ilk bor mushkul muammoni yechishni zimmasiga olgan izquvar Brokning ovozasi tezda chor atrofga tarqab ketdi.

Qo'shnisi Tovuqxon bu voqeani butun ikir-chikirlarigacha qo'shni tovuqlarga yo'yib chiqdi. Bu xabarni eshitganlari esa oqizmay-tomizmay boshqalarga yetkazishdi.

Nima ham derdik, tovuq – tovuq-da, ularning qo'lidan boshqa qanday ish ham kelardi.

Bu voqea katta-kichik shov-shuvlarga sabab bo'ldi. Brok esa ko'p ta'na-malomatlarga qoldi.

Ammo ko'p vaqt o'tmay, bu voqealar unutilib ketdi. Chunki har qanday shov-shuvning ham umri qisqa bo'ladi. Brokning ham qulog'i tinchidi.

Faqat Mourekkina, mabodo yo'lida duch kelib qolgudek bo'lsa, bu hovli qo'riqchisini aylanib o'tishni ma'qul ko'rardi.

Ismoil Mahmud tarjimasi

OLOV GUL

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim o'tgan zamonda bir boy savdogar yashagan ekan. Uning uch qizi bo'lib, hammasi chiroyli, ayniqsa, kenjasi go'zallikda tengi yo'q ekan. Ota o'z qizlarini juda yaxshi ko'rar ekan. Eng kichigini esa kattalaridan ham ko'proq yaxshi ko'rar, qiz ham otasiga nihoyatda mehribon ekan.

Kunlardan bir kuni savdogar uzoq safarga, dengiz ortiga jo'naydigan bo'libdi va qizlarini chaqirib shunday debdi:

– Men savdo ishlari bilan olis-olis o'lkalarga ketaman, qancha vaqtda qaytishimni o'zim ham bilmayman. Agar men yo'q paytda o'zlaringni yaxshi tutsangiz xohlagan narsangizni sovg'a qilib olib kelaman. Sizlarga uch kun muhlat, yaxshilab o'ylab, keyin aytasizlar. Opa-singillar uch kecha-yu uch kunduz o'ylashibdi va, nihoyat, otasining yoniga kelishibdi. To'ng'ich qiz otasiga ta'zim qilib shunday debdi:

– Otajon! Menga kimxob-u parcha kiyimlar ham, dur-u javohirlar ham emas, shunday tillaqosh olib kelingki, undagi qimmatbaho toshlarning yorug'i xuddi oy va quyoshnikiday bo'lsin, qorong'i kechada ham atrofni charog'on qilsin.

Savdogar o'ylanib qolibdi, keyin shunday javob beribdi:

– Mayli qizginam, olib kelaman. Sen aytgan-day tillaqosh dengizning narigi tarafidagi bir malikada bor. U tosh omborda yashirib qo'yilgan. Ombor baland qoya ustida, uchta temir eshigi bor va uchta qulf solingan. Bir tanishini uni olib bera oladi. Qancha qiyin bo'lsayam, sen uchun harakat qilaman.

O'rtancha qiz otasiga ta'zim qilib:

– Otajon! Menga parcha-yu duxoba matorlar, qimmatbaho mo'ynalar, marvarid taqinchoqlar va yaraqlovchi tillaqosh kerak emas. Sharq billuridan yasalgan ko'zgu olib kelingki, unga qarab butun dunyoni tomosha qilish mumkin bo'lsin. Unga qaraganim sari keksaymasdan kun sayin yosharayin va husnim orta borsin.

Savdogar bu so'zlardan keyin anchagina o'ylanib qolibdi. Nihoyat shunday debdi:

– Sen qaysi ko'zguni aytayotganingni tushundim, qizim. Olis o'lkada bir tanishim bor, o'sha topib beradi. Ko'zguni oynayi jahon deyishadi, Eron shohining qiziniki. U baland tog' ustidagi, toshdan yasalgan kulbada yashirigan. Yetti qavat temir eshik, yetti qulf bilan mahkamlab tashlangan.

Navbat kenja qiziga kelibdi. U ham otasiga ta'zim qilarkan, quyidagi so'zlarni aytibdi:

– Menga-chi otajon, chiroyli liboslar-u, taqinchoqlar, tillaqosh-u oynayi jahon ham olib kelmang. Shunday bir olov gul keltiringki, yetti iqlimda undan chiroylisi bo'lmasin.

Ota avvalgidan ham ko'proq o'yg'a tolibdi. Axiri qizini erkalab-erkalab, shunday debdi:

– Ha, sen menga opalaringnikidan ham qiyin-roq vazifa yuklading. Nima izlayotganingni bil-sang-ku, bir amallab qidirib toparsan, ammo bilmagan, eshitmagan narsangni-chi, qayer-dan topasan? Qizil gullar ko'p bo'lsa... Uning dunyodagi hamma gullardan chiroyliroq ekani-ni qanday qilib bilish mumkin. Mayli, qizim, harakat qilaman.

Shunday qilib, ota safarga jo'nabdi. Mollar-ni arzon olib, qimmat sotibdi. Ko'rgan foy-dasiga tilla xarid qilib uni kemaga ortarkan-u uyga jo'natarkan. Yurib-yurib juda ko'p mam-lakatlarni kezib, katta qizi tayinlagan qimmat-baho toshlar bilan bezatilgan, qorong'i tun-ni kunduzdek yoritib yuboradigan tillaqoshni topibdi.

O'rtancha qizi uchun ham butun jahonni namoyish qiluvchi, unga qaraganda qizning go'zalligi yanada ortuvchi ko'zguni topibdi. Faqat kenja qizi aytgan olov gulni hecham topa olmasmish. To'g'ri, shohlar, qirol va sultonlar-ning saroylarida chiroyini so'z bilan tasvirlab bo'lmas ajoyib olov gullarni ko'p ko'ribdi. Lekin hech bir kishi undan ham chiroylisi dunyoda yo'qligiga kafolat bermas ekan.

Savdogar o'z xizmatkorlari bilan birga kar-vonini boshlab, cho'l-u biyobonlar, o'rmonlar osha ketaverishibdi. Ittifoqo uning karvoniga qaroqchilar to'dasi hujum qilibdi. Savdogar to'la mol-mulk ortilgan karvonni ham tashlab, o'rmon ichiga qochibdi. Qalin o'rmon oralab yo'l yuribdi, yo'l yursayam, mo'l yuribdi. Bir vaqt qarasa, daraxtlarning o'zi chetga surilganday

ochiq joy paydo bo'lganmish. O'sha yaylovning o'rtasida kattakon qasr yaltiragan bezaklardan hatto oftob ham uyalar darajada go'zalligidan ko'z qamasharmish. Qasrning hamma derazalari lang ochiq, u yerdan ajib kuy taralarmish.

Savdogar ochiq darvozadan o'tib, qasrning keng hovlisiga kiribdi. Yo'lak oq marmardan ikki chetida katta-kichik favvoralar, qizil gilam to'shalgan zinadan ko'tarilib birinchi xonaga kirsa, hech kim yo'q. Ikkinchi, uchinchi... o'ninchi xonayam bo'm-bo'sh. Lekin ular shunaqa zo'r bezatilganki... Hammasi tilla-yu kumush, billurdan, fil suyagidan.

Savdogarning hayrati borgan sari oshardi. Bunchalik dabdaba, katta boylik, ammo na egasi, na xizmatkorlar bor. Tinmay musiqa yangraydi yana.

«Ha, barchasi yaxshi-yu, faqat yeydigan biron narsa yo'q ekan-da», xayoliga shu fikr keldi deguncha, oldida ochil dasturxon paydo bo'libdi. Undagi lazzatli taomlar, shirinliklar faqat tilla-yu kumush idish-tovoqlarga chiroyli qilib suzib qo'yilgan ekan. O'tirib olib maza qilib qorni-ni to'ydiribdi savdogar. Nihoyat turib, non-tuz uchun rahmat aytay desa, yana hech kim yo'q. Dasturxon esa birdan g'oyib bo'libdi. Bunday mo'jizaga anqayib qolgan savdogar tag'in xonalarni aylana boshiabdi. Charchaganidan uyqu bosibdi. «Qani endi birpas mizg'ib olsang», deya o'ylashga ulgurmay, qarshisida naqshinkor karavotni ko'ribdi. Ko'rpa-to'shaklari oppoq, oqqush pati solingan yostiq bo'lsa yumshoqqina. Karavotga yonboshlagan savdogar ustiga

ko'rpasi tortar ekan, uning hariri shoyi matodan qilinganini his qilirdi. Xona qorong'ila-shib, «Qani endi qizlarimni tushimda ko'rsam edi» deb xayolidan o'tkazirdi-yu, uyquga ketirdi. Uyg'onsa, tong otib, quyosh chiqqan ekan. Tushida qizlarini ko'rganmish. Ikki katta qizi xursand-u, faqat kenjasi xafa emish. Kattalari otaning fotihasini kutmay, badavlat kuyovlarga turmushga chiqishmoqchi, kichigi bo'lsa otasi qaytmagunicha kuyov haqida eshitishni ham istamayotgan emish. Bu tushdan savdogar hayron bo'libdi.

O'rnidan turirdi: yuvinishga suv, kiyinishga ohorli liboslar tayyorlab qo'yilgan. Stol ustida choy, qahva, shakar. Hayrati borgan sari ortib, yana qasrdagi xonalarni tomosha qilishga tutinirdi.

Kechagidan ham go'zal ekan. Hovli va bog'da sayr qilgisi kelirdi. Chiqib aylanib yursa, daraxtlarda sarxil mevalar pishib yetilgan, «Meni uzib ol» degandek imlaydi. Chor-atrofdan anvoyi gullar, xushbo'yligidan bosh aylanadi. Jannati qushlar sayragan... Xullas, savdogarning dimog'i chog'. Birdan yam-yashil tepalik ustida ochilib turgan gulga nigohi tushirdi. Uning go'zalligini ta'riflashga til ojiz emish. Gulga yaqinlashgan savdogar ajablanib, o'ziga o'zi:

– Mana, kenja qizim aytgan gul shu bo'lishi kerak! – debdi.

Hatto oyoq-qo'llari qaltirab ketirdi. Shartta gulni uzib olibdi. Shu zahoti to'satdan chaqmoq chaqib, momaqaldiraq gumburlabdi. Hatto oyog'i ostidagi yer larzaga kelirdi. Hayvon de-

sang, hayvon emas, inson desang inson emas, badbashara va qo'rqinchli bir maxluq yerdan chiqqanday paydo bo'libdi-da, yovvoyi ovoz bilan baqira ketibdi:

– Nima qilib qo'yding? Mening eng yaxshi ko'rgan gulimni uzishga qanday jur'at etding? Uni axir ko'z qorachig'iday saqlar edim, unga qarab yupanardim. Sen meni eng sevimli narsamdan judo qilding. Bu qasrning, bo'g'ning xo'jayini menman. Seni aziz mehmon kabi qabul qildim, to'ydirdim, dam oldirdim. Evaziga qilgan yaxshiliging shumi? Bilib qo'y, bu aybing uchun sen faqat o'limga mahkumsan.

Savdogar maxluqning oyoqlariga yiqilibdi:

– Bir qoshiq qonimdan keching, janobi oliylari! Bilmay qilgan gunohim uchun o'limga buyurmang! Ikki og'iz arzimni eshitsangiz. Mening uch qizim bor. Ularga sovg'a olib borishni va'da berganman! Katta qizimga yaltiroq tillaqosh, o'rtanchasiga oynayi jahon, kichigiga esa dunyodagi eng chiroyli olov gul. Katta qizlarimga ular aytgan sovg'ani topdim-u, eng yaxshi ko'rgan kenja qizimga rosa izlab topolmagan edim. Sizning bog'ingizda ana shu gulni ko'rdim, dunyodagi barcha gullardan eng chiroylisi shu degan fikrga keldim. Keyin yana o'yladimki, sizday badavlat, qudratli xo'jayin uni qizg'onmasangiz kerak. O'rniga nimani to'la desangiz to'layin, faqat meni sevimli qizlarim oldiga qo'yib yuboring, iltimos. Bilmay qilgan gunohim uchun kechiring.

– Menga sening hech narsang kerak emas. Mayli olov gulni sovg'a qilib qo'yib yuboraman.

Faqat bir shartim bor. Uning evaziga qizlarindan birini mening huzurimga yuborishga so'z berasan. Uni sira xafa qilmayman, o'zing ko'rganingdek, bu qasrda xohlaganicha yayrab yashaydi. Yolg'izlikdan zerikdim, menga sherik kerak.

Savdogar bu so'zlarni eshitib, maxluqning oyoqlariga yotib, yalindi-yolvordi. Axir uning shunday xunuk basharasiga go'zal qizlarini qanday ravo ko'rsin? Ko'zlariga yosh to'lib ayanchli ovozda shunday debdi:

– Ey, o'rmonlar, dengizlar shohi! Agar qizlarim o'z xohishi bilan oldingizga kelmasa-chi? Keyin qanday kelishniyam bilmaydi. O'zim ikki yilda yetib kelganman, yo'lni ham yo'qotganman.

Maxluq bo'lsa yana gapiribdi:

– Yo'q, menga asira qiz kerak emas. Agar seni hurmat qilsa, qizing o'z roziligi bilan kelsin. Ular istashmasa, yana o'zing kelasan. O'shanda seni qatl etishga buyuraman. Meni topish esa qiyin emas. Mana bu uzukni ol, uni o'ng qo'lingning jimjilog'iga taqqan kishi ko'z ochib yumguncha istagan joyida paydo bo'ladi. Xullas, senga uch kecha-yu uch kunduz muhlat! Savdogar yig'lab-yig'lab shunday qarorga kelibdi: yaxshisi bir marta qizlarimni ko'ray, ularga oq fotiha beray. Agar meni o'limdan saqlab qolishga rozi bo'lishmasa, nachora o'zim qaytaman. Shunday qilib, maxluq bergan uzukni o'ng jimjilog'iga taqqan ekan, bir zumda o'z uyining hovlisida bo'lib qolibdi. Xuddi shu paytda, tilla-yu sarhil mollar ortilgan karvoni ham yetib kelgan ekan. Xizmatkorlar yuklar-

ni tushirishibdi. Qizlar xursand bo'lib otaga peshvoz chiqibdilar. Qarasalar otalarining kayfiyati yomon. Katta qizlar undan: «Nima bo'ldi, mol-u davlatingizni yo'qotdingizmi?» deb so'rashibdi. Kichik qizi esa: «Meni boylik qiziqtirmaydi, yuragingizdagi dardni ayting, otajon», debdi. Shunda savdogar sevikli qizlariga qarab shunday debdi:

– Yo'q, boylik yo'qotmadim, aksincha 3–4 barobar ko'p foyda ko'rdim. Xafaligimga boshqa sabab bor, uni ertaga aytaman. Kelinglar, bugun xursandchilik qilaylik.

Shunday deb temir sandiqlarni keltirishni buyuribdi. Ota katta qiziga olib kelgan sovg'ani o'tda yonmas, suvda zanglamas tillaqoshni beribdi. O'rtanchasiga ham sharq billuridan yasalgan ko'zgumi sovg'a qilibdi. Kenjasiga o'zi so'raganidek olov gul. Kattalari quvonchdan ko'zlari porlab, sovg'alarni xonalariga olib kirib ketishibdi-da, to'yib-to'yib tomosha qilishibdi. Faqat kichik qiz olov gulni ko'rib yig'lab yuboribdi, go'yo yuragiga bir narsa sanchilgan kabi qaltirab ketibdi. Otasi:

– Ha, qizim? Sovg'am yoqmadimi? O'zing aytganingdek, yetti iqlimda yo'q, eng chiroyli gulku, – degan ekan, qiz gulni olibdi-yu, otasining qo'llarini o'pib, rahmat aytibdi, ammo g'amgin tortib qolibdi.

Shunday qilib oila birinchi kunni katta xursandchilik bilan o'tkazibdi. Ertasiga ertalab savdogar katta qizini yoniga chaqiribdi. Unga bo'lib o'tgan voqealarni bir boshdan so'zlab beribdi-da, qizidan: «Meni o'limdan olib qolish-

ga rozi bo'larmiding?» deb so'rabdi. Katta qiz maxluq oldiga ketishni jiddiy rad qilibdi:

– Qizil gul kim uchun olib kelingan bo'lsa, o'sha qutqarsin, – debdi.

Keyin o'rtancha qiz bilan ham xuddi shunday suhbat bo'lib o'tibdi. U ham opasiday javob beribdi. Nihoyat savdogar kenja qizini chaqiribdi. Unga boshidan o'tgan sarguzashtlarni oqizmay-tomizmay so'zlab beribdi. Hali gapi-ni tugatmay turib, kichik qiz otasining oldiga cho'kkalabdi.

– Menga oq fotiha bering otajon, o'sha maxluqning uyiga borib yashayman. Axir gulni men uchun olib keldingiz, sizni men o'limdan qutqarishim kerak.

Savdogar ko'zlari yoshga to'lgan holda shunday debdi:

– Qizginam, erkatoyim. Meni ajal changalidan olib qolib, o'z xohishing bilan dahshatli maxluq yomiga ketayotganing uchun seni xudoning o'zi yarlaqasin. Uning qasrida bekam-u ko'st yashaysan. Lekin qasr qayerda ekanini hech kim bilmaydi. Unga otliq ham, piyoda ham, uchqur qush ham yeta olmaydi. Endi sen bilan xabarlasha olmasak kerak. Sening go'zal yuzingni ko'rmasdan, mayin ovozingni eshitmasdan, qolgan umrimni qanday o'tkazaman asalim? O'zimni tiriklay yerga ko'ngan kabi umrbod xayrlashaman.

Kenja qiz otasiga qarab:

– Xafa bo'lmang otajon. Maxluqdan qo'rqmayman, unga vijdonan xizmat qilsam, zora qo'yib yuborsa. Balki ko'rishib ham qolarmiz, – debdi.

Ota baribir g'amgin ekan. Opalari ham yig'lab-yig'lab kichik singlisini kuzatishibdi. O'zi esa yig'lamas ekan. Qizil gulni tilla suvi yugirtirilgan chiroyli ko'zaga solibdi-da, o'zi bilan olib ketish niyatida, noma'lum tomonga otlanibdi. Uch kecha-yu uch kunduz ham o'tibdi. Savdogar qizning qo'liga maxluq bergan uzukni taqqan ham ekan-ki, o'sha zahoti u g'oyib bo'libdi. Bir zum o'tmay qiz o'ziga kelib qarasa, bir muhtasham qasrda, naqshinkor karavotda par to'shag-u par yostiqlarda yotgan emish. Go'yo butun umr shu yerda yashagan-u dam olish uchun biroz yonboshlaganday. Qiz o'rnidan turibdi. Yonginasida ko'zadagi olov guli, hamma buyumlari esa chiroyli stollar, tokchalar ustiga tartib bilan taxlab qo'yilgan. U qasrni aylanibdi: har bir xona avvalgisidan ham go'zalroq bezatilgan ekan. Qizil gulni qo'liga olib, bog'ni tomosha qilgani chiqibdi. Jannatmisol bog'da bulbullar sayragan, daraxt-u gullar unga egilib salom berar, favvora-yu buloqlardagi suv yoqimli shildirar ekan. Qiz otasi aytib bergan tepalikni topibdi, gulni xuddi o'sha o'zi o'sgan yerga qayta ekib qo'yimoqchi bo'lgan ekan, hali bu haqda o'ylab ulgurmasdan olov gul qo'lidan chiqib, o'zi uchib borib, uzilgan joy-bandiga qo'nibdi-da, avvalgidan ham chiroyli ochilib, yashnab ketibdi.

Qiz bunday mo'jizadan aqli lol qolibdi. Yana biroz gulga havas bilan tikilib, qasr ichiga kirsas, xonalardan birida dasturxon tuzab qo'yilgan ekan.

«Xo'jayin meni yaxshi qabul qildi, shekilli», deb endi o'ylagan ekan, ro'parasidagi oq marmar devorda shunday yozuv paydo bo'libdi:

Men xo'jayin emas, sening oddiy qulingman. Malikam sen nimani istasang, o'sha zahoti muhayyo qilaman.

Qiz o'qib bo'lishi bilan devordagi alangali so'zlar yo'qolibdi. Endi o'zi otasi, opalariga maktub yo'llagisi kelibdi, o'sha zahoti oldida qog'oz, tilla qalam-u siyohdon paydo bo'libdi, o'tirib quyidagi xatni yozibdi: *«Men haqimda xavotirlanmang. Maxluqning qasrida xuddi malikalarday yashayapman. O'zini ko'rmadim hali, ovozi ham eshitganim yo'q. Faqat oq marmar devorga shunday o'tli satrlarni yozadiki... Ko'nglimga kelgan niyatni darhol sezadi va o'sha zahoti istagimni bajaradi. Men uni hojam deb atamoqchi bo'lsam, xohlamaydi. Aksincha meni o'zining bekasi deb ataydi»*. Xatni endi yozib bo'lgan ekan hamki, u g'oyib bo'libdi. Dasturxon turli shirinliklar bilan bezatilibdi. Idish-tovoqlar ham tilladan ekan. To'ygunicha yeb-ichibdi. Dam olish uchun yon boshlasa, musiqaning ovozi pasayibdi.

Qiz uxlab turib, yana bog'larni sayr qilibdi. Gullar unga ta'zimda, olma-yu shaftolilar o'zi og'ziga tushadi. Kech kirgach o'sha oq marmar devorli xonaga qaytibdi. Devorda shunday yozuv paydo bo'libdi:

Mislsiz bekamning ushbu sharoitlardan, mehmondorchilik va xizmatdan ko'ngillari to'ldimikin?

Savdogarning qizi xursand bo'lib gapiribdi:

– Meni bekam demang. Aksincha menga shirinzabon va g'amxo'r-mehribon hoja bo'ling. Siznikiday go'zal xonalar-u, bog'larni umrimda ko'rmaganman. Qanday qilib ko'nglim to'lmasin axir?

Shu taxlit kunlar o'taveribdi. Sohibjamol qiz qasrda xotirjam yashayveribdi. Yangi-yangi, qimmatbaho liboslar, shohona ziyofatlar. O'rmon ichra sayr qilganida esa daraxtlarning o'zi unga yo'l ochib berar ekan.

Qiz kashtachilik bilan shug'ullana boshlabdi. Tikkan zardo'zlik buyumlaridan jonajon otasiga, opalariga sovg'alar yuboribdi. Eng chiroylisini mehribon hojasiga taqdim etibdi. O'sha devorlari oq marmar bilan bezatilgan xonaga yanada tez-tez borib turadigan bo'libdi. O'zi eng jarangdor so'zlarni tizib, hojasiga gapirar ekan-u, ammo javobini yozuvdan o'qir ekan, xolos. Vaqt o'tgan sayin bunday hayotga ko'nikib ham qolibdi. Qullar uning xizmatiga tayyor, nimani xohlasa birpasda muhayyo qilishadi. Qiz g'oyibdan shu qasr egasini sevib qolganini his etibdi. Ko'ngli sezadiki u ham befarq emas, axir devorga yoziladigan o'tli misralaridan ham anglab olish qiyin emasdi. Endi hojasining ovozi eshitib suhbat qurishni xohlaydi. Xo'jayin esa qizning bu iltimosiga rozi bo'lmaydi, o'zining qo'pol ovozi bilan bekasini cho'chitib yuborishdan qo'rqadi. Qiz juda ko'p yalingach hojasi nihoyat u bilan gaplashishga ko'nibdi va marmar devorga shunday so'zlar yozilibdi:

Bugun kechki payt yashil bog'ga kelib, o'zing yaxshi ko'rgan gullar bilan o'ralgan ayvonchaga o'tirgin va: «Sodiq qulim men bilan suhbatlash» deb aytgin.

Qiz o'sha joyga yugurib boribdi, yuragi go'yo qafasdagi qushcha kabi pitirlar ekan. U so'z boshiabdi:

– Mehribon hojam, meni ovozingiz bilan cho'chitib yuboraman deb o'ylamang. Sizning shunchalik qilgan g'amxo'rliklaringizdan keyin men dahshatli yirtqichning irillashidan ham cho'chimayman.

Shundan keyin ayvoncha orqasidan yovvoyi bo'g'iqlik bir ovoz eshitilibdi, haliyam yarim ovozda, past gapirayotgan ekan. Savdogarning qizi avvaliga titrab ketibdi, lekin o'zini tutib olib, qo'rqqanini bildirmaslikka harakat qilibdi. Maxluqning ovozi dag'al bo'lsa-da, so'zlari naqadar yoqimli. Shundan boshlab qiz har kuni shu yerga keladigan, soatlab hojasining gaplarini tinglaydigan bo'libdi.

– Suyukli, mehribon hojam, shu yerdamisiz? – deb so'rashi bilanoq bir xil javobni eshitarkan:

– Shu yerdaman, go'zallikda bemisl xonim. Sodiq quling, ajralmas do'sting shu yerda.

Qiz maxluqning dahshatli ovozidan qo'rqmaydigan, shirin so'zlarini erinmay tinglaydigan bo'libdi.

Oradan ozmi-ko'pmi vaqt o'tib maxluqning o'zini ko'rishni istab qolibdi. Bu haqda ancha yalinibdi. Maxluq avvaliga sira ko'nmabdi, xunuk basharasi uni qo'rqitib yuborishidan cho'chir ekan:

– O‘zingni ko‘rsatgin deb so‘rama, go‘zal mah-bubam. Ovozimga o‘rganib qolding, do‘stona mu-nosabatlarimiz davom etayapti. Mening senga bo‘lgan otashin muhabbatimni ham tushunding. Agar xunuk va badbashara qiyofamga ko‘zing tushsa, meni yomon ko‘rib qolasan va men baxt-siz bo‘laman. Haydab yuborsang, hijronga chiday olmay o‘lishim aniq, jonim.

Qiz esa bu so‘zlarni eshitishni xohlamay-di, maxluqdan yuzini ko‘rsatishni qayta-qayta so‘raydi. Dunyodagi eng dahshatli narsani ko‘rsa ham cho‘chimasligi va hojasiga bo‘lgan sevgisi-dan voz kechmasligini aytib yalinaveribdi.

– Agar qari bo‘lsangiz menga bobo, o‘rta yashar bo‘lsangiz menga amaki bo‘ling. Yosh bo‘lsangiz sizni tutingan akam deyin, o‘lgunim-cha menga vafoli do‘st bo‘lib qoling.

Anchagacha maxluq bu iltimoslarga quloq solmay yuribdi. Lekin axiyri qizning ko‘z yosh-lariga chiday olmabdi:

– Baribir seni o‘zimdan ko‘ra ko‘proq se-vaman. Bilamanki, meni ko‘rishing bilan mu-habbatimni rad etasan va hajringda ado bo‘la-man. Lekin shunday bo‘lsa-da, sening ilti-mosingni bajaraman. Qosh qorayganda yashil bog‘ga kel. Quyosh o‘rmon ortiga yashiringach: «Sodiq do‘stim, o‘zingni ko‘rsat», – deb aytgin. Meni ko‘rgach bu qasrda yashaging kelmay qolsa-chi? Seni majburlashga haddim sig‘may-di. Asira bo‘lib qiynalishingga chidolmayman. O‘sha o‘z yotog‘ingda, yostig‘ing tagida mening tilla uzugimni topasan. Uni o‘ng qo‘ling jim-jilog‘iga taqsang bo‘ldi, otang yonida bo‘lasan

va men haqimda boshqa hech narsa eshitmay-san.

Qiz qo'rqmabdi. Bir daqiqa ham ikkilanmay yashil bog' sari yo'l olibdi. Qosh qorayib quyosh o'rmon ortiga botgach u:

– Sodiq do'stim, o'zingni ko'rsat! – debdi.

Shu payt uzoqdan bahaybat maxluq ko'rinibdi. Faqat ro'paradagi yo'lakdan o'tibdi-yu, qalin butalar orasida yo'qolibdi. Unga ko'zi tushgan qiz oh urib, baqirib yuboribdi va hushini yo'qotib yiqilib tushibdi. Maxluq judayam xunuk ekan: qo'llari qing'ir-qiyshiq, panjasi yirtqich hayvonniki singari, oyoqlari otnikiday qo'pol, tuya o'rkachi kabi bukrilari ham bor, butun badani jun bilan qoplangan, so'yloq tishlari og'zidan chiqib turar, burni burgutnikiday, ko'zi esa boyo'g'linikiday edi.

Ozmi-ko'pmi vaqt o'tib o'ziga kelibdi. O'zining bergan so'zida turolmay qo'rquvini yenga olmagan uchun uyalibdi. Yana shunday debdi:

– Mehribon hojam, men endi sira qo'rqmayman va sizdan ajralmayman. Yaxshiliklaringizni esdan chiqarib bo'larkanmi? Birinchi martagina sal cho'chidim, xolos.

Maxluq yana ko'rinibdi. Faqat qizga yaqin kelishga jur'at eta olmabdi. Yarim tungacha ular birga suhbat qurishibdi. Keyingi kuni yana va yana... Hamisha birga bo'lib, bo'g'-u o'rmonlarda sayr qilishar ekan, qizg'in suhbatlar bilan vaqtni hushnud o'tkazishar ekan. Kunlardan bir kuni qiz tush ko'rsa, otasi bemor yotganmish. Xafa bo'lib yig'labdi. Maxluq uni shu ahvolda ko'rib, nega xafa ekanini so'rabdi. Qiz

aytib beribdi va undan otasini, opalarini ko'rib kelishga ruxsat so'rabdi.

– Mendan nega ruxsat so'raysan, boraver, ixtiyoring o'zingda, – debdi maxluq. – Axir meming tilla uzugim yostig'ing tagida turibdi-ku. Taqsang otang yonida bo'lasan. Faqat bir narsa esingdan chiqmasin: roppa-rosa uch kecha-yu uch kunduzdan keyin qaytmasang men o'laman. Chunki, seni o'zimdan ham yaxshi ko'raman. Bundan ortiq ayriliqqa chiday olmayman. Sensiz yashay olmay, halok bo'laman.

Qiz unga xuddi o'sha aytgan vaqtida qaytishga va'da beribdi. Uzukni jimjilog'iga taqqan ekan, o'sha zahoti otasining hovlisida bo'lib qolibdi. Opalari uning shohona libosiga havaslari kelibdi. Otasi sevikli kenja qizini eslayverib, chindan ham kasal bo'lib qolgan ekan. Uni ko'rib xursand bo'lib ketibdi. Qiz maxluqning saroyidagi hayotini oqizmay-tomizmay aytib beribdi. Ota bo'lsa, o'sha badbashara maxluqqa u qanday o'rganganiga hayron bo'larmish. Axir o'zi eslasa hali-hali yuragi orqasiga tortib ketadi-yu... Opalari singlisining badavlat turmushi haqida eshitgan sari hasadlari kelarmish.

Birinchi kun bir soatday, ikkinchisi daqiqaday o'tibdi. Uchinchi kuni qizning opalari u yerga qaytib bormaslikka ko'ndirmoqchi bo'lishibdi: «O'lsa o'laversin, nima qilasan?» deyishibdi. Bundan kenja qizning jahli chiqibdi:

– Agar menga ko'rsatgan mehr-muruvvati-ning qadriga yetmasam o'zim ham o'linga loyiqman, – debdi.

Otasiga dono qizining bu so'zlari ma'qul tushibdi. Opalari esa hasad o'tida yonayotgan

ekan. Bir shumlikni o'ylashibdi. Qizning ketar muddatiga oz qolganida ular uydagi barcha soatlarni bir soatga orqaga surib qo'yishibdi. Bu haqida ota ham, xizmatkorlar ham bilmabdi. **Vaqt** yaqinlashgan sayin qizning yuragi sanchaveribdi. Soatga qarayveribdi, qarayveribdi, sira vaqti kelmasmish. Opalari esa hadeb uni gapga tutib, kechiktirarmish. Nihoyat, sabri chidamabdi. Otasi, opalari bilan xayrlashibdi. Aytilgan muddatga bir soat qolganida o'ng jimjilog'iga tilla uzukni taqibdi. Shu zahoti o'zini maxluqning oppoq devorli qasrida ko'ribdi. Ammo har qancha chaqirmasin hojasi yo'q emish. Oxiri baqirib yuboribdi:

– Qayerdasiz, mehribon hojam, sodiq do'stim? Nega meni kutib olmaysiz? Aytilgan vaqtdan bir soat oldin yetib keldim.

Yana jimlik, sukunat. Hatto bog'dagi qushlar ham sayramaydi, favvoralardan suv otilmaydi, musiqa yangramaydi. Qizning qalbi bir noxush voqeani his etib, u barcha xonalar va bog'larni izlab chiqibdi. Axiyri, o'sha olov gul o'sib turadigan joyga boribdi. Tepalikda maxluq gulni changallagancha jonsiz yotardi. Qiz avvaliga uni qattiq uxlab qolgan deb o'ylab, uyg'otmoqchi bo'libdi. Hech uyg'onmasmish. Shunda maxluqning junli qo'lidan ushlab, o'lganini bilibdi... Qizning ko'z oldi qorong'ilashib, oyoqlari chalkashib ketibdi. U tizzasiga cho'kkalab maxluqning badbashara kallasini quchoqlagancha oh tortibdi:

– Uyg'oning asl do'stim. Sizni o'z qallig'imday yaxshi ko'rib, sevaman.

Shu soʻzlarni endigina aytgan ham ekanki, birdaniga momaqaldir oq gumburlabdi. Kuchli chaqmoq chaqib, yer-u koʻk larzaga kelibdi. Qiz hushidan ketibdi. Oʻziga kelib qarasa, qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan ajoyib taxtda oʻtirgan emish. Yonida esa uni toj kiygan, zarbof toʻnli shahzoda, yoshgina bir barno yigit quchib turar, otasi, opalari ham shu yerda, taʼzimda egilib turgan, xizmatkorlarning esa son-sanogʻi yoʻq emish. Chiroyda tengsiz shahzoda unga qarab shunday debdi:

– Meni badbashara maxluq koʻrinishida boʻlsam ham, ochiq koʻnglim uchun sevdning. Endi insoniy qiyofamda ham sev. Mening qalligʻim boʻl, iltimos. Bir paytlar badavlat qirol otamga achchiq qilib, jodugar kampirni ishga solib meni sehrlab tashlagan edi. U meni oʻgʻirlab ketib, badbashara maxluqqa aylantirib qoʻygandi. Toki bir goʻzal qiz meni sevib qolib, oʻsha koʻrinishimda menga erga tegishga rozi boʻlmaguniga qadar, maxluq holidan yurishim kerak edi. Qachonki shunday voqea yuz bersa, men oʻz holimga qaytishim sehr-jodu qilingan edi. Shunday qilib rosa oʻttiz yil yashadim. Mana, sen meni oq koʻnglim uchun, senga boʻlgan cheksiz muhabbatim uchun sevdning. Endi qudratli qirolning rafiqasi, vafoli malikam boʻlasan, jonim.

Savdogar kenja qizi va shahzodaga oq fotiha beribdi. Hamma kelin-kuyovni qutlabdi. Uch kecha-yu uch kunduz dabdabali toʻy boʻlibdi. Oʻsha toʻyda men ham bor edim.

M. Zohidova tarjimai

TEDDI

Hikoya

I

 ahaybat, qo'ng'ir ayiqni Teddi deb atashardi. Boshqa hayvonlarning ham nomi bor edi-yu, lekin Teddi ularni sirayam eslayolmas, doim adashtirib yurardi. Faqat o'z laqabini yaxshi bilar, qachon chaqirsalar quloq solar va aytganlarini bajarardi.

Uning hayoti juda zerikarli edi. U allazamonlardan beri sirkda ishlardi. U itoatgo'y, yuvosh bo'lib qolgan va endi unga qafasning hojati yo'q edi, ammo shunga qaramay odatlari bo'yicha qafasda saqlashardi. Teddiga hech narsaning qizig'i qolmagan, hammasi joniga teggan, faqat tinch qo'yishlarini istardi. Biroq u kekxa tajribali artist bo'lganidan sira hol-joniga qo'yishmas edi.

Kechqurun uni o'rtasida yuz-ko'ziga upalik surtilgan novcha odam u yoqdan bu yoqqa yurgan charog'on sahnaga olib chiqishar edi. Bu odam oppoq ko'ylak-ishton, charm qora etik va oldiga zar uqa tutilgan lolarang kamzul kiyib olardi. Uning ko'ylak-ishtoni ham, kamzuli ham, rangpar, hissiz yuzi ham Teddiga yomon ta'sir qilardi. Lekin ayiq, ayniqsa, uning ko'zlaridan qo'rqardi.

Bir zamonlar Teddi bir necha bor yirtqichligiga borib isyon ko'targandi. U alamidan bo'kirar, qafas simlarini sug'urib tashlardi, o'shanda uni tinchitishning sira ilojini qilisholmagan edi. Ammo qafas yoniga rangpar odam kelib Teddiga tikilganida, ayiqning uni o'chib, oradan bir soat o'tar-o'tmas repetitsiyaga chiqqan edi.

Endi Teddi xarxasha qilmas va turli-tuman qo'pol va bekorchi, hatto ko'pincha bema'ni narsalarni ham jimgina bajaraverar edi. Oq ko'ylak-ishtonli odam ham endi unga o'qrayib qaramasdi, ayiq haqida gap ketsa uni erkalab «Yuvvoshgina qariya» deb atardi.

Teddi sahnaga charm burundiqda chiqar va o'zini olqishlab kutib olgan tomoshabinlarga ta'zim qilardi. Unga velosiped keltirib berishar, u egar osha oyoqlarini o'tkazib rulni mahkam tutgancha pedalni bor kuchi bilan bosardi-da, musiqa sadolari ostida sahna bo'ylab aylanardi. Tomoshabinlar esa tinmay qiyqirar va qar-sak chalardilar.

Teddi yana bir necha antiqa narsalarni bajara olardi: Panjalari bilan tez-tez aylantirib g'o'lalarda uchar, uzun, ingichka temir tayoq tepasiga chiqib muvozanat saqlab turar, qo'llariga qo'lqop kiyib boshqa bir ayiq bilan boks tushardi. Teddi hazilni tushunmasdi, to'g'rirog'i hayvonlarga xos hazilnigina tushuna olishi mumkin edi, shuning uchun bunday qo'pol va bema'ni harakatlarni bajarayotganda odamlar nima sababdan shodlanardi, sira tushunolmasdi.

Kechalari ayiq ko'pincha uxlamas, yo'lakda mittigina chloq xira nur sochar, kiyimidan

doim yoqimli hid **anqib** turadigan qorovul chol rosa xurрак otardi. Hayvonlar uyqusida irillar va g'ingshir edi, qafaslardan qo'lansa hid anqirdi. Yo'lakning qop-qorong'i burchaklarida yirik-yirik suqatoy kalamushlar yugurib yurar, orqa oyoqlarida tik turib birdan qotib qolar, shunday paytda ularning soyalari uzun bo'lib polga tushardi.

Birmuncha vaqt g'ingshib yotgach, Teddi o'zini yalab-yulqashga tushardi. U jiqqa ho'l bo'lib ketguncha erinmay panjalari bilan qorni-ni yalar, so'ngra biqini bilan orqasiga o'tardi. Biroq orqasini yalash juda noqulay edi, natijada u tez charchar, keyin noxush xayollarga berilardi.

U bolaligini va onasini – panjalari yumshoq, uzun tili haroratli, kelishgan ayiqni eslashga urinardi. Biroq bolaligini deyarli eslolmasdi. Faqatgina anhor, sarg'ish qum to'shalgan sohil yodiga tushardi xolos; qum mayin va qaynoq bo'lardi. U yana chumolilarning o'tkir hidini es-lardi, afsuski o'shandan buyon bunday hidga ro'paru kelmadi.

U yana o'ziga sirkda bir paytlar berishgan totli yemishlar haqida ham o'ylardi. Yana juda ko'p narsalar uning esiga tushardi: qandaydir shakl-shamoyillar ko'z oldiga kelar, yuragini g'azab va hasrat to'ldirar, uning o'kirgisi, al-laqayoqlarga bosh olib ketgisi, o'ziga munosib yirtqichona ishiarmi bajargisi kelar va kechasi bilan o'kirib chiqar, ertasiga esa o'zini behad lanj va tund sezar, repetitsiyaga ham istar-istamas chiqardi.

II

Kunlardan bir kun sirk safarga otlandi. Teddini ham ola ketishdi. Shu choqqacha u juda ko'p safarga chiqqan, shu bois uni hech narsa hayratga sololmasdi; u avtomashinalardan anqib turuvchi benzin hidini yomon ko'rardi, xolos.

Hammasi odatdagidek yuz berdi: stansiyada hayvonlar solingan qafaslarni vagonga joyladilar, allanimalar deb qichqirdilar, so'kindilar, bir nimalarni mixladilar, oxiri eshiklar gum-burlab yopildi-da, yo'lga tushishdi. Ko'p o'tmay hamma narsa bir maromda chayqala boshladi. Teddining nihoyatda uyquasi keldi. Shu alpozda ikki kecha-yu ikki kunduz yurishdi, keyin poyezd to'xtadi. Eshiklarni ochib vagonlardagi qafaslarni yuk mashinalariga orta boshlaganlarida Teddi notanish yerga kelib qolganlarini va allaqanday begona hidlar kelayotganini payqadi, lekin bunga ajablanmadi.

Yana yo'lga tushishdan avval hayvonlarni ovqatlantirishga qaror qilishdi. Xizmatchi kelib qafaslarni tozalab, yemish keltirdi. Teddining qafasiga suvda qaynatilgan kartoshka, non hamda bir tog'ora suli quyib, xizmatchi bir nimaga chalg'idimi, eshigini yopmay chiqib ketdi.

Ayiq eshikning ochiq qolganiga parvo qilmadi, rosa ochiqqan edi shekilli, kartoshka bilan sulini pok-pokiza tushirdi. Keyin odati bo'yicha tovoqni eshik yoniga surib qo'ydi, xuddi shunda qafasning ochiq qolganini sezdi. Teddi juda hayron bo'ldi, boshini chiqarib u yoq bu yoqqa alangladi, esnadi, ichkariga qaytib kirdi-da,

ko'zlarini yumib yotdi. Ammo oradan bir daqiqa o'tar-o'tmas o'rnidan turib yana boshini chiqarib qaradi. Havoni iskadi, atrofni ko'zdan kechirdi, xuddi bir nima esiga tushgandek taraddudlandi, so'ng qafasdan chiqib mashinadan yerga sakradi.

Shu choq haydovchi ko'rindi. U kepkasini qo'ltig'iga qistirib olgancha kavshanib mashinaga yaqinlashardi. Shamol haydovchi tarafdand esardi. Teddi kolbasa hidini tuyib unga peshvoz yurdi. Ayiqqa ko'zi tushgan haydovchi kavshashdan to'xtab taxtadek qotib qoldi. Teddi orqa oyoqlarida g'oz turib erkalangancha g'ingshidi. Haydovchining qo'ltig'idan kepkasi tushib ketdi, o'zi esa orqa-o'ngiga qaramay eshigi tepasiga allaqanday shior osilgan pastakkina uy tomonga qochdi.

– Yordam beringlar, – deb qichqirdi u o'takasi yorilib.

Teddi oldingi oyoqlarini yerga qo'ydi va har ehtimolga qarshi nari ketdi. U hatto avvaliga qafasga qaytib kirmoqchi bo'lib ortiga o'girildi, biroq xuddi shu payt ayyuhannos solib yudan odamlar yugurib chiqdi. Teddi odamlarning orasidan tanish qiyofani izlab qo'rqa-pisa o'girildi, lekin tanishiarini topolmadi. Uning yuragini birdan vahm bosdi va urra qochdi. U tushovlab qo'yilgan otlar yonidan o'tdi: uni ko'rib otlar o'zlarini orqaga tashlab kishnadilar. Bunga javoban Teddi ham o'kirib, yugurishda davom etdi.

U pushtalarda qoqilib-suqulib polizdan yugurdi, chetandan oshib o'tdi-da, dala bilan

o'rmon tomonga yo'l soldi. U pishqirib, quloqlarini chimirib yelib borar ekan, vujudida no-ma'lum halovat tuyardi, lekin butazorga yetib borib to'xtadi va xavotirlanib ortiga o'girildi: na stansiya, na odamlar, na mashinalar ko'zga chalinar, faqat jimjit dala va yiroqlarda qorayib turgan uylardan boshqasi ko'rinmasdi.

Ayiq o'kindi, daf'atan uning sirkka qaytib borgisi va yana g'ira-shira yo'lakda yotgisi keldi, yoqimli hidlar anquvchi qorovulning xurraklarini sog'indi. Ortiga qaytishdan u qo'rqdi va orqa oyoqlarida g'oz turib chayqalgan ko'yi g'amgin g'ingshib qo'ydi. So'ngra o'rmon tomonga qaradi, tumshug'ini tozalash uchun bir necha bor pishqirib havoni iskadi. Mum bilan qo'ziqorin va yana allaqanday xushbo'y hidlar anqirdi. Teddi o'rmonga qarab yurdi. U butalar oralab ohista borar va har safar yalanglikka chiqqach, biror xizmatchi yoki oq ko'ylak-ishtonli kishini ko'rib qolamanmi, degan umidda ortiga o'girilib qarardi. U hozir o'zini erkalab «Teddi!» deb chaqirishlarini istardi. Lekin hech kim ko'rinmadi, uni chaqirish tugul tiq etgan tovush eshitilmas, o'rmondan esa tobora qudratli bir da'vat baralla eshitilayotgandek bo'lardi. Teddi hadiksirab o'rmon ichiga kirdi.

III

Teddining omadi yurishmadi. U o'rmonning odamlar istiqomat qilayotgan qismiga kelib qolgan edi. Bu yerda o'rmon sanoati xo'jaligi joylashgan bo'lib, katta maydondagi daraxtlar

kesilgan, har yerda o'rmonga aloqasiz buyumlar: tor izli temir yo'l, uzuq-yuluq po'lat simlar, yog' lattalar, payhon qilingan so'qmoqlar, xoda yotqizib ochilgan yo'llar ko'zga tashlanardi. Bu yerda qushlar bilan hayvonlardan asar ham yo'q edi, kechalari esa temir-tersaklarning sadosi, motor shovqini, parovozlarning chinqirig'i tinmasdi.

Teddiga o'rmon g'ayritabiiy va ko'ngilsiz bir joy bo'lib ko'rindi. Shuning uchun dastlab qanday bo'lmasin odamlarni uchratish haqida o'yladi. Ammo ayni chog'da allanima uning mashinalar tarafga yurishiga monelik qilardi. Hamma narsa uning g'ashlga tegardi; u ochiqqan, uyqusi kelar va darmonsiz edi. U biron-tasi chiqib, yegulik biron narsa berar degan umidda o'rganib qolgan fokuslarini bajarishga chog'landi. Oldingi oyoqlarida turib, orqa oyoqlarini xuddi koptokni otib o'ynayotgandek o'ynatdi, shu alpozda yalanglikni aylanib chiqdi, keyin umbaloq oshdi, raqsga tushdi, xuddi sirkdagidek o'zini o'lganga solib yotdi, keyin o'zidan mamnun bir qiyofada o'rnidan turib yon-veriga alangladi. Agar sirkda shunday qilsa unga biron nima bergan bo'lishardi. Ammo bu yerda uni hech kim olqishlamadi, suli yor-masi ham osmondan tushmadi. Shunda ayiqning mitti ko'zlarida g'amgin hayrat alomati aks etdi.

Ayiqning umidi puchga chiqdi, u odamlar yoniga qaytib ketgan bo'lardi-yu, ammo sodir bo'lgan bir voqea odamdan qanchalar qo'rqish kerakligi haqidagi tasavvurini tasdiqladi. Kun-

lardan bir kun ertalab Teddi jarlikda allaqanday giyohlarni yeb yurardi. Boshini ko'targanda, birdan yuqorida turgan odamga ko'zi tushdi. Teddi hayron bo'ldi va orqa panjalarida g'oz turib, hatto quvonganidan xo'rillab qo'ydi. Biroq odam unga o'xshab quvonib ketmadi, ayiq kutganidek «Teddi» deb erkalab chaqirmadi – u rangi oqarib, miltig'ini ola ayiqqa to'g'riladi, o'q ovozi yangradi, nimadir Teddining qulog'ini kuydirib o'tdi. U o'kirib yubordi-da, chalqancha yiqildi: Teddi og'riqdan emas, alam va talvasaga tushganidan bo'kirardi. Odam esa orqa-oldiga qaramay qochdi.

Oradan bir daqiqa o'tgach, Teddi quturib odamning ortidan quvib ketdi. Biroq odam qochishga ulgurdimi, biron yerga yashirindimi Teddi uni topolmadi. Shu paytdan boshlab odamlardan qo'rqadigan bo'ldi va iloji boricha kimsasiz, ovloq yerlarni izlashga tushdi.

Ammo haqiqiy o'rmon, ovloq yerlarga ketish uchun daryodan suzib o'tish lozim edi, Teddi esa suzishni bilmas, shuning uchun ahvoli og'irlashardi. Bir necha bor daryo bo'yiga kelib suvda oqib ketayotgan xodalarga qarab turdi, o'kindi va yana o'rmon ichiga kirib ketdi.

IV

Oradan ikki kecha-yu ikki kunduz o'tdi. Uchinchi kuni kechasi Teddi daryo bo'yiga bordi-yu, hayratdan qotib qoldi: sohilga tutash yerda o'rtasiga kulbacha qurilgan hayhotdek sol turardi. To'lin oy nur sochar, sohilda de-

razalari qop-qora oqish uylar saf tortgan, tevarak-atrofda bironta tirik jon ko'rinmas, tiq etgan tovush yo'q, faqatgina sol xodalari orasida suv sokin chayqalardi. Teddi orqa oyoqlarida turib havoni iskadi. Soldagi uyachadan chidab bo'lmaydigan darajada javdar undan qilingan non bilan kartoshka hidi kelardi. Teddi lablarini yaladi va turgan yerida chayqaldi. Chayqala turib u nima qilish kerakligi haqida o'ylardi.

Hid kelayotgan yoqqa borishga qo'rqdi, chunki u yerda odamlar borligini bilardi, biroq ko'ngli shunchalar sust ketgan ediki, ayiq sohil bo'ylab u yoqdan bu yoqqa yura boshladi, ikki-uch bor suvga panjasini solib ko'rdi va oxiri kulbaning ro'parasida to'xtadi. Voy-bo', shunday ham ajoyib hld bo'ladimi?!

Sol qirg'oqdan xiyol narida turardi, bir yeridan ko'prik o'rnida qirg'oqqa taxta tashlab qo'yilgan edi. Ammo shoshib qolgan Teddi buni payqamadi, suvga tushib bir zumda solga chiqib oldi. Xodalardan sekin-asta odimlagancha kulbaga yaqin bordi-da, atrofini aylanib chiqdi. Ichkaridan xurrak ovozi eshitildi. Teddi sirk qorovulini eslab dadillandi. U derazadan ichkariga qaradi-yu, hech nimani ko'rmadi. Shundan so'ng eshikni ochib uyga kirdi. Kirgan zahoti og'zidan so'lagi oqdi – uyda paytava, non va kartoshka hidi gurkirardi. Non bilan kartoshka stolda edi. Teddi stol yoniga kelib, avval dekcha yopilgan iliqqina laganni tushirib yubordi, keyin qozonni ag'darib o'kirdi-da, apil-tapil yeya boshladi.

– Hoy, kim bor? – dedi daf'atan xurrak otayotgan odam. – Fedya! Senmisan?

Ayiq qo'rqib ketganidan o'tirib qoldi, so'ngra g'azabdan o'kirib, panjasi bilan stolga urdi. Dekcha bilan lagan polga tushdi. O'sha zahoti bir nima naridan sakrab tushdi, zipillagancha eshikka oshiqdi va sol bo'ylab sohilga yugurdi. Teddi ahvol chatoq ekanligini tushundi, lekin shunda ham shosha-pisha yutoqqancha chapil-latib, ovqatni tushiraverdi. U odamga qarshi ish qilayotganini bilardi.

Oradan bir daqiqa o'tar-o'tmas sohilda shovqin ko'tarildi. Qochish kerak, ammo hali ayiq to'ymagan edi, Teddi polda yotgan kartoshkalardan bir nechasini changallab eshikka yugurdi. Ammo eshikning qayerdaligini birdaniga topolmadi. Uychadan chiqqanida esa tumonat odam yig'ilganimi ko'rди. Ayiqni ko'rgan odamlar baravariga, xuddi stansiyadagiga o'xshab qiyqirib yuborishdi. Teddi nima qilarini bilmay to'xtadi. Sohilga olib boruvchi yo'l berk edi.

U solning narigi tarafiga o'tib qochmoqchi bo'lgan edi, to'satdan ro'parasida bir yolqin chaqnab, o'q ovozi yangradi. Ayiqning o'takasi yorilib ortiga qaytdi-da, o'girilib kulbaning orqasiga qarab qochdi. Odamlar yoy shaklida solning burchagiga siqib kela boshladilar. Orqa tarafidan yana o'q ovozi yangradi, o'q uchirib yuborgan po'stloq ayiqning qorniga tegdi. U bo'kirgancha oldinga sakradi va suvga o'zini tashiadi. Oy nurida kumush tomchilar sachradi. Teddi umrida suzib ko'rmagan edi, shuning uchun suv ostidan qalqib chiqqanda dastlab nima qilishini bilmadi. Lekin qo'l-oyoqlari beixtiyor harakatga keldi va u tumshug'ini ko'tar-

gancha jon-jahdi bilan shaloplatib suzib ketdi. Suv uni sekin-asta quyiga oqizib keta boshladi, solda qolgan odamlarning qichqirig'i anchagacha eshilib turdi, ayiq esa tobora panjalari-ni kuch bilan silkitib, aksirib-pishqirib tumshug'ini ko'tarib suzib borardi. Yarim soatcha suvda oqib borgach, qorayib turgan o'rmonga ko'zi tushdi. Bu yaqinginada ayiq chiqqan boyagi o'rmon emas, boshqasi edi. Bu yerda daraxtlar kesilmagan, so'qmoqlar bilan odamlarning boshpanalari ko'zga chalinmasdi.

Teddi oyoqlari yerga tegganida eran-qaran yurib sohilga chiqdi. Uning po'stinidan tinmay suv oqardi. Ortiga o'girilib yiroqlarda, chiroqlarning zaifgina nuri qo'ynida elas-elas jimirlab ko'rinayotgan allanimalarni payqadi-da, odamlar bilan baraklar va boyagi sol ham o'sha yoqda qolib ketganini angladi, shovqin bilan xatar arigani, bu yer endi sokin, yoqimli ekanini his qildi. U kulbada qolgan kartoshkalarni eslab, norozi ohangda g'ingshidi, keyin bir necha bor silkindi-da, tikka jarlikdan ko'tarilib, ulkan qarag'aylar va archalar sari ko'tarila boshiadi.

V

Bu daryoning u boshidan bu boshiga qadar cho'zilib ketgan haybatli o'rmon edi. Bundan tashqari o'rmon Ural tog' tizmalari va o'shanaqasi shimolga – tundragacha qo'shilib ketardi.

Bu yerda bo'rilar-u tulkilar, olmaxonlar-u quyonlar bisyor edi. Bug'ular bilan chag'ir ko'zli qoplonlar ham uchrardi. Odam oyog'i yetma-

gan bu yerlarda bir zamonlar qulagan daraxtlar tufayli o'tib bo'lmas changalzorga aylangan xilvat go'shalar ham uchrardi.

Bu o'rmonda ba'zan besababdan-besabab yong'in chiqardi. O't ketgan paytlarda poyonsiz kengliklardagi daraxtlar bilan o't-o'lanlar yonib kulga aylanar, son-sanoqsiz hayvonlar nobud bo'lardi. Yo'lida uchragan narsani kulga aylantirgan olov qanday boshlangan bo'lsa shunday, to'satdan, o'z-o'zidan o'chib qolar, undan esdalik sifatida kultepalar va yonib bitgan daraxtlarning yakkam-dukkam tanalari qolardi. Ko'p o'tmay mana shu o't ketgan o'rmon qoldiqlarini dag'al qizg'ish o't-o'lanlar qoplardi, so'ngra o'nqir-cho'nqir yerlarda qorag'at, qayin bilan qarag'ay novdalari quloq chlqarardi; o'rmonning betkay yerlarida na'matak bilan xo'jag'at butalari ko'zga chalinib qolar va sekin-asta bu o'rmon hayvonlar uchun mash'um biyobon emas, rizq-ro'z sochilib yotgan oshlyonga – hurpaygan qarqurlar, serhadik bulduriqlar, o'rmon qarchig'aylari va quyonlar tanda qo'ygan rizq-ro'z makoniga aylanardi. Bug'ular ham shu yerga kelib, oqish kulrang yo'sinda chuqur izlar qoldirib yurishardi.

Odam oyog'i yetmagan o'rmonda hayot qaynardi. To'g'ri, bu yerda ham doimiy kurash to'xtamasdi, bu yerda ham zo'rlik bilan vahshiylik qonunlari hukm surardi. Eh-he, mana shu maftunkor makonda har kum qanchadan-qancha patlar va suyaklar chirib ketmadi, deysiz! Biroq bu yerda xatarli kurashlar odamzod bilan to'qnashuvchalik omonsiz bo'lmasdi.

Mana shu o'rmonlarda kamdan-kam o'q ovozi yangrardi, basharti shunday bo'lib qolsa, tepaliklar, jimjit qarag'ayzorlar ustidan keskin va shiddatli o'q tovushi momaqaldiraqdek gumburlab o'tar va daryoning narigi sohili-da aks-sado berardi. Shunda olmaxonlar hovuchlaridagi bujurlarini tashlab, qiziqib qarash uchun daraxtning qir uchiga chiqib olishardi; o'takasi yorilgan quyonlar sakrab o'rnidan turishardi; bu qudratli tovushni bir daqiqa tinglagan bug'ular ham boshqa yerga ko'chilshardi: changalzor qo'ynida mudrayotgan qoplonlar bir lahzagina uyqu bosgan sariq ko'zlarini ochib, quloqlarini asabiy ravishda chimirib qo'yishardi: faqat odamzodni yaqindan bilgan bo'rilargina hamma narsani tashlab, tepalikka qochib chiqishar va anchagacha la'nati odamning isini olish uchun jon holatda havoni iskashardi.

Bu yerda yana mayingina shaldirayotgan chashmalar ham ko'p edi: jazirama issiq paytlarda ham bu chashmalarning tegrasi salqin bo'lardi. U yer bu yerda uchrab qoladigan jarliklar, bir-biriga ilang-bilang ulanib, daryo tomonga cho'zilib ketardi. Mana shu jarliklarda bo'rsiqlar bilan tulkilar uya qurishni yaxshi ko'radi, shu yerda - daryo yaqinida bo'rilar yashardi.

VI

Teddi qirg'oq yoqalab kun bo'yi shimolga qarab yurdi. O'rmon ichiga kirishga botinolmay, bir necha marta hayotini saqlab qolgan daryoni kimsasiz va noma'lum o'rmondan afzal bilar-

di u. Har tarafdian turli tovushlar bilan hidlar uni ta'qib qilardi. Teddi esa bularni ajratolmay qiynalardi. Ayrim hidlar unga yaxshi tanish edi. Yo'lda ikki marotaba qoplonning izlariga duch keldi-yu, o'sha zahoti sirkdagi qoplon esiga tushdi. To'g'ri, sirkdagi qoplonning hidi yomon edi: tutqunlikdagi hayvonlar qo'lansa-roq bo'ladi. So'ngra Teddi bahaybat archaning ostki shoxida o'tirgan bulduriqlarni hurkitib yubordi-da, dastlab o'zi ham cho'chib tushdi. Bularning shunchaki oddiy parrandalar ekanini bilgach, yengil tortdi. Tulkinning izlarini ham darhol ajratib oldi. Biroq ha desa bezovta qilayotgan bir-biridan yangi, notanish taassurotlar oxiri uni shunchalik holdan toydirdiki, Teddi noiloj bahaybat archaning tagidagi qulayroq joyga yotdi-da, dong qotib uxlab qoldi.

Har qancha g'alati tuyulmasin, bu bahaybat yirtqich o'rmonda butunlay ojiz va nochor edi. Uzoq yillar davomida u o'rmondan, bir zamonlar ko'rishga ulgurgan narsalardan be-had uzoqlashib ketgan, deyarli unutib yuborgan edi. Tabiat unga ato etgan barcha sezgilari o'tmaslashib qolgan, shu bois arzimagan narsalar oldida o'zini yo'qotib qo'yardi. Uning dam-badam qorni ochardi, ilgari to'yib ovqatlanishga o'rgangamidan hozir ochlikdan qiynalmoqda edi. Sirkda uning holidan har kuni xabar olib turuvchi xodim bu yerda yo'q edi, u o'z g'amini o'zi yeb, ovqat izlashga majbur bo'lardi. U ovqat izlab topish u yoqda tursin, nima yeyishni ham bilmasdi. Ehtimol, hech kim ona nima ekanini yovvoyi yirtqichchalik his qilmasa ke-

rak. Ona o'z bolasiga yashirinishni, urishishni, qochishni o'rgatadi, kim do'st-u, kim dushman ekanini tushuntiradi. U chumolining uyasi qayerda bo'lishini, qorag'at, qulupnay, xushxo'r ildizlar, baliqlar bilan baqalar borligini biladi; u qayerda zilol suvlar, tinch, osoyishta joylar, oftobro'ya maysazorlar borligini yaxshi biladi; unga hidlar siri va yashash joyini o'zgartirish sabablari juda yaxshi ayon. U yana o'rmonda bironta yirtqich uzoq yashamasligi, albatta, biror kulfatga giriftor bo'lib nobud bo'lishini, bundan saqlanib uzoqroq yashash va nasl qoldirish uchun epchil, dovyurak hamda doim hushyor yurish lozimligini ham biladi.

Mabodo Teddi dastlab hayvonot bog'ida, so'ng sirkda ulg'aymay, ona ayiq bag'rida hayot kechirganda, hozir qudratli yirtqich bo'lib nima qilish lozimligini bilolmay qiynalmasdi. Afsuski, Teddi oq ko'ylak, ishton kiygan odam qo'lidagi hayot saboqlarini oldi va uning o'jar ruhi bolaligidayoq ezilgan edi. U o'rmonda yashovchi ayiqlar uchun misli ko'rilmagan dahshatli narsalarni bilishga ulgurgan edi. Shaharda u shak-shubhasiz boshqa ayiqlardan ko'ra behad tajribaliroq, aqlli roq bo'lishi mumkin edi, ammo uning bilgan-ko'rganlari o'rmonda nimga ham yarardi! O'rmonda u bir dumalab go'yo qaytadan zaif va nochor ayiq bolaga aylanib qolgan edi.

Bor-yo'q farqi shunda ediki, u endi jajji ayiqcha emas, balki qafasga ishqalanaverib junlari to'kilib ketgan bahaybat ulkan ayiq edi, buning ustiga tadbirkor onasi ham yonida yo'q edi.

VII

Teddi qushlar ovozidan uygʻonib ketdi. Bu qushchalar shudringdan nam tortgan novdalarda sakrab-sakrab chirqillashardi. Tepalik ortidan quyosh koʻtarildi. Qaragʻayzorni harir tuman qoplagan, shudring jilva qilar, havo begʻubor edi. Teddi **tungi** oshiyonidan chiqib shimolga qarab yoʻlga tushdi. Oʻrmonda sandiroqlab yurishga odatlanmaganidan ikki kundir-ki, uning panjalari ogʻrib-ogʻrib qoʻyardi, shunga qaramay u qaysarlik bilan yoʻlda davom etardi. U shimol sari ketib borarkan, uchib ketishga chogʻlangan qushlardek hech narsa haqida qaygʻurmasdi. U ichki bir tuygʻuga qayishib serquyosh, yemish moʻl, osoyishta va zilol suvlar oqib yotgan bemisl oʻlka sari borardi.

Peshin payti yalanglikdan oʻtayotganda ayiqning dimogʻiga ajabtovur bir hid urildi-yu, allanarsalar esiga tushdi. Biroq bu yoqimli hid qayerdan kelyapti? Teddi kun chiqar tarafga oʻgirilib ozgina yurgandi, hid yoʻqoldi. U bezovtalanib iziga qaytdi – hid yana dimogʻiga urildi. Shunda Teddi chumoli uyasining qaysi tomonda joylashganini aniqlaguncha turgan yerida aylanaverdi, yillar oʻtib chumolilarni unutib yuborgan boʻlsa ham bu hidni darhol sezgandi.

Chumolidan ajoyib narsa bormi dunyoda! Ulardan shirin narsa bormi?! Yogʻli, nordongina, ishtahani qitiqlaydigan, buning ustiga toʻyimli – istagancha yeyish mumkin!

Teddi tumshugʻini chumolining uyasiga suqdi va huzurlanib pishqirib yubordi – bu hid

shunchalar o'tkir edi. U tumshug'ini yanayam chuqurroq suqdi-da, ko'zlarini yumib, tilini chapillata boshladi. Bir zumda uning tumshug'ini yirik-yirik sariq chumolilar qopladi, quloqlariga o'rmalab kirdi, biroq Teddi boshini silkitib yana ham ishtaha bilan tamshana boshladi. Nihoyat u nafasi qaytib, orqa oyog'iga o'tirdi-da, tin oldi. Daf'atan allaqachon unutib yuborgan bir nima esiga tushdi-da, u chumoli uyasini buza boshladi. Chumolilar endi uning panjasiga yopishdi-yu Teddining bamaylixotir o'tirib, panjasini yalashdan boshqa ishl qolmadi. Bu juda qulay edi – endi chumolilar uning tumshug'iga, quloqlariga kirib g'ashiga tegmas, og'ziga tuproq bilan o't-o'lan ham kirmasdi. Teddi oxiri chumoli uyasida hech vaqo qolmagach, nari ketdi.

Chumoli uyasini buzib tashlagach, Teddi yo'lida davom etdi, yonbag'irlarini archalar qoplagan bir tepalikdan oshdi, jarlikdan o'tdi. Xo'jag'atzorga duch kelib kechgacha o'sha yerdan chiqmadi.

Oldiniga bulduriq va qarqurlarning par etib ko'tarilishi, hovuzlardagi baliqlarning bexos sakrashlari, o'rmon shovqini, yaqin atrofda ketayotgan bug'ularning qasira-qusuridan Teddi cho'chirdi. G'alati, noma'lum, o'tkir hidlar ham xavotirga solardi. Biroq u qo'rquvni yengib, bu noma'lum hldlar va tovushlarga ko'nikish, keyinroq yana duch kelganda ulardan nariroq bo'lish yoki peshvoz chiqish uchun ko'nikib borardi.

Hozirgi hayotining dastlab o'zi ham payqamagan yaxshi tomoni bor edi: odamdan boshqa

hech narsadan qo'rqmasa ham bo'lardi. U na bo'rilar, na qoplonlar, na suvsarlardan hayiqardi. Uni hech nima bezovta qilmas, u hech narsadan tap tortmas va hech nima uni ta'qib etmasdi. Aksincha, undan hamma hayvonlar qo'rqardi, holbuki, o'rmonda eng bahaybat va xavfli yirtqich o'zi ekanini Teddi bilmasdi. Buni anchadan keyin, kunlarning birida ikkita katta-katta bo'ri bug'u jasadini xomtalash qilayotganini ko'rib qolgan paytda angladi. Bo'rilarga ko'zi tushgan ayiq nima qilarini bilmay to'xtab qoldi. Bo'rilar esa tahdidona irillab, o'sha zahoti nari ketishdi va Teddi bug'u go'shtini pok-pokiza tushirayotganida yaqin kelishga botinolmay ancha narida aylanib yurishdi. O'shanda Teddi o'zining qudratli ekanini sezgan va bundan faxrlangan edi. Shundan keyin ham bir necha bor bu yerga qaytib keldi. Har safar uni ko'rdi deguncha och bo'rilar o'ljani tashlab nari qochayotganidan quvonardi.

. VIII

Bir manzilda bir kun, boshqasida ikki kun tunab, Teddi tobora shimolga yaqinlashib borardi. Kun sayin qarag'aylar yiriklashardi: xo'jag'atlar, qulupnay va brusnikalar ko'payib, qishloqlar kamayib borardi. Behad go'zal, odam oyog'i yetmagan xilvat go'shalar va sukunat hukmron. Yana nima kerak?! Biroq Teddi xotirasida shunchalar go'zal manzaralar o'rnashib qolgan ediki, ko'z o'ngidagi voqelik uni qanoatlantirmas va u hamon allaqanday

qadrdon yurti, allaqanday jannatmakon ayiqlar oshiyoniga oshiqardi.

O'zi qulay deb hisoblagan joyni topib, Teddi atrofni ko'zdan kechirib chiqardi. U chirigan to'nkalarni kavlar, kalamush va quyonlar, olmaxonlarning uyasini buzar, oqish yo'sin qoplagan toshlarni ag'darib, shilliqqurtlar va chuvalchanglar izlardi.

Bir safar kambargina ko'l bo'yida, suvning tuyqus shaloplashidan o'takasi yorilib to'xtab qoldi. Qirg'oqdagi qiyozorda isinayotgan cho'rtan baliqlar ayiqdan qo'rqib, o't-o'lanlar orasidan chiqa solib suvga sho'ng'ir edi. Teddi suvdan va qiyozlar orasidan ko'z uzmay qirg'oq yoqalab yo'lga tushdi.

U hali baliq go'shtining ta'mini bilmasdi. Biroq nimadir mana shu jonivorlardan birini tutib yeyishga undardi. Nihoyat u qilt etmay turgan cho'rtan baliqning qoramtir sharpasini sezib, tovush chiqarmay, yerga qapishib yaqinlasha boshladi. Chetdan qaraganda u juda g'alati alpozda edi. Oldingi panjalari bilan tumshug'i yerga qapishgudek, gumbazdek keti esa kulgili tarzda selkillardi. Biroq ayiq pusib kelar, mitti ko'zlari esa mudhish yiltillardi. Cho'rtan baliq yotgan yerni poylab turib panjasi bilan keskin urdi va bo'kirib oldingi panjalari bilan suvga tushdi. Dastlab zarbi nishonga tegdimi, yo'qmi o'zi ham bilolmadi. Biroq zum o'tmay loyqa suv sathida cho'rtan baliqning oqish cho'tir qorni qalqib chiqdi. Teddi uni qirg'oqqa uloqtirdi. Pok-pokiza tushirgach, baliq go'shtining ta'mi og'zida qoldi. Ikki hafta davomida Teddi ko'p narsa o'rgandi. Hidlar qaysi tarafidan kelayot-

gan bo'lsa, o'sha tomonga boshini qo'yib yotadigan bo'ldi. Mevalar bilan ildizlardan tashqari qo'ziqorinlar ham xushxo'r ekanini anglab yetdi. Endi Teddi dastlabki kunlardagidek duch kelgan narsani og'ziga tiqib kavshayvermasdi; u shirali ildizlar zax yerda bo'lajagini bilib oldi: muzdek buloq suvlaridan ichishga va shamol yo'nalishidan foydalanishga o'rganib oldi, uning ziyrakligi oshdi va endi eng nozik hidlarning ham eski yoki yangi ekanini ajratadigan bo'ldi: u yana o'rmondagi hamma narsani og'ziga olavermaslikdan tashqari ba'zi mevalar va qo'ziqorinlarni yaxshisi yemaslik kerakligini tushundi.

U chiniqdi, huda-behudaga toliqmaydigan bo'ldi va birinchi kunlari og'rib bezovta qilayotgan tovonlari cho'p-tikanlar, toshlar botaverib dag'allashdi, sirkda yurganida qirqib tashlashgan tirnoqlari yana o'sib chiqdi. U sekin, deyarli ovoz chiqarmay yuradigan bo'ldi.

Boshida Teddi odatdagidek ko'pincha kechasi uxlardi. Biroq keyinchalik o'rmon kechasi juda maroqli bo'lishini sezdi. Tunda daydib yurgan quyonlar bilan tulkilarning izi ularning yaqinida shu yerdan o'tganidan darak berardi, o't-o'lanlar orasida bir nimalar g'imirlar, butazorda allaqanday hayvonlar kezar, jarlikda va yalanglikda qandaydir maxluqlar u yoqdan bu yoqqa o'tar, tun sukunati qo'ynida xo'p aloomat tovushlar eshitilardi. Qolaversa, Teddini kuni bilan bezor qilib yuboruvchi chivinlar bilan iskabtoparlar ham kechasi g'oyib bo'lardi. Oqibat, kunduzi u xilvat oshiyonlarda yotib uxlaydigan, kechasi esa tez-tez daydib yuradigan bo'ldi.

Kunlardan bir kun Teddi qishloqqa yaqin yerdagi o'rmonda chog'roqqina suli ekilgan maydonga duch keldi. Bu tashiandiq maydon bo'lmay odamzotga tegishli yer edi.

Teddi ekinzor yoqalab yurdi. Suli boshhoqlari mayingina qitiqlar, uning bahri dilini ochardi. Ekinzorni aylanib chiqib ham biron narsa topolmagach, Teddi nari ketdi, biroq anchadan keyin qaytib keldi-da, ekinzorga sho'ng'idi va oy nuriga g'arq bo'lgan bexavotir yerda yotib, boshhoqlarni kappalay boshladi. Shu tariqa u suli mazasini bilib oldi, bu boshhoqlar nimasi bilandir deyarli unutib yuborayozgan suli yormasini unga eslatdi. Dastlab Teddi ochko'zlarcha, donini ajratib o'tirmay bandini qo'shib yeyaverdi, so'ngra faqat boshhoqlarini shimib chaynashga o'tdi, tongga yaqin ekinzorning bir qismini payhon qilib jo'nab qoldi. Suli juda yoqib qolgan ayiq ertasiga yana keldi va kechasi bilan maza qildi. U indiniga ham kelardi-yu, lekin yo'lda botqoqlikka tushib chalg'idi: o'sha yerda o'ttizga yaqin qurbaqalarni hurkitib yubordi-da, tutib yeyman, deb toza balchiqqa ag'anadi va anchagacha shaltog'ini tozalashdan ortmadi.

Teddi shu kuni ertalab ekinzor yoqasidagi yo'lda aravada odamlar o'tganini, ular ekinni uzoq ko'zdan kechirgach, fig'onlari falakka chiqib qaytib ketganlari va kechqurin bolta-yu taxta ko'tarib kelishganlarini hamda o'zlari uchun qulay deb bilgan bahaybat qarag'ayga bir nimalarni qoqqanlarini bilmasdi.

– Juda soz! – dedi ulardan biri kaftlarini bir-biriga ishqab, boshqalari sovuqqina kulib qo'yishdi.

So'ngra odamlar chetroqqa chiqib, chekishdi, aravadan multqlarini olgach, ikkitasi tirmashib qarag'ay tepasiga chiqdi, uchinchi sheriklari esa qaytib ketdi.

Teddi uyg'onganda oy o'rmon uzra havolanib ulgurgan edi. U sassiz, u yoq bu yoqqa alanglab va havoni iskab, sukunat bag'rida ancha yotdi. So'ngra o'rnidan turib esnadi, kerishdi, suli esiga tushib ekinzorga jo'nadi. Yo'lda biror is olib to'xtar, tumshug'ini o't-o'lanlar orasiga suqib iskay-iskay shirali ildizni sug'urib shapillatib yerdi.

Teddi ekinzorga yetib keldi-da, o'zi ikki kecha maza qilgan joyni ko'zdan kechirib borayotganda o'sha yerga o'n besh qadam qolganda birdan taqqa to'xtadi.

Yo'q, u tiq etgan tovush eshitmadi va biron nima sezmedi. Ichki bir sezgi uni ogohiantirdi: bu yerda nimadir o'tirganga o'xshardi.

Teddi ekinzorni o'rmon ichi bilan aylanib o'tish uchun o'ngga burildi, uning junlari hurpaydi, biroq odatdagadek bo'kirmadi: tovush chiqarmaslik zarurligini u his qilardi.

Hech zog' ko'rinmas, qilt etgan sharpa yo'q edi. Kuchsizgina shabada esib, Teddining dimog'iga yana sulining hidi urildi. Biroq Teddi har safargidek tamshanmadi, so'lagini yutib oy nurida oqarib ko'rinayotgan yo'lga chiqdi. Dimog'iga kuyindi, go'ng, tamaki va odam isi keldi. U to'xtab havoni iskadi. Ot mingan odamlar

kelgani, shu yerda to'xtab chekishgani, so'ng jo'nab ketishganini angladi. U yana ham dadillanib yo'l yoqasidan yurdi, yana uni kesib o'tib, endi ekinzorning boshqa tarafida paydo bo'ldi.

U kunduzi shu yerga kelgan odamlarning jo'nab ketganiga qat'iy ishonardi-yu, biroq, – ajabo! – baribir xavotiri arimas, junlari hamon tikrayib turardi. Ayiqning bu xavotirli yerdan butunlay ketgisi keldi – chunki hamma no-ma'lum narsalar qo'rqinchli edi – va o'rmon tarafga burildi-yu, lekin sal naridan yana qaytib keldi.

Teddi onasiz o'sgan va hech kim oyog'i tortmagan yerga bormaslik lozimligini unga o'rgatmagan edi. Shuning uchun, u archalar ortida yashirilib turganida sulining totli, o'tkir hidi qo'rquv hissidan ustun kelib uni chorlardi.

Ayiq daraxtlar orqasida tura-tura oxiri chiqdi. U endi boshhoqlarga cho'zilgan edi, tuyqus, shu atrofda, yuqorida nimadir sharaqladi va qimirladi. Teddi o'zini chetga olishga va boshini ko'tarib qarashga ham ulgurmay bir shu'la yalt etdi va tun sukunatida dahshatli o'q ovozi yangradi, cho'g'dek bir nima ayiqning oldingi, chap panjasiga tegib, u yiqildi. Teddi o'zining eng xavfli dushmani – odamning tuzog'iga tushganini, zudlik bilan o'rmon sari qochish kerakligini, o'sha bir nima sharaqlagandayoq bilgan, sezgan edi; ammo afsus, ulgurolmadi. Shuning uchun hozir har qancha quturgan bo'lmasin, sapchib turib o'rmonga yugurdi. U iloji boricha tezroq yugurish lozimligini bilardi, biroq baxtga qarshi u birdan mukkasidan ketib yiqildi,

xuddi shu payt orqa tarafdagi beo'xshov qarag'ay tepasidan yana ikki o'q yangradi, o'qlar uning shundoqqina yoniga chiyillab urildi va chatnab ketdi. U qo'rqdi, yo'q, o'qlar ovozi bilan chatnagan tovushdan emas, balki qocha olmay yiqilgani uchun dahshatga tushdi. U yana sapchib turdi-da, o'rmon sari otildi, yana boyagi hol takrorlandi; unga bir balo bo'lgandek tumshug'i bilan yiqildi. Shundagina Teddi oldingi panjasi ishiamayotgani, jonsiz bo'lib qolganini angladi. U endi og'irligini sog' panjasiga solib yugurdi: u orqa-oldiga qaramay sarosima ichida pishqirgancha, shox-shabbalarga urilib, chayqalib, qoqilib-suqilib qocha boshiadi.

U uzoq yugurdi, har lahza ortidan quvib kelishayotgandek, ana-mana yetib olishadigandek tuyulib, hamon ildamroq chopishga urinardi. Oxiri u holdan toydi va qochib qutulishga ko'zi yetmay to'xtadi-da, o'kirgancha dushmanini qarshi olishga o'girildi. U dahshat bilan o'kirib og'riq behad zo'rayayotgan panjasini yig'ishtirib cho'kkaladi. Uning ko'zlari yonar, biqinlari ko'tarilib tushar, yag'rinidagi va biqinlaridagi junlari g'azab va qo'rquvdan tikka bo'lgan edi. U o'zining xirillab nafas olishidan bo'lak tovushni eshitmadi, atrofga quloq solish uchun nafasini ichiga yutdi: jimjit. Bu jimlikka ishonmay, g'animini yashirinib olgan deb hisoblayotgan ayiq yana bo'kirdi, so'ng orqasiga qaray-qaray keta boshladi.

Lekin uni hech kim quvmadi, uning o'kirigidan o'takasi yorilgan o'rmon qaytanga jim bo'lib qolgan edi. Teddi panjasini yalay boshladi.

Issiq qon uning ishtahasini qo'zg'ab yubordi va bu mashg'ulotdan huzurlanayotgandek tobora g'ayrat bilan yalashga tushdi. Shu narsa uning joniga ora kirdi. Tong otgach, ovchilar miltiqlarini o'qlab ayiqning qonli izidan yo'l olishdi. Ular ayiqning shox-shabbalarni sindirib yerni tirnoqlari bilan o'yib, o'tlarga qon sachratib rosa yugurganini qonli izlar orqali fahmlashdi. Ular yana uning bir yerda o'tirib kutganini payqashdi: shu yerda qon ko'p oqqan, maysalar ko'proq ezilgan edi. Biroq nariroq borgach, izni sezish qiyinlashdi, qon kamroq ko'rinardi, oxiri ular izni butunlay yo'qotib qo'yishdi. Ovchilar ayiq izini yo'qotgach, yaqin oradagi jarliklarni ko'zdan kechirib, qishloqqa qaytib ketdilar.

X

Teddi esa bu paytda uzoqda, qalin o'rmon ichidagi yalanglikda azob chekib yotardi. Uning panjasi shishib ketib, kun bo'yi qimirlayolmay qoldi. Tun kirdi, biroq ayiq og'riqdan ko'z yu-molmadi. Undan tashqari, yana allaqanday bezovtalik uning tinchini buzdi, har qancha qilmasin buning sababini bilolmadi. O'rmon jimjit. Tiq etgan tovush yo'q edi. Mana shu o'lik sukunat borgan sari ayiqni bezovta qilar va qiy-nar edi.

Kechga yaqin olisda ketma-ket chaqmoq chaqdi. Keyin o'sha yoqdan momaqaldiroqning guldiragani eshitildi. Teddi bunga javoban o'kirdi va archa ostidagi oshiyonidan bezovta-lanib to'lg'ana boshladi. Tevaragida hukm sur-

gan mash'um sukunat, goh-goh olislardan kelayotgan gulduros ayiqni sarosimaga solib qo'yganidan, u biror yerga yashirinib olishni istardi. Biroq buning sira iloji yo'q edi.

Ko'p o'tmay bo'ron boshlandi, daraxt shoxlari orasidan ko'zga chalinayotgan yulduzlar yuzini qop-qora bulut to'sib qo'ydi va zulmat bag'ri-ni tilka-pora qilib chaqmoq chaqildi, ketidan o'rmonni larzaga solgudek dahshatli momaqal-diroq guldiradi.

Kuchli shamolda qarag'aylar bilan archalar-ning uchi shovullar, pastda esa jimjit, qimir et-gan harakat sezilmasdi. To'satdan sharros jala quyib yubordi. Bu daraxt yaproqlariga chlr-sillab uriladigan odatdagi yomg'ir emasdi, una-qasi Teddiga tanish edi, lekin bunisi birdaniga chelaklab, guvillab quyib berdi, bu guvillash – faqat ahyon-ahyon momaqaldiraq guldiragani-ni aytmasa, hamma tovushlarni bosib ketdi.

Jala ertalabga yaqin tindi, quyosh nurlari-dan o'rmon yashnab ketdi. Zumrad tomchilar shoxlaridan quyidagi shoxlarga tomar, undan maysalar uzra to'kilardi. Tonggi o'rmon jo'shqin shovullardi.

Boyaqish Teddi! Og'riq azobidan tinkasi qurigan, bo'ron va odamlardan yuragini oldirib qo'ygan, bir necha kundan beri uyqu nimaligini bilmagan, jalada bo'kkan bechora ayiq archa ostida o'tirar va og'riqdan quyosh nurlari yura-giga sig'mas, qayerga borib yemish izlash haqi-da o'ylayolmas edi. U yarasi bitib, ochlikdan o'lar holatga yetguncha so'ppayib bir necha kun yotdi.

So'ng bir amallab yo'lga tushdi, u tepaliklar yonbag'rida panjasini arang bosib tentirarkan, shox-shabbalar, ildizlar yoki cho'p-tikanlar yarasiga botib uning jonini sug'urib olgandek bo'lardi. Ammo oradan bir necha kun o'tgach, ayiq oyog'ini ohista bosadigan bo'ldi va shu tariqa asta-sekin dardi arib, yana g'ayrati jo'sh urib tetiklandi.

U juda uzoq safarga otlangandek hamon yo'lda davom etardi. Hech yerda to'xtamay shamol sari ming chaqirimdan ziyod yurib qo'ydi. Endi u dastlabki paytlardagidek notavon emasdi. U hidlarning sirli jihatlarini kashf etdi va endi uncha-munchaning farqiga boradigan bo'ldi. U o'zini qurshab turgan buyumlar va hodisalarni borgan sari yaxshiroq o'zlashtirardi. Shu tariqa u xo'jasavdogarlar bilan hakklar betamiz qush deb hisoblansa ham ularga ishonish lozimligini bilib oldi. U jelning nima uchun qichqirganini bilishga o'rgandi, basharti uzoqdan daraxt tepasida tumshug'ini tozalayotgan qarg'aga hamda uning ostidagi shoxlarda tizilib o'tirgan zag'izg'onlarga ko'zi tushsa, hech ikkilanmasdan o'sha tomonga yo'l solardi, chunki qorni to'q qarg'alar o'tirgan yerda, albatta, yemish bo'lajagi endi unga ayon edi. Teddi daraxtga tarmasha olmasdi, lekin serbutoq qarag'ayni uchratib qolsa, albatta, tepasiga chiqib, tevarak-atrofni bir qur ko'zdan kechirardi. U xo'jasavdogarlar bilan hakklar xira pashshadek o'ziga yopishib qolishini yoqtirmasdi. Shunday kezlarda ulardan qutulish uchun tumshug'ini ko'tarib bo'kirar, agar

qushlar shunda ham daraxtdan daraxtga o'tib, chirqillashib, ergashaversalar yashirinib olish payiga tushardi. So'ng yaqin atrofdagi daraxtlarga nazar solar, bu shilqim qushlarni ko'rmasa mamnunona xo'rillab, yo'lda davom etardi. Shaharda yashasa umr bo'yi o'rganish nasib etmaydigan narsalarni qisqa vaqt ichida o'rgan-gan Teddi bir qaraganda chinakam yirtqichga aylangan edi. Biroq aslo bunday emasdi.

Bir safar erta bilan suv ichgani anhor bo'yiga borgan Teddi qo'qqisdan to'xtadi-yu, qotib qoldi: anhor bo'yidan ayiq hidi kelardi. Bu hid eski edi, taxminan ikki kun burun shu yerdan o'tgan bo'lsa kerak. Lekin bu arang sezi-layotgan hid shunchalar tahdidli ediki, Teddi tashnaligini ham unutib atrofni uzoq ko'zdan kechirdi: u sira o'zini bosolmasdi. Demak, bu o'rmonlarda undan boshqa yana bir hukmdor bor ekan-da! Bundan buyon shundan ehtiyot bo'lib yurish lozim. O'sha kundan boshlab Ted-dining tinchi buzildi.

U borgan sari buzilgan chumoli uyalariga, payhon qilingan malinazorga, toptab tashian-gan brusnikalarga tez-tez duch kela boshiadi. Ba'zan Teddi olisdan o'laksa hidini ilg'ab yetib kelsa, anovi ayiq allaqachon bu yerdan o'tgan va o'laksadan nom-u nishon qolmagan bo'lar-di. Endi o'rmonning hamma yerida begona ayiqning hidi anqirdi. Teddi esa bunga toqat qilolmadi. Uning g'azabi shunchalar kuchay-diki, oqibat u bir narsani – ikkovlaridan biri bu o'rmondan ketishi kerakligini angladi. Agar yo-mon bo'lsa Teddi hech ikkilanmasdan bu yer-

ni tark etardi. Biroq bu yerlar shunday ajoyib, xo'rak shunchalar mo'l ediki, natijada Teddi g'animini haydab yuborishga qasd qildi va u bilan uchrashish payiga tushdi. U goh yangi, goho eski izlarga duch keldi, ammo ayiqning o'zimi sira uchratolmadi.

Ular hech kutilmaganda to'qnash keldilar. Teddi ertalab kun bo'yi yotish uchun bir joyni tanladi-da, qarag'aylar orasidagi kaftdekkinaga yalanglikdan o'tib borayotganda birdan dimog'iga o'sha ayiqning jirkanch hidi urildi. Hid shu atrofdan ufurardi. Teddi boshini ko'tarib, hid kelayotgan yoqqa qaradi-yu, raqibini ko'rdi. Bu bezbetning hozir adabini beradi! Teddining ko'zlarida mudhish alanga yondi. Raqibi bir lahza qarag'aylar ortiga yashiringan bo'ldi-da, so'ng yalanglikka chiqdi...

Bu bahaybat yirtqichni ko'rgan Teddi quyondek qotib qoldi. U atigi bir soniya burun bag'oyat darg'azab, jangga tashna vahshiy yirtqich edi. Uning vahshiyliги raqibining vahshiyliги oldida hech narsa bo'lmay qoldi. Ana uni yirtqich desa bo'ladi – junlari osilib tushgan, soqolli, tirnoqlari po'latdek, o'zi ham po'latdan quyilgandek baquvvat, ko'zlari mudhishona chaqchaygan. Uning qarshisida Teddidek ulkan yirtqich ham qo'rquvdan dong qotib qoldi.

Ayiq kallasini osiltirib turganidan bukurga o'xshardi. U churq etmay Teddiga tikildi. Hali oralarida hech narsa sodir bo'lmay – na unisi, na bunisi tovush chiqarmay, biron harakatga chog'lanmay, Teddi bu ajoyib o'lkani aynan o'zi tark etishi lozimligini tushundi. Bu mudhish bahaybat yirtqich bilan u tenglasha olarmidi!

Teddi bilgan narsani o'sha zahoti raqibi ham his etdi. Bu ham yetmagandek, u Teddi-ning ham shuni anglaganini tushundi. Yo'q, u Teddini g'ajib tashlagani hamla qilmadi, balki past ovozda o'kirib qo'ydi. Uning o'kirigi Teddinikidan kam deganda besh parda baland edi. Yirtqichlarning o'kirishi odamlarga bir xilda eshitiladi, ular yirtqichlar ovozidagi nozik ishoralarni ajratib olishga qodir emas. Teddi esa raqibi nimani istayotganini darhol sezdi. Uning past o'kirishi «yo'qol bu yerdan!» deganini anglatardi. Bu amr-farmonga quloq solmaslik Teddi uchun o'lim bilan tugashi aniq edi. Teddi loaqal g'ing demadi, ortiga o'girilib, o'sha zahoti jo'nab ketdi. O'rmonga kirganda u so'nggi bor o'girilib qaradi: ayiq hamon yakkam-dukkam qarag'aylar fonida ulkan g'aramdek qimir etmay turardi. Teddi bu liq-liq sariq chumolilar va qizil brusnikalar o'lkasini butunlay tark etdi. U hayot uchun kurashda zaif ekan, yengildi, darvoqe, vaqtida qutuldim deb hisoblashga uning to'la asosi bor edi. .

XI

Qayin bilan terak yaproqlari deyarli to'kilib bitdi, zah yerni hazon qopladi, qushlar to'da-to'da bo'lib issiq o'lkalarga uchib ketishga chog'lanishdi, malina pishdi, qo'ziqorinlar ko'paydi va Teddi ko'pdan-ko'p tepaliklarni oshib o'tdi, daryoning irmog'i bo'ylab yura-yura bir kun ertalab xiyla keng yalanglikka chiqqanda sovuq tushdi.

U yalanglikda to'xtab, havoni iskadi, atrofni kuzatdi-da, nihoyat o'zi orzu qilgan, bir vaqtlar, bolaligida yashagan o'lkaga yetib kelganini birdan angladi. U endi boshqa yerga bormaydi, xullasi kalom uning safari tugagan edi.

Bu yerdagi hamma narsa o'sha paytdagidek – Teddi hali hech narsani farqiga bormaydigan, chumolilar va qulupnaylar yeb yurgan va onasi uni anhor suviga pishib oladigan zamonlarda qanday bo'lsa shunday – o'zgarmagandek edi. U paytlarda hayot behad go'zal, baxtiyor damlardan iborat edi, mana hozir Teddi yana o'sha yerga qaytib keldi. Ammo ming qilganda ham bu boshqacha edi. Yo'q, u davrlar – bolaligi o'tmishda qolib ketdi, endi qaytmaydi, qaytib kelmaydi. Quyosh nurlari va yam-yashil may-salar singari jilvalanmaydi. Oh, qaniydi, yana bir dumalab jajji ayiqchaga aylanib qolsa, onasini izlab topsa, uning mayingina, issiq og'ushida tin olsa! Ming afsus, buning iloji yo'q...

Teddi kecha-yu kunduz tinmay bu o'lkani sekin-asta aylanib chiqdi, aylanib yurganida o'z mulkining chegaralarini belgilab oldi. U anhorlarni, botqoqlar, jarlar, shudring bosgan o'tloqlarni, o'rmon yoqalari va xilvat go'shalar-ni ko'zdan kechirdi. Son-sanoqsiz bo'rilar, bug'ular, olmaxonlar, qunduzlar, quyonlarning izlarini uchratdi. Ularning ayrimlariga parvo qilmadi, ayrimlari g'ashiga tegdi va u o'rmon tugul havo ham o'ziga tegishli ekanidan ogoh qilish uchun yerni kavlab, tuprog'ini har to-monga sochdi, daraxt po'stloqlarini shildi.

Bulduriqlar bilan qarqurlar qovjiragan yaproqlarni to'zg'itib, uning tumshug'i tagidan

parillab ko'tarilar, biroq endi u hech narsa-ga hayratlanmas, barchasini tabiiydek qabul qilardi. Endi u turli hayvonlarning iziga duch kelgan paytda xavotirga tushmas yoki qiziqib iskamas, balki bir qarashda nimaning izi ekani-ni ilg'ar va ortiqcha ahamiyat bermasdi.

Uning juni o'sib mayinlashdi va tovlanadi-gan bo'ldi. Panjasining og'rig'i qolib ketdi va u to'nkani kavlab olish yoki qulagan zalvarli da-raxt tanasini ag'darish chog'ida bermalol o'sha panjasini ishga solardi. Teddi ishtahasi karnay bo'lib ketganidan tinch o'tirolmay daydigani daydigani edi. Bu yerda hamma narsa yetar-li edi, u ko'pincha o'zini har doimgidan ko'ra ozod va kuchli sezib behad huzurlanardi.

Erkinlikka nima yetsin! U quyoshga, yulduz-lar charaqlagan poyonsiz samoga o'xshaydi; u huzurbaxsh shamolga yoki sharqirab oqayot-gan suvga o'xshaydi.

Hech kimdan qo'rqmaslik kerak, o'zingga yoqmagan ishni qilmasa ham bo'laveradi!

XII

Noyabr – quruq sovuq boshlanadigan oy kirdi, bug'ularning kuzgi kuyikish davri bosh-landi. Tepaliklarda yurganida Teddi ularning bo'kirishlariga achchig'lanib quloq solardi. Ba-haybat shoxli, ulkan bug'uni u bir necha bor uzoqdan ko'rdi. Bug'u ehtiyotkorlikni unu-tib, bermalol yurardi. U tinimsiz pishqirar va bo'kirardi. Ayiqqa bunday qo'shnichilik yoq-madi. Teddi ba'zan o'zini bosolmay shovqin

ko'taradigan yirtqich bo'lgani bilan boshqalar-ning shovqin-suroniga chidayolmasdi, ko'p o'tmay bir paytlar ayiqdan qanchalik jirkansa bug'udan shunchalik hazar qiladigan bo'ldi.

Kunlardan bir kun u bug'ularning iziga duch keldi va bu yerdan hozirgina anovi ulkan bug'u urg'ochi bug'ular bilan o'tganini angladi. Shu kuni Teddi darg'azab edi, bu surbet bug'uni haydab yuborish istagi butun vujudini qamrab oldi-yu, ularning izidan yo'lga tushdi. Yuqoriga ko'tarilgach, izni yo'qotib qo'ydi, bir aylanib yana bug'ularning hidini ilg'adi. Ko'p o'tmay ularning qorasi ko'rindi. Bug'ular terakzorda novdalarni chimdib-chimdib yeyishardi.

Teddi o'kirgancha ularning yoniga, yuqoriga chiqqa boshiadi. Ayiqni ko'rib hurkib ketgan urg'ochi bug'ular pastga qochdilar. Erkagi esa kutilmaganda pishqirib ayiqning yo'lini to'sib chiqdi. Albatta, boshqa payt u hech ikkilanmasdan urg'ochi bug'ularga ergashgan bo'lardi. Hozir esa kuyikish oqibatida qo'rqmasdan raqibining ustiga bostirib bordi: ular yalanglikka tushdilar. Teddi jahl bilan o'kirdi. Bunga javoban bug'u pishqirdi. Uning vujudi jang qilish ishtiyoqidan titrar, ko'zlariga qon quyilgan edi. Bug'uning avji kuchga to'lgan payti edi, serbutoq bahaybat shoxlari, baquvvat bo'yni shundan dalolat berardi.

Bunday to'qnashuvni mutlaqo kutmagan Teddi shoshib qoldi, u qo'rqmadi, faqat to'xtab qanday hamla qilishni mo'ljallab taraddudlandi. Lekin uning taraddudini o'zicha tushungan bug'u, birdan boshini quyi solib, pishqirdi-da,

ayiqqa tashlandi. Teddi qochishga ulgurolmay bug'uning zarbidan yiqildi. Qoni jo'shib ketgan bug'u yiqilgan raqibining tepasida hamlaga hozirlandi, kim bilsin, bug'u ayiqning boshiga suzganda bormi, uning kuni bitardi. Ammo bug'u mo'ljallaganidek, Teddining boshiga emas, yelkasiga suzdi. Ayiq suyagi toshdan qattiq edi – sinmadi, ammo endi olishish qayda, deysiz, sog' qolganiga shukr!

Zarbi xato ketganini ko'rgan bug'u yana tashiandi, ammo Teddi chap berib qoldi-yu, bu gal bug'u nishonga urolmadi. Shunda u yana birinchi safargidek boshini quyi solib hamla qildi. Teddi yana chap berib buta ortiga sakradi, bug'u esa dabdurustdan o'zini to'xtatolmay, ayiqning ortidan burilgan edi, ayiq oqsoqlangan cha jon holatda pastga qarab qochdi. Bug'u misli ko'rilmagan g'alabaga erishgan edi. Biroq hozir bu unga kamlik qildi. U raqibini yanchib tashlash yoki bu yerdan butunlay haydab yuborishni istardi. Alohal u ayiqni quvib osongina yetib oldi va bir-ikki marta suzishga ulgurdi. Keyin bir nimfa esiga tushgandek to'xtadi-da, urg'ochi bug'ular yoniga qaytdi. Abjag'i chiqqan, boyoqish Teddi esa bo'ronda sinib tushgan shox-shabbalar orasiga kirib olib, uzoq ingrab, mag'lubiyat alamini chekib yotdi. Yaqinda uni soqolli ayiq haydadi, endi bug'u... Hammasidan yomoni u endi barcha bug'ulardan qochib yurishi kerak: modomiki bittasi adabini berdimi, demak boshqalari ham shunday qilishi mumkin. Shu kundan e'tiboran hayoti azobga aylandi-qoldi. Jo'rttaga qilgandek,

u tez-tez bug'u izlariga duch keladi. Qorag'atmi, chumoli uyasini izlab izg'iydimi yoki anhorga suv ichgani boradimi – farqi yo'q, bug'u iziga duch kelsa o'sha zahoti ortiga qaytib ketardi.

Ammo bu uzoq davom etmadi. Uning tomirlarida ajdodlarining qoni jo'shdi va raqibini topib o'ldirish istagi xuruj qilib uning halovatini o'g'irladi. Teddi bug'uni uchratish ilinjida o'rmonda aylanib yuradigan bo'ldi. Ba'zan pistirmada soatlab kutardi. Bir kuni anhor bo'yida bug'u izlarini uchratib, butalar orasiga kirib yashirindi-da, kuta boshladi. U yerga tumshug'ini qo'yib, shoxlar oralab so'qmoqdan ko'z uzmay yotdi. Hamma yoqni sap-sariq yaproqlar gilamdek qoplagan edi. Daraxtlar yap-yalang'och, qoramtir archalar bu ayanchli daraxtlar orasidan ko'zga yaqqol tashlanardi. Kun sovuq, havoning avzoyi buzuvchi edi.

Kunning ikkinchi yarmida yuqorida shoxlarning qirsillagani va pishqirish eshitildi. Teddi boshini ko'tarib, havoni iskadi: bug'u isi keldi. Uning butun vujudi sezgiga aylandi. Ayiq yerga qapishib, orqa panjalarini ostiga yig'ishtirib oldi. Bug'ular bir-ikki to'xtashdi. Ular atrofga quloq solishdimi, biron-bir novdalarni chimdib uzishdimi, Teddi bilolmadi, jimgina yotaverdi. Nihoyat butalar ortidan bug'u shoxlari, keyin uning o'zi ko'rindi. Erkak bug'uning ortidan uch chog'li urg'ochisi kelardi. Ular to'xtab, diqqat bilan pastga qarashdi, so'ngra suv bo'yiga tusha boshladilar: oldinda – erkagi, orqada – urg'ochilari.

Lekin baribir bug'u ayiqni sezdi va o'sha zahoti qoqqan qoziqdek turib qoldi. Teddi na'ra

tortganicha yashiringan yeridan otilib chiqdi, bug‘u pishqirib ayiqqa tashlandi. Ayiq chap berib bug‘uning biqiniga panjasi bilan urishga ulgurdi. Changalning zarbi unchalik qattiq emasdi, biroq bug‘uning biqinidagi terisi shilini b qonadi. Qon hldini ilg‘agan Teddi vahshiy- lanib ketdi. Umrida birinchi bor tirik jonning go‘sh-tini burdalagisi, g‘ajigisi, qurbonining jon talvasasida xirillashlarini tinglagisi keldi. Shu asnoda bug‘u yana unga tashlandi. Ayiq ni- hoyatda og‘ir edi, lekin bug‘u qudratli shoxlari bilan uni mushuk bolasidek uloqtirib yubordi. Teddi xuddi o‘tgan safargidek umbaloq oshib yiqildi. Biroq bu gal bug‘uning bo‘ynida yan- gi jarohat paydo bo‘ldi. Teddi sapchib o‘rni- dan turdi-da, butun vujudini larzaga solgulik dahshat bilan bo‘kirgancha bug‘uga tashlandi.

Ular qovjiragan maysalarni toptab, atrof- dagi shox-shabbalar, butalarni sindirib uzoq ollshdilar. Bug‘uning sillasi qurib borardi. Uning jarohatlaridan qon otilar, ayozli kunda uning butun tanasidan bug‘ ko‘tarilayotganga o‘xshardi. Nihoyat ayiq bug‘uning yonboshidan hamla qilib, baquvvat bo‘yniga osilib oldi va ayni chog‘da orqa panjalari bilan biqinini tilka- pora qilib yubordi. So‘ng bo‘ynidan chap pan- jasi bilan changallab, tishlagan ko‘yi bor kuchi bilan bo‘yniga urdi-da, pastga tortdi. Umurtqa pog‘onasi bo‘g‘inlaridan ajralib ketgan bug‘u yiqildi. Ayiq uning ko‘ksini yorib tashladi, ammo shunda ham bug‘u o‘rnidan turib ayiqni uloqtirib yuborishga kuchanardi – u shuncha- lar kuchli edi! Teddi o‘kirib, yutoqqancha jon taslim qilgan raqibining yonida turardi.

...Kun sayin butalar momiqlashib, so'qmoqlar ko'milib, qarag'aylar bilan archalar dilbarlashib borar, yolg'iz qayinlarga yalang'och turar va kechqurunlari ularning shoxlarida qarqurlar o'tirishardi. Sovuq kuchaydi, o'rmon bo'ylab chinakam rus qishi qanot qoqdi.

Qattiq uyquga ketgan Teddi esa bir tekis nafas ola boshladi, uning oshiyoni uzra bug' ko'tarilmay qoldi va kun o'tmay qor bosgan ayiq uyasini, tasodifan tuynuk og'zida osilgan sarg'ish sumalaklardangina bilish mumkin bo'lib qoldi.

O.Otaxon tarjimasi

DYUYMCHAXON

adim zamonda bir ayol yashar ekan. Uning farzandi yo'q, lekin farzandi bo'lishini juda ham orzu qilar ekan. Bir kuni u sehrgar kampirning huzuriga borib shunday debdi:

– Men bir qizalog'im bo'lishini juda-juda istayman, u jimitday kichkinagina bo'lsayam mayliga!

– Bundan osoni yo'q! – deb javob beribdi sehrgar kampir. – Manavi arpa donini ol. Bu sizlarning dalangizda o'sadigan, parrandalar-ga beriladigan oddiy donlardan emas. Buni el-tib gultuvakka ekib qo'y. Nima bo'lishini keyin ko'rasan.

– Rahmat senga! – debdi ayol unga o'n ikki chaqa berib.

So'ng u uyiga kelib, arpa donini gultuvakka ekib qo'yibdi.

Gultuvakka suv quyishi bilanoq maysa unib chiqibdi. Tuproqdan ikkita nafis barg va nozik poya bosh ko'taribdi. Poyada esa lolaga o'xshash kattagina g'aroyib gul paydo bo'libdi. Biroq hali uning gulbarglari qattiq tugilgan, g'unchasi ochilmagan ekan.

– Naqadar chiroyli gul! – deya ayol uning rangin barglaridan o'pib qo'yibdi.

Xuddi shu lahzada g'uncha ichida nimadir qimirlagandek bo'libdi va u ochilibdi. Bu chin-

dan ham kattakon lola bo'lib, faqat uning gulkosasida tirik bir qizaloq o'tirgan emish. U judayam kichkina bo'lib, bo'yi atigi bir dyuym¹ kelar ekan, xolos. Shuning uchun ham ayol uning nomini Dyuymchaxon deb atabdi.

Chiroyli loklangan yong'oq po'chog'idan Dyuymchaxonga belanchak qilib beribdi. Parqu to'shak o'rniga bir necha binafsha to'shab, atirgulning gulbargini ko'rpa qilib beribdi. Kechasi ana shu belanchakda yotar, kunduzlari esa stol ustida o'ynab yurar ekan.

Ayol stol o'rtasiga suv solingan chuqurgina likopcha qo'yib, uning chetiga gullar terib chiqibdi. Ularning uzun novdalari suvga cho'mib turar, shuning uchun bu gullar anchagacha so'lib qolmay, atir taratib turaverar ekan.

Jajjigina Dyuymchaxonga bu suvli likopcha butun boshli dengiz bo'lib tuyular, bu dengizda u lola gulbargiga minib olganicha xuddi qayiqdagidek suzib yurar ekan. Eshkak o'rniga u ikkita oppoq ot tolasidan foydalanar ekan. Dyuymchaxon kun bo'yi o'zining ana shu g'aroyib qayiqchasida qo'shiqlar kuylaganicha likopchaning u tomonidan bu tomoniga suzib o'tar ekan. Uning ovozidek nafis ovozni hali hech kim eshitmagan ekan.

Dyuymchaxon o'z belanchagida uxlab yotgan kechalarning birida lang ochiq derazadan xonaga kattakon, qari, shilimshiq va badbasha-ra bir baqa kirib kelibdi. U deraza tokchasidan stol ustiga sakrab tushibdi va atirgul gulbargi

¹ Dyuym – 25,4 millimetrga teng uzunlik o'lchovi.

ostida yotgan Dyuyunchaxonning belanchagiga baqrayibdi.

– Buncha yaxshi! – debdi bu qari baqa. – O'g'limga munosib xotin topilib qoldi.

U qizaloq yotgan yong'oq po'chog'ini changallab olibdi-da, derazadan bog'ga sakrabdi.

Bog' yonidan anhor oqib o'tar, uning shundoq qirg'og'ida bir botqoqlik bor ekan. Ana shu yerda, qurbaqasallalar og'ushida qari baqa o'z o'g'li bilan yashar ekan. O'g'li ham xuddi onasidek – shilimshiq va badbashara ekan!

– Vaq-vaq, vaq-vaq, vaqa-vaqa-vaq-vaq! – deya olibdi xolos u yong'oq po'chog'i ichida yotgan jajji qizaloqni ko'rib.

– Ovozingni o'chir! Mabodo uni uyg'otib yuborsang, qochib ketadi, – debdi qari baqa. – Axir u pardan ham yengil-da. Yaxshisi, uni anhor o'rtasiga olib borib, nilufar bargiga o'tqazib qo'yamiz, jimitday bu qizaloq uchun nilufar bargi butun boshli orolga teng keladi. U yerdan sirayam qochib ketolmaydi. Bu orada men ikkalangizga qurbaqasallalardan ajoyib in yasab beraman.

Anhorda ko'plab nilufarlar o'sib yotar ekan. Ularning shapaloq-shapaloq yam-yashil barglari suvda suzib yurar ekan. Eng katta barg esa qirg'oqdan juda olisda ekan! Baqa ana shu barg tomon suzib boribdi-da, uning ustiga qizaloq uxlab yotgan yong'oq po'chog'ini qo'yibdi.

Ertalab uyg'onganida sho'rlik Dyuyunchaxonning qanchalar qo'rqib ketganini ko'rsangiz! Qo'rqmay ham bo'ladimi? Uning hamma tomonini suv qurshab olgan, qirg'oq esa olisdan

elas-elas ko'rinar ekan. Dyuyunchaxon qo'llari bilan ko'zlarini bekitib olganicha achchiq-achchiq yig'labdi.

Qari baqa esa yo'sinlar ustiga o'tirib olganicha, o'z uyini qamish va sarg'aygan nilufarlar bilan bezatar, bu bilan o'zining yosh keliniga yoqmoqchi ekan. Hammasi tayyor bo'lgach, u irkit o'g'li bilan Dyuyunchaxon o'tirgan barg yoniga suzib kelibdi, ularning niyati qizaloqni karavotga o'tqazib, o'z uylariga olib ketish ekan.

Qari baqa qizning shundoq qarshisida suvga shalpayib olganicha shirin jilmayib debdi:

– Mana bu – mening o'g'ilcham! U sening ering bo'ladi! Ikkalangiz biznikida, qurbaqasal-lalar og'ushida maza qilib yashaysizlar.

– Vaq-vaq, vaq-vaq, vaqa-vaqa-vaq-vaq! – deya olibdi xolos uning o'g'ilchasi.

Baqalar po'choqni olganicha suzib ketishibdi. Dyuyunchaxon anhorning o'rtasida, kattakon nilufar bargining ustida yolg'iz qolganicha, achchiq-achchiq ko'z yosh to'kibdi – axir, u bu irkit baqanikida yashashni, uning qo'lansa o'g'liga erga tegishni sirayam istamas ekan-da.

Suv ostida suzib yurgan baliqchalar qari baqa aytgan gaplarni eshitishibdi. Kuyov va uning onasini ular avval ham ko'rishgan ekan. Endilikda esa kelinning qandayligini ko'rish uchun suvdan boshiarini chiqazishibdi.

Dum-dumaloq ko'zlari bilan Dyuyunchaxon-ga nazar tashiagan bu baliqchalar darhol suvning eng tubiga sho'ng'ib, endilikda nima chora ko'rish lozimligi haqida o'ylay boshiashibdi. Ana shunday ko'hlikkina, kichikkina bir qizaloq-

ning suvdagi bir to'nka ostida, quyuq yo'sin-u qurbaqasallalar og'ushida anavi qo'lansa baqalar bilan birga yashashi baliqchalar uchun o'ta achinarli bir hol ekan. Bu insofdan emas-ku, axir! Butun anhordagi baliqchalar Dyuymchaxon o'tirgan nilufar yomiga yig'ilib kelib, bargning bandini g'ajib tashlashibdi.

Mana, oqibatda nilufar bargi oqim bo'ylab suzib ketibdi. Oqim juda tez bo'lib, barg shitob bilan ilgarilab borar ekan. Endi qari baqa ming urinsa ham Dyuymchaxonni quvib yetolmas ekan.

Dyuymchaxon suzgandan suzib boraveribdi, butalarga qo'nib olgan qushchalar uni ko'rib kuylay boshiashibdi:

– Qanchalar ko'hlikkina, kichikkina qizaloq!

Yengilgina oq kapalak Dyuymchaxon boshi uzra aylana-aylana nihoyat nilufar bargiga qo'nibdi – chunki bu jajjigina sayohatchi qizaloq unga judayam yoqib qolgan ekan.

Dyuymchaxon esa o'z ipak kamarini yechib, bir uchini kapalak ustiga tashlabdi, ikkinchisi-mi bargga bog'labdi, shunda barg yanada jadalroq suzib ketibdi. Shu payt uning yonidan may qo'ng'izi uchib o'tibdi. U Dyuymchaxonni ko'rib qolib, uni changallaganicha daraxt tomon uchib ketibdi. Qizaloqsiz qolgan nilufar bargi va u bilan birga kapalak ham tez orada ko'zdan g'oyib bo'libdi, chunki kapalak nilufar bargiga ipak kamar bilan mahkam bog'lab qo'yilgan ekan-da.

Mo'ylovdor qo'ng'iz arrador oyoqlari orasiga siqib olib, osmon-u falakka ko'tarilganida sho'rlik Dyuymchaxon qanchalik qo'rqib ket-

ganini ko'rsangiz! U oq kapalakka ham qattiq achinibdi. Endi uning ahvoli nima kecharkin? Agar u qutulib keta olmasa, ochlikdan halok bo'ladi-ku!

May qo'ng'izining esa parvoyi palak ekan. U kattakon bir daraxtning shoxiga qo'nib, yoniga Dyuymchaxonni ham o'tqazibdi-da, unga: «Garchi sen may qo'ng'izlariga o'xshamasang-da, menga juda yoqib qolding», – debdi.

So'ng shu daraxtda yashaydigan boshqa may qo'ng'izlari ularnikiga mehmonga kelishibdi. Ular Dyuymchaxonni qiziqib tomosha qilishibdi, ularning qizaloqlari esa hayrat bilan uning qanotlarini ko'tarib ko'rishibdi.

– Uning atigi ikkitagina oyog'i bor ekan! – debdi ulardan biri.

– Uning hatto mo'ylovi ham yo'q ekan! – debdi boshqalari.

– U naqadar zaif, ozg'in! Puf desang belidan sinib ketadi, – debdi yana boshqa birlari.

– Odamzotga juda o'xshab ketarkan-u, biroq ancha xunuk ekan, – degan xulosaga kelishibdi barcha qo'ng'izlar.

Hatto Dyuymchaxonni ko'tarib kelgan may qo'ng'izining o'ziga ham endilikda u xunuk ko'rina boshlabdi va undan ajramoqchi bo'libdi – qayoqqa ketsa ketaversin. U Dyuymchaxonni pastga olib tushib, moychechak ustiga o'tqazib qo'yibdi.

O'zining bu qadar xunukligi alam qilib, Dyuymchaxon gul ustiga o'tirganicha rosa yig'labdi. Hatto may qo'ng'izlari ham uni quvib yuborishdi-ya!

Aslida esa u judayam yoqimtoy bo'lib, dunyoda undan-da ko'hlikroq qizaloqni topib bo'lmas ekan.

Dyuymchaxon butun yoz bo'yi kattakon o'rmonda toq-tanho yashabdi. U o'ziga o't-o'lanlardan belanchak to'qib olibdi va yog'in-sochindan, quyosh taftidan panalash uchun uni qariqizning kattakon bargi ostiga osib qo'yibdi. U har kuni gullar asalidan yeb, har ertalab yaproqlarga ingan shabnamdan ichib yuraveribdi.

Yoz shu tariqa o'tib bo'lib, kuz ham kirib ketibdi. Uzundan-uzoq qahraton qish nafasi sezi-la boshlabdi. Qushlar uchib ketishibdi, gullar so'libdi, ostida Dyuymchaxon yashaydigan qariqiz bargi ham sarg'ayib, qovjirabdi va quvurchadek buralib qolibdi.

Sovuq Dyuymchaxonning jon-jonidan o'tib ketibdi. Ko'ylakchasining julduri chiqibdi, jajjigina, nozikkina qizaloq bunaqada sovqotmaydimi, axir! Qor ham yog'a boshlabdi, Dyuymchaxon uchun har bir qor zarrasi bizning bir belkurak qorimizga teng ekan. Biz-ku katta odamlarmiz, uning esa bor bo'yi-basti atigi bir dyuym ekan. U quruq yaproqlardan biriga o'ranibdi, lekin bundan badani isimabdi, sho'rlik shamolda tebranayotgan kuzgi barg kabi qalt-qalt titrar ekan.

Shunda Dyuymchaxon bu o'rmonni tark etib, o'ziga qishlik boshpana topmoqchi bo'libdi.

U yashayotgan o'rmon ortida kattakon dala bor ekan. Undagi g'allani allaqachon yig'ib olishgan, faqat muzlagan tuproqda quruq xas-xashaklar dikkayib turarkan, xolos.

Dala o'rmondan ham sovuqroq ekan, qovjirab qolgan dag'al somonpoyalar orasiga yetib olguncha Dyuyunchaxon qotib qolibdi.

Nihoyat, u dala sichqonining iniga yetib olibdi. Inning og'zi o't-o'lan, xas-xashak ila hafsala bilan bekitilgan ekan.

Dala sichqoni iliqqina joyda to'q-farovon yashar: oshxona va ombori don bilan liq to'la ekan. Dyuyunchaxon xuddi tilanchi kabi uning ini bo'sag'asida to'xtab qolibdi va hech bo'lmasa bir bo'lak arpa doni berishlarini o'tinib so'rabdi – axir u ikki kundan beri tuz totmagan ekan-da.

– Voy sho'rlikkina! – debdi dala sichqoni (chindan ham u saxiy kampir ekan). – Qani beri kel-chi, qani mundoq isinib, men bilan birga tamaddi qilib ol!

Dyuyunchaxon inga tushib, isinib, ovqatlanib olibdi.

– Sen menga yoqib qolding, – debdi unga sichqon munchoq kabi yaltirab turgan qop-qora ko'zchalarini tikib. – Qish ichi menikida qola qol. Men seni boqaman, sen esa uyimga bamaylixotir joylashib olib, menga ertaklar aytib berasan – men ularni o'lguday yaxshi ko'raman.

Xullas, Dyuyunchaxon shu yerda qolibdi.

U qari sichqon buyurgan barcha yumushiar-ni ado etar, bu issiqqina ovloq anda har holda yomon yashamas ekan.

– Yaqinda biznikiga mehmon keladi, – debdi kunlarning birida dala sichqoni. – Haftada bir bor men qo'shnimni yo'qlab boraman. U juda badavlat, mendan ancha yaxshi yashaydi. Uning yer ostida kattakon uyi bor, o'zi shuna-

qangi po'stin kiyib yuradiki, bunaqasini sen umringda ham ko'rmagan bo'lsang kerak, ajoyib qop-qora po'stin! Qizaloq, sen unga tega qol! Pichog'ing moy ustida bo'ladi! Attangki, u ko'r, sening ko'hlikkina husningni tomosha qila olmaydi. Lekin evaziga sen o'zing bilgan eng yaxshi ertaklaringni aytib berasan.

Biroq Dyuymchaxon bu boy qo'shniga turmushga chiqishni sirayam xohlamas, chunki bu badqovoq yer osti fuqarosi – ko'rsichqon ekan.

Chindan ham ko'p o'tmay bu qo'shni ularni-kiga mehmon bo'lib kelibdi.

Haqiqatan ham u qora baxmaldan judayam ajoyib po'stin kiyib olgan ekan. Buning ustiga, dala sichqonining aytishicha, u o'qimishli va juda boy bo'lib, uyi oddiy sichqonlarni-kidan yigirma barobar katta ekan. Biroq uning quyoshga aslo toqati yo'q, barcha gullarni so'kkani-so'kkan ekan. Buning ajablanarli joyi yo'q! Axir u umrida hech qachon birorta gulni ham ko'rmagan ekan-da.

Mezbon sichqon Dyuymchaxonga muhtaram mehmon uchun qo'shiq kuylab berishni buyuribdi, qizaloq istar-istamas ikkita qo'shiq aytibdi, shunaqangi jozibali kuylabdiki, ko'rsichqon bundan jo'shib ketibdi. Biroq hech narsa demabdi – u shundoq takabbur, dimog'dor, kamgap ekan...

Bu mehmondorchilikdan so'ng ko'rsichqon o'z uyidan dala sichqonining inigacha yer osti yo'lagi kavlabdi va kampir bilan uning tutingan qizini bu yer osti lahmi bo'ylab sayrga taklif etibdi.

U tumshug'iga bir bo'lak chirindi tishlab olibdi-da, yo'lni yoritganicha oldinga tushibdi, chunki bu chirindi zulmatni xuddi shamdek yoritib turar ekan.

Yo'l yarimlaganda ko'rsichqon to'xtab bunday debdi:

– Bu yerda qandaydir bir qush yotibdi. Lekin bizning undan qo'rqadigan joyimiz yo'q – u o'lib qolgan. Buni o'zlaringiz ham ko'rishlaringiz mumkin.

Ko'rsichqon o'zining yapasqi tumshug'i bilan to tuynuk hosil bo'lmaguncha yo'lak shiftni kurayveribdi. Yo'lakka kunduzgi yorug'lik tushibdi va Dyuyunchaxon tepada o'lib yotgan qaldirg'ochni ko'ribdi.

Sho'rlik qaldirg'och ehtimol sovuqdan halok bo'lgandir. U qanotlarini tanasiga qattiq siqib, bosh va oyoqlarini patlari ichiga tiqib olgan ekan.

Dyuyunchaxon unga qattiq achinibdi. U bu sho'x, uchag'on qushlarni juda yaxshi ko'rar, chunki ular yoz bo'yi qizaloqqa ajoyib qo'shiqlar aytib berishgan, uning o'zini ham kuylashga o'rgatishgan ekan-da. Biroq ko'rsichqon o'zining kalta panjalari bilan qaldirg'ochni turtganicha javrabdi:

– Ha, daming o'chib qoldimi? Hushtakvozliliging tugadimi? Ana shunaqa bo'ladi!.. Men bunday notavon qushcha bo'lishni istamagan bo'lardim. Havoda chirpirab yurib vijirlashdan boshqasini bilmaydi. Qish kelsa, holi ne kechadi? O'ladi-qoladi. Yo'q, mening bolalarim qishning sovug'ida och-yalang'och o'lib ketadigan bo'lmaydi.

– Haqqast rost, – debdi dala sichqoni. – Be-huda vijir-vijir qilishdan ne foyda? Qo'shiq bilan qorning to'yib, vijirlashdan taning ilib qol-maydi-ku, axir!

Dyuymchaxon sukut saqlabdi. Ammo ko'rsichqon va dala sichqoni qushga orqa o'giri-shi bilan u darhol qaldirg'och tomon egilib, patlarini yiribdi-da, uning yumuq ko'zlaridan o'pib qo'yibdi.

«Ehtimol, bu yoz bo'yi yoqimli qo'shiqlar ayt-gan o'sha qaldirg'ochdir, – deb o'ylabdi u. – Menga qancha-qancha shodliklar baxsh etgan eding, aziz qaldirg'ochginam!»

Shu payt ko'rsichqon shiftdagi tuynukni tag'in bekitib qo'yibdi. So'ng chirindini tishlab olganicha qari sichqon va Dyuymchaxonni o'z uyiga boshlab boribdi.

Dyuymchaxon kechasi uxlay olmabdi. O'rni-dan turib, quruq xashaklardan kattakon gilam to'qibdi va yer osti yo'lagiga tushib borganicha o'lik qaldirg'ochning ustini gilam bilan yopib qo'yibdi. So'ng u dala sichqonining omboridan iliqqina pat, qup-qufuq momiq topib, muzlab yotgan tuproq badaniga botmasligi va sovuq qotmasligi uchun qaldirg'ochga uyasimon bir joy hozirlabdi.

– Alvido, aziz qaldirg'ochginam, – debdi Dyuymchaxon. – Alvido! Daraxtlar yashnab turgan, quyosh saxovat bilan qizdirgan payt-larda, yozda menga aytgan g'aroyib qo'shiqla-ring uchun rahmat senga.

Shunday deya u qushcha ko'ksidagi ipakdek mayin patlarga bosh qo'yibdi.

Qo'qqisdan u qaldirg'och ko'ksida nimadir bir maromda «Duk-duk! Duk-duk!» urib turganini eshitib qolibdi. Avval sekin eshitilgan bu tovush tobora ko'tarila boribdi. Bu qaldirg'ochning urib turgan yuragi ekan. U o'lmagan, faqat qattiq sovuqdan karaxt bo'lib qolgan ekan, endi esa tanasi ilib, unga jon kiribdi.

Hamisha qishda qaldirg'ochlar galasi is-siq o'lkalarga uchib ketishadi. Kuz hali daraxt yaproqlarini yulqib olishga ulgurmay turib, sayyor qushlar olis yo'l hozirligini ko'rib qo'yishadi. Mabodo ulardan biri ortda qolsa yoki kechiksa, ignadek izg'irin uning nozik vujudini darhol muzlatib qo'yadi. U karaxt bo'lib, yerga o'likdek qulab tushadi va qorga ko'milib qoladi.

Dyuymchaxon ilitgan bu qaldirg'och ham ana shunday ahvolga tushib qolgan ekan.

Qush tirik ekanligini bilgan qizaloq ham sevinib, ham qo'rqib ketibdi.

Qo'rqmay ham bo'ladimi? Chunki o'zining bo'y-bastiga nisbatan qaldirg'och juda ulkan qush bo'lib tuyular ekan-da.

Biroq baribir Dyuymchaxon o'zini o'nglab olib, to'qigan gilami bilan qaldirg'ochni yaxshilab o'rab qo'yibdi, so'ng chopib borib uyidan o'zi ko'rpa o'rnida o'ranib yotadigan yalpiz bargini olib kelibdi va qushning boshi ostiga buklab qo'yibdi.

Keyingi kechada Dyuymchaxon yana sekin-gina qaldirg'och yoniga kelibdi. Qush ancha jonlanib qolgan bo'lsa-da, biroq hali madori yo'q ekan, qizchani ko'rish uchun ko'zlarini zo'r-bazo'r ochibdi.

Dyuymchaxon uning oldiga bir bo'lak chiriindi tutganicha turar, chunki uning boshqa fonusi yo'q ekan.

– Rahmat senga, jajjiginam! – debdi xasta qaldirg'och. – Men juda yaxshi isinib oldim! Hadedamay butunlay sog'ayib ketaman, yana kuning ko'zida uchib yuraman.

– Oh, – debdi Dyuymchaxon, – hozir shunaqangi sovuqki, qor yog'ib yotibdi! Yaxshisi, sen issiqqina to'shagingda yotaver, men esa seni parvarishlab turaman.

U qaldirg'ochga arpa doni va gul yaprog'ida suv olib kelibdi. Qaldirg'och yeb-ichibdi, so'ng tog'olcha daraxtiga urilib qanoti jarohat olganini, shuning uchun boshqa qaldirg'ochlar bilan issiq o'lkalarga uchib keta olmay qolganini, bu orada qish tushib, havo sovib ketganini va natijada yerga qulab tushganini qizaloqqa so'zlab beribdi.

So'ng nima bo'lganini qaldirg'och eslay olmabdi. U hatto bu joyga, yer ostiga qanday tushib qolganini ham bilmas ekan.

Butun qish bo'yi qaldirg'och ana shu yer osti yo'lagida yashab qolibdi. Dyuymchaxon uni parvarish qilibdi, taom, suv berib turibdi. Bu haqda ko'rsichqonga ham, dala sichqoniga ham g'ing demabdi – chunki ularning ikkalasi ham qushlarni yoqtirishmas ekan-da.

Bahor kelib, quyosh borliqni qizdira boshlaganida Dyuymchaxon bir paytlar ko'rsichqon shiftidan o'yan tuynukni ochib yuboribdi, yer ostiga iliq quyosh nurlari oqib kiribdi.

Qaldirg'och qizcha bilan xayrlashibdi, qanotlarini parvozga shaylabdi, lekin uchib ketish

arafasida Dyuymchaxondan: «Men bilan birgalikda ozodlikka chiqishni istamaysanmi?» – deb so‘rabdi. Istasa, qizaloq uning yelkasiga o‘tirib oladi-da, ikkalasi yam-yashil o‘rmon tomon uchib ketishadi.

Lekin qari dala sichqonini tashlab ketgani Dyuymchaxonning ko‘zi qiymabdi, o‘zi bo‘lmasa kampir juda zerikib qolishini u yaxshi bilar ekan-da.

– Yo‘q, menga mumkin emas, – debdi u xo‘rsinib.

– Na iloj, alvido! Alvido, mehribon qizaloq! – deya vijirlabdi qaldirg‘och.

Dyuymchaxon uning ortidan uzoq termilib qolibdi, ko‘zlaridan tomchi-tomchi yosh oqib tushibdi – chunki u ham kengliklarni qo‘msar, buning ustiga, qaldirg‘och bilan ajralish juda og‘ir ekan.

– Chiv-chiv-chiv, chivich-chiv! – deya qichqiribdi so‘nggi bora qaldirg‘och va yam-yashil o‘rmonga kirib g‘oyib bo‘libdi.

Dyuymchaxon esa sichqon inida qolaveribdi.

Kundan kunga uning yashashi og‘irlashib, zerikishi ortib boraveribdi. Qari sichqon unga indan uzoqroq ketishga ruxsat bermas, uya atrofidagi maydonda esa baland-baland yo‘g‘on boshoqpoyalar o‘sib yotar, ular Dyuymchaxon-ga chakalak o‘rmon bo‘lib tuyular ekan.

Kunlarning birida qari sichqon Dyuymchaxon-ga gap ochib qolibdi:

– Qo‘shnimiz, kekxa ko‘rsichqon senga unashgani keladi. Endi senga sep tayyorlash kerak. Sen ulug‘vor zotga tegasan, shuning

uchun hamma narsang ortig'i bilan bo'lishi kerak.

Natijada Dyuyunchaxon kun bo'yi narsa to'qib o'tiradigan bo'libdi.

Qari sichqon to'rtta o'rgimchakni yollabdi. Ular kecha-yu kunduz sichqon inining burchak-burchaklariga o'tirib olganlaricha jimgina o'z ishlari bilan mashg'ul bo'lishar – har xil matolar to'qir, nihoyatda nafis tolalardan to'rsimon liboslar tayyorlashar ekan.

Ko'rsichqon esa har kechqurun mehmonga kelib, hademay yoz tugashi, quyosh yerni isitmay qo'yishi, tuproq tag'in yumshoq va g'ovak bo'lib qolishi haqida vaysagani-vaysagan ekan. Ana o'shanda to'yimiz bo'ladi, der ekan u. Biroq Dyuyunchaxon g'ussaga botib nuqul yig'lar: chunki u umuman turmushga chiqishni, ayniqsa, mana bunaqangi xo'ppa semiz ko'rsichqonga tegishni sira-sira istamas ekan.

Har tong quyosh chiqayotganida, har oqshom kun botayotganida Dyuyunchaxon sichqon inining og'ziga chiqib o'tirar ekan. Ba'zan sho'x shabada boshoqlarni tebratib o'tar, shunda qizaloqqa osmonning bir parchasini ko'rish nasib etar ekan.

«Bu yer naqadar yorug', erkinlikda bo'lish naqadar yaxshi!» – deb o'ylar ekan Dyuyunchaxon va nuqul qaldirg'och yodiga tushib ketar ekan. U o'sha qushcha bilan uchrashishni juda-juda istar, lekin bu dalada qaldirg'ochning qorasi ham ko'rinmas ekan. Ehtimol u olis-olislarda, moviy daryo yuqorisidagi yam-yashil o'rmonda yayrab uchib yurgandir...

Nihoyat, kuz ham kelibdi. Dyuymchaxonning sepi tayyor bo'libdi.

– To'rt haftadan so'ng sening to'ying bo'ladi! – debdi unga dala sichqoni.

Dyuymchaxon esa yig'laganicha diqqinafas ko'rsichqonga ko'ngli yo'qligini aytibdi.

Qari sichqonning jahli chiqib ketibdi.

– Bekor gap! – debdi u. – O'jarlik qila ko'rma. Yo'qsa tishlarim ostida qiyma-qiyma bo'lasan. Senga ko'rsichqondek er bormi? Bir po'stini-ning o'zi qancha dunyo turadi! Hatto qirolning o'zida ham bunaqangi po'stin yo'q! Yerto'las ham liq to'la. Peshonangga shunday er bitganiga shukur qilsang-chi!

Oxiri to'y kuni ham yetib, ko'rsichqon o'z qaylig'ini olib ketgani kelibdi. Demak, endi Dyuymchaxon u bilan qop-qorong'i inga ketishi, chuqur yer qa'rida yashab qolishi, na yorug' dunyoni, na charog'on quyoshni hech qachon ko'rmasligi kerak – axir ko'rsichqonning yorug' dunyoga ham, quyoshga ham toqati yo'q-da! Lekin cheksiz osmon, alvon quyoshdan manguga ajrash sho'rlik Dyuymchaxon uchun juda og'ir ekan! Dala sichqonining inida esa u garchi olisdan bo'lsa ham ulardan bahra olib turar ekan.

Mana, u yorug' dunyoga so'nggi bor nazar tashlash uchun tashqariga chiqibdi.

Daladan g'alla allaqachon yig'ib olingan, tag'in avvalgidek yalang'och, qovjiroq boshoqpoyalar dikkayib turar ekan. Qizaloq sichqon inidan nariroq borib, quyoshga qo'llarini cho'zibdi:

– Alvido, quyoshjon, alvido!

So'ng u mittigina qizil gulchani ko'rib qolib, uni quchganicha debdi:

– Aziz gulginam, agar qaldirg'ochni ko'rib qol-sang, unga Dyuymchaxondan salom deb qo'y.

– Chiv-chiv-chiv, chivich-chiv! – degan ovoz eshitilibdi qo'qqisdan uning tepasida.

Dyuymchaxon bosh ko'tarib qaragan ekan, dala uzra uchib yurgan qaldirg'ochni ko'rib qolibdi. Qaldirg'och ham qizaloqni ko'rib qolib suyunib ketibdi. U yerga qo'nibdi, Dyuymchaxon yig'laganicha o'z o'rtog'iga keksa, badqovoq ko'rsichqonga tegishni va hech qachon quyosh shu'lasini tushmaydigan yer qa'rida u bilan birga yashashni sirayam xohlamasligini hikoya qilib beribdi.

– Sovuq qish bostirib kelyapti, – debdi qaldirg'och, – endi men uzoq-uzoqlarga, olis o'lkalarga uchib ketaman. Men bilan ketishni istaysanmi? Istasang, mening yelkamga chiqib ol, faqat o'zingni kamar bilan menga mahkam bog'lab qo'y, ikkimiz bu irkit ko'rsichqonni tark etamiz, olis-olislarga, moviy dengizlar ortidagi issiq o'lkalarga, quyosh charaqlab turgan, doimiy yoz hukmron bo'lgan, gullar hamisha ochilib yotadigan yurtlarga uchib ketamiz. Men bilan ucha qol, jajjiginam! Qop-qorong'i, sovuq o'rada muzlab yotganimda mening hayotimni sen saqlab qolgan eding-ku, axir.

– Ha, ha, albatta, men sen bilan uchib ketaman! – debdi Dyuymchaxon.

U qaldirg'ochning ustiga chiqib, o'zini uning eng katta va baquvvat patiga bog'lab qo'yibdi.

Qaldirg'och o'qdek uchib ko'kka ko'tarilibdi va qorong'i o'rmonlar, moviy dengizlar va qor

qoplab yotgan yuksak tog'lar ustidan parvoz etib ketibdi. Yuksaklik juda sovuq bo'lgani uchun Dyuymchaxon qaldirg'ochning iliq patlari orasiga bekinib olib, tubandagi manzaralardan zavqlanish uchun faqat boshini chiqarib ketaveribdi.

Mana, nihoyat issiq o'lkalarga ham yetib kelishibdi! Bu yerlarda quyosh bizdagidan ko'ra mo'l-ko'l nur sochar, osmon ham ancha yuksak, chetan devorlar bo'ylab yam-yashil uzumzorlar chirmashib ketgan ekan. Butazorlarda apelsin va limonlar pishib yotar, so'qmoqlarda esa katta-katta rangin kapalaklarni tutish uchun sho'x-shodon bolalar yugurib yurishar ekan.

Biroq qaldirg'och yanada olislab ketaveribdi.

Shaffof moviy ko'l qirg'og'ida, tarvaqaylab ketgan daraxtlar orasida qadimiy bir oq marmar saroy bor ekan. Uning yuksak ustunlariga tok butalari chirmashib ketgan, tepada, tom ostida esa qushlar in qurgan ekan. O'sha inlarning birida shu qaldirg'och yashar ekan.

– Mana shu mening uyim! – debdi u. – Sen o'zingga eng chiroyli gulni tanlagin. Men seni uning kosasiga o'tqazib qo'yaman, maza qilib yashayverasan.

Dyuymchaxon suyunganidan chapak chalib yuboribdi.

Pastda, o'tlar orasida oq marmar parchalari yotar, bu ustunlardan birining peshtoqidan ko'chib tushib uchga bo'linib ketgan marmar bo'laklari ekan. Ular orasida qordek oppoq yirik gullar o'sib yotar ekan.

Qaldirg'och pastlab kelib, qizchani shapaloqdek gulbargga o'tqazib qo'yibdi. Bu qanday

mo'jiza bo'ldi ekan? Gulkosada xuddi billur yoki tonggi shabnam kabi tiniq va musaffo bir mitti odamcha o'tirar ekan. Uning yelkasida nafis qanotlari pirpirab turar, boshiga yaraqlab turgan mittigina oltin toj kiyib olgan, bo'yi esa Dyuymchaxonnikidan oshmas ekan. Bu elflar qiroli ekan.

Qaldirg'och gulga uchib kelganini ko'rib elf qattiq qo'rqib ketibdi. Chunki u mittigina bo'lib, qaldirg'och esa juda haybatli ekan!

Biroq qaldirg'och Dyuymchaxonni gulga o'tqazib qo'yib, o'zi uchib ketganini ko'rgach, u nihoyatda quvonib ketibdi! U hali hech qachon o'zi tengi bunday go'zal qizchani ko'rmagan ekan. U ta'zim qilganicha qizaloqning ismini so'rabdi.

– Ismim Dyuymchaxon! – deb javob beribdi qizaloq.

– Azizam Dyuymchaxon, – debdi elf, – sen menga turmushga chiqishga, gullar qirolichasi bo'lishga rozimisan?

Dyuymchaxon bu xushbichim elfga nazar tashlabdi. Oh, bu yigitcha qari baqaning ahmoq, irkit o'g'liga yoki baxmal po'stinli ko'rsichqonga sirayam o'xshamas ekan! Va u darhol rozi bo'libdi.

Shunda har bir guldari bir-birini quvalab elflar uchib kelishibdi. Ular Dyuymchaxonni qurshab olib, har xil sovg'alar hadya etishibdi.

Bu sovg'alar ichida xuddi ninachinikiga o'xshash bir juft yengilgina harir qanot unga nihoyatda yoqib qolibdi. Uni Dyuymchaxonning yelkasiga taqib qo'yishibdi va endilikda

u ham guldan gulga uchib boradigan bo'libdi. Ana xursandchilig-u mana xursandchilik!

– Endi seni Dyuymchaxon deb atashmaydi. Biz elflarning ismlarimiz boshqacha, – debdi Dyuymchaxonga qirol. – Biz seni endi Mayya deb ataymiz!

Shunda gul bargidek yengil va ravshan barcha elflar gullar uzra davra olib o'yinga tushib ketishibdi.

Qaldirg'och esa tepada, o'z uyasida o'tirib olib, bilganicha qo'shiq kuylay boshlabdi.

Butun iliqqina qish bo'yi elflar u aytgan qo'shiqlar ohangida o'yinga tushishibdi. Sovuq o'lkalarga bahor kelganida esa qaldirg'och o'z vataniga qaytish tadorigini ko'ra boshlabdi.

– Xayr, xayr! – deya vijirlabdi u jajji o'rtog'iga va dengizlar, tog'-u o'rmonlar osha Daniyaga uchib ketibdi.

U yerda ajoyib ertaklar so'zlay oladigan hir kishi bo'lib, derazasining ustida qaldirg'ochning mo'jazgina uyasi bor ekan. Qaldirg'och u kishiga Dyuymchaxon haqida hikoya qilib beribdi, biz esa bu voqealarni ana o'sha kishidan bilib oldik.

OLE-LUK-OYE



unyoda hech kim Ole-Luk-oyechalik ko'p ertak bilmaydi. U haqiqiy ertak ustasi!

Kechqurun bolalar stol atrofida yoki o'z o'rindiqlarida tinchgina o'tirganlarida Ole-Luk-oye paydo bo'ladi. U **faqatgina** paypoqda zina-poyalardan tovush chiqarmay ko'tariladi; so'ng sekingina eshikni ochadi-da, bolakaylarning ko'zlariga chuchuk sut purkaydi. U mittigina purkagich ko'tarib olgan bo'lib, sut ana o'shandan ingichka bo'lib tizillab otilib chiqadi. Shunda bolakaylarning qovoqlari osilib, ular Ole-Luk-oyega qaray olishmaydi, u esa ortdan pusib kelib, bolalarning ensasiga sekingina puflashga tushadi. Puflagan sari bolalarning boshlari og'irlasha boshlaydi. Lekin og'riq sezilmaydi, chunki Ole-Luk-oyening yomon niyati yo'q-da, axir; u faqat bolalarni tinchitmoqchi bo'ladi, bolalar esa faqat to'shakka yotqizganingdagina yaxshi bo'lib qolishadi. Ular tinchib qolishgach, Ole-Luk-oye o'z ertagini boshlaydi.

Mana, bolalar uxlab ham qolishadi. Ole-Luk-oye to'shakning bir chetiga o'tiradi; uning liboslari ham ajoyib; egniga ipak kaftan kiyib olgan bo'lib, uning qanaqa rangda ekanini aytib bo'lmaydi: Ole-Luk-oyening qaysi tomonga o'girilishiga qarab bu kaftan ham goh mo-

viy, goh yashil, goh esa qizil tovlanadi. U ikki qo'ltig'iga ikkita soyabon qistirib olgan bo'lib, bittasiga suratlar solingan, u ushbu soyabonni yaxshi bolalar ustiga ochadi, shunda tun bo'yi ularning tushiga g'aroyib ertaklar kirib chiqadi; ikkinchi soyabonni juda oddiy, sip-silliq bo'lib, uni yomon bolalar boshiga ochadi, shunda ular xuddi to'nka kabi dong qotib uxlashadi, ertalab uyg'onganlarida hech qanday tush ko'rmaganlari ma'lum bo'ladi.

Ole-Luk-oye bir hafta davomida Yalmar ismli mittigina bolanikiga borib, unga har kecha aytib bergan ertaklarini bir eshitib ko'raylik-chi! Bu butun boshli yettita ertakdan iborat, bir haftada yetti kun bor-da, axir.

Dushanba

– Mana, bo'ldi, – debdi Ole-Luk-oye Yalmarni to'shakka yotqizar ekan. – Eng avval men xonani bezab chiqishim kerak!

Shu zahotiyuq tuvakdagi barcha gullar shoxlarini devor bo'ylab shiftgacha cho'zgan kattakon daraxtlarga aylanibdi; xona ajoyib xiyobonchaga o'xshab qolibdi. Daraxtlarning shoxlari gullar bilan qoplanibdi; har bir gul go'zalligi va ifori bilan atirguldand ham o'tib tushar, agar ularning ta'mini tatib ko'rmoqchi bo'lsangiz, murabbodand ham mazaliroq; mevalari xuddi tilladek tovlanar ekan. Bu daraxtlarda tag'in zog'ora nonlar ham bo'lib, ular mayizining ko'pligidan yorilib ketgudek bo'lib turishar ekan. Mo'jizaning o'zginasi! Qo'qqis-dan Yalmarning o'quv qurollari turadigan stol

g'aladonidan oh-voh qilgan tovushlar eshitila boshlabdi.

– U yerda nima bo'lyapti o'zi?! – deya Ole-Luk-oye stolga yaqin borib, g'aladonni ochibdi.

E-ha, bu taraqqiylayotgan, g'ichirlayotgan kahrabo yozuv taxtasi ekan: unda yozilgan masalaning yechimida xato ketgan bo'lib, barcha hisoblar parchalanib ketmoqchi ekan; bo'r o'z arg'amchisida xuddi kuchukcha kabi sakrayotgan emish; u ishga yordam berishni judayam xohlarkan-u, lekin bu qo'lidan kelmas ekan. Yalmarning daftaridan shikoyat ovozlari eshitilibdi; buni tinglashning o'zi dahshat ekan! Har bir sahifada, har bir qator boshida g'aroyib bosh harflar, ularning yonida kichik harflar saf tortib turar, bu husnixat ekan; uning yonida o'zini xuddi shunday chiroyli qilib ko'rsatishga urinayotgan boshqa yozuvlar ham bor ekan. Bularni Yalmarning o'zi yozgan bo'lib, ular qalam bilan tortilgan to'p-to'g'ri chiziqli ustida qomatlarini ko'tarib turish o'rniga go'yo qoqilib ketgandek qiyshayib yotishar ekan.

– Mana bunday turish kerak! – debdi husnixat. – Mana bundoq, o'ng tomonga salgina egilib turish kerak!

– Jon-jon deb o'shanday turardik, – deb javob berishibdi Yalmarning harflari, – biroq buni uddalay olmaymiz! Biz ana shunaqa yomonmiz!

– Unda men sizlarni bolalar talqoni bilan mehmon qilaman! – debdi Ole-Luk-oye.

– Voy, yo'q, yo'q! – deb uvvos solishibdi ular va qomatlarini shundoq tiklab olishibdiki, ko'rgan ko'z quvnab ketar ekan.

– Hozir ertakning mavridi emas! – debdi Ole-Luk-oye. – Qani, mashq bajaramiz! Bir-ikki! Bir-ikki!

U Yalmarning harflarini shu darajaga olib kelibdiki, ular har qanday husnixat kabi qomatlarini tik tutgancha bardam turishar ekan. Biroq Ole-Luk-oye ketgach, Yalmar ertalab uygʻonib qarasa, bu harflar xuddi avvalgidek ayanchli holda turishar ekan.

Seshanba

Yalmar yotishi bilanoq Ole-Luk-oye oʻzining sehrli purkagichini xonadagi jihozlarga tegizib chiqar va tupdondan boshqa barcha narsalar darhol oʻzaro laqillasha boshiashar ekan; tupdon ularning bekorchi gaplaridan gʻazablanguchoa jim turar, hatto bir burchakda kamtargina boʻlib turganini, oʻziga tupurishlari uchun ruxsat berib qoʻygani xayoliga ham keltirmas ekan!

Javon tepasidagi zarhal ramkada kattakon bir surat osilib turar, unda ajoyib bir joy manzarasi: baland-baland kekso daraxtlar, oʻt-oʻlanlar, gullar va oʻrmon ortidagi gʻaroyib saroylar yonidan oqib oʻtib, olis dengizga borib quyiladigan kattakon bir daryo tasvirlangan ekan.

Ole-Luk-oye purkagichini ushbu suratga tegizgan ekan, unda chizilgan qushlar sayrab, daraxtlar shitirlay boshlabdi, osmonga bulut chiqib, hatto bu bulut soyalarining surat boʻylab sirgʻalib borishi ham yaqqol koʻrinib turibdi.

Soʻng Ole Yalmarni ramka barobari koʻtargan ekan, bolakay toʻppa-toʻgʻri baland boʻlib oʻsib yotgan oʻt-oʻlanlar ustiga oyogʻi bilan borib

tushibdi. Uning tepasida daraxt shoxlari orasidan quyosh shu'la sochib turar ekan; u suv bo'yiga chopqillab borib, qirg'oqda chayqalib turgan qayiqchaga chiqib olibdi. Qayiqcha qizil va oq bo'yoqlarga bo'yalgan bo'lib, uning yelkani xuddi kumushdek yaraqlar ekan; boshlari uzra moviy yulduzlar yog'du sochib turgan tilla tojli oltita oqqush qayiqchani daraxtlar qaroqchi va alvastilar haqida har xil voqeotlar so'zlaydigan, gullar esa ajoyib mitti elflar to'g'risidagi, shuningdek, o'zlarining kapalaklardan eshitgan hikoyatlarini aytib beradigan yam-yashil o'rmonlar bo'ylab tortib ketibdi.

Kumush va tilla tangachali g'aroyib baliqlar qayiqcha ortidan suzib borar, pastga sho'ng'ishar, dumlari bilan suvni shaloplatib urishar; qizil, havorang, katta va kichik qushlar Yalmarning ortidan ikki qator bo'lib uchib kelar; chivinlar g'ujg'on o'ynab yotar, tillaqo'ng'izlar tinimsiz vizillashar, hamma-hamma Yalmarni kuzatib borar va ularning har birida Yalmar uchun tayyor ertaklar bor ekan.

Ha, bu judayam ajoyib bir suzish bo'libdi!

O'rmonlar goh quyuglashar va qorong'ila-shar, goh esa quyosh shu'la sochib, gulga burkanib yotgan bog'larga o'xshab qolar ekan. Daryo qirg'og'i bo'ylab billur va marmar saroylar savlat to'kib turar, ayvonlardan malikalar joy olgan bo'lib, ularning barchasi Yalmarning tanishlari, o'zi bilan tez-tez birgalikda o'ynaydigan qizchalar ekan.

Ularning barchasi Yalmarga qo'l silkir, har biri o'ng qo'lida to'ng'izcha shaklidagi ajoyib

qand ushlab olgan ekan. Ularning yonidan suzib o'tayotgan Yalmar bu to'ng'izchanning bir chetidan ushlab tortar, malika esa uning ikkinchi chetidan mahkam ushiab olgan bo'lib, har qaysilari o'z ulushlarini olar, Yalmarga kattaroq bo'lak, malikaga esa kichikroq bo'lak tegar ekan. Barcha saroylardagi soatlar ustiga mitti shahzodalar chiqib olgan bo'lib, ular tilla qilich taqqan holda Yalmar bilan harbiychasiga salomlashar, uning boshiga mayiz va qalayi askarchalarni yog'dirishar, haqiqiy shahzoda degani ana shular ekan!

Yalmar o'rmonlardan, qandaydir ulkan saroylar va shaharlardan suzib o'tibdi... Uning kekxa enagasi yashaydigan, u hali chaqaloq bo'lganida enagalik qilgan va uni juda yaxshi ko'radigan shahardan ham suzib o'tibdi. Va nihoyat o'sha enagasini ko'rib qolibdi; enaga unga ta'zim qilib, qo'li bilan havo orqali o'pichlar yo'llabdi hamda o'zi to'qigan va Yalmarga jo'natgan ajoyib bir qo'shig'ini kuylabdi:

*Yashayapman, biroq xayolim senda,
Mening Yalmarginam, sevikli o'g'lim!
Shirin peshonangdan o'par edim jim,
Menga aziz yuzchang, og'izchang.
O'qishingni turardim kutib,
G'amga botdim seni tark etib...
Xudo seni asrasin, zotan,
Sen jannatning farishtasisan!*

Qushlar ham enagaga jo'r bo'lishibdi, gullar raqsga tushibdi, kekxa tollar Ole-Luk-oye xud-

di o'zlariga ertak aytib bergani kabi boshlarini tebratib qolishibdi.

Chorshanba

Qattiq yomg'ir quyib beribdi! Yalmar uning shovqinini hatto tushida ham eshitibdi; Ole-Luk-oye derazani ochgan ekan, suv derazaga-cha ko'tarilib qolganini ko'ribdi. Naq ko'lning o'zi ekan! Qarangki, shundoq uy oldida ajoyib bir kema to'xtab turgan emish.

– Kemada suzishni xohlaysanmi, Yalmar? – deb so'rabdi Ole. – Kechasi begona yurtlarni sayr etasan, ertalab esa tag'in uyingda bo'lasan!

Mana, Yalmar yakshanbalik kiyimlarini kiygancha o'zini kemada ko'ribdi. Shu zahotiyoq havo ochilib, ular ko'chalardan, cherkovlar yonidan suzib ketishibdi. Chor atrof kattakon yaxlit ko'l ekan. Oxiri ular shu qadar uzoqqa suzib ketishibdiki, quruqlik butunlay ko'zdan g'oyib bo'libdi. Osmonda laylaklar galasi paydo bo'libdi; ular ham bir-birlarining ortlaridan arg'amchi kabi cho'zilib, begona issiq o'lkalarga uchib ketishayotgan ekan. Ular juda ko'p kunlardan beri yo'lda bo'lib, oralaridan bitta laylak shu qadar toliqibdiki, hatto qanot qoqishga ham majoli qolmabdi. U hammadan orqada uchib borar ekan, so'ng qatordan ortda qolib, qanotlari shalpaygancha tobora pastlay boshlabdi, bir-ikki qanot qoqib ko'rgan ekan, biroq bu harakatlari zoye ketibdi! Hademay u kemanding machtasiga to'qinib, arqonlarga urilgancha to'ppa-to'g'ri tap etib palubaga qulab tushibdi.

Yunga¹ uni tutib olib, tovuq, o'rdak va kurkalari yashaydigan katakka solib qo'yibdi. Sho'rlik laylak atrofga jovdirab boqibdi.

– Voy, buni qara! – deyishibdi tovuqlar.

Xo'roz kurka esa hurpaygandan-hurpayib, laylakdan, sen kimsan o'zi, deb so'rabdi; o'rdaklar ortga tisarilib, bir-birlarini turtkilashgancha g'aqillab yuborishibdi.

Va laylak ularga jazirama Afrika haqida, ehromlar, sahroda yovvoyi otlar kabi tez yuguradigan tuyaqushlar to'g'risida so'zlab beribdi, ammo o'rdaklar hech nimaga tushunmay, tag'in bir-birlarini turtgancha:

– U g'irt ahmoq ekan-ku, to'g'rimi? – deyishibdi.

– Albatta ahmoq-da! – deya asabiy holda g'o'ldirab qo'yibdi xo'roz kurka. Laylak jim qolgancha o'z Afrikasi haqida o'ylab ketibdi.

– Oyoqlaringiz bunchayam g'aroyib, bunchayam nozik bo'lmasa! – debdi xo'roz kurka. – Bir arshini² qancha turadi?

– G'aq! G'aq! G'aq! – deya g'aqillashibdi har narsaga kulaveradigan o'rdaklar, lekin laylak o'zini eshitmaganga olibdi.

– Siz ham bizga qo'shilib kulsangiz bo'larmidi! – debdi xo'roz kurka. – Juda qiziq gap bo'ldi! Yoki biz bu kishini kamsitib qo'ydikmi? Ko'ngillari judayam nozik, shekilli! Na iloj, o'zimiz bir-birimizni xursand qilamiz-da endi!

Va tovuqlar qaqillashibdi, o'rdaklar g'aqillashibdi, xullas, dimog'lari juda chog' bo'libdi.

¹ Yunga – kemada shogird bola yoki kichik matros.

² Arshin – 0,71 metrga teng uzunlik o'lchovi.

Biroq Yalmar kelib katakning eshikchasini ochibdi-da, laylakka qarab imlagan ekan, laylak bir sakrab uning yoniga, palubaga chiqib olibdi; endi bermalol nafas olsa bo'lar ekan. Va u xuddi Yalmarga minnatdorchilik bildirgandek bir egilibdi-da, keng qanotlarini yozib issiq o'lkalarga uchib ketibdi. Tovuqlar esa qaqillashibdi, o'rdaklar g'aqillashibdi, xo'roz kurka shu qadar hurpayibdiki, toji qip-qizarib ketibdi.

– Ertaga sizning go'shtingizdan sho'rva pishirishadi! – debdi Yalmar va shu zahoti tag'in o'zining kichkinagina karavotida uyg'onib ketibdi.

Tunda Ole-Luk-oye bilan ana shunaqangi g'aroyib sayohat qilishibdi.

Payshanba

– Senga bir gap aytaymi? – debdi Ole-Luk-oye. – Faqat qo'rqib ketmagin! Hozir men senga bir sichqonchani ko'rsataman!

Darhaqiqat, uning qo'lida tuppa-tuzuk bir sichqoncha turgan emish.

– U seni to'yga aytgani kelibdi. Bu kecha ikkita sichqoncha nikohdan o'tishmoqchi. Ular onangning qaznog'idagi pol ostida yashashadi. Aytishlaricha, shinamgina bir joy emish.

– Men axir torgina teshikdan qanday qilib pol ostiga tusha olaman? – deb so'rabdi Yalmar.

– Buni menga qo'yaver! – debdi Ole-Luk-oye. – Men seni mittigina qilib qo'yaman.

Shu zahoti u bolakayga o'zining sehrli purkagichini tegizgan ekan, Yalmar kichraya-kichraya xuddi jimjiloqdek mittigina bo'lib qolibdi.

– Endi qalayi askarchaning mundirini olib turishga to'g'ri keladi. Menimcha, bu libos sen-

ga juda yarashib tushadi: mundir kiyib meh-monga borishga nima yetsin!

– Ha, bo‘pti, – deya rozi bo‘libdi Yalmar va qalayi askarchaning ajoyib mundirini kiyib olibdi.

– Volidangizning angishvonalariga chiqib o‘tira olasizmi? – debdi Yalmarga sichqoncha.
– Men sizni to‘yga boshiab borish sharafiga muyassar bo‘lardim.

– Voy, nahotki meni deb o‘zingiz tashvish cheksangiz, janob? – debdi Yalmar, shu tariqa ular mashinaga o‘tirib to‘yga jo‘nashibdi.

Poldagi sichqonlar kemirib ochgan teshikdan o‘tishib, avvaliga faqatgina angishvona sig‘adigan uzundan-uzun bir yo‘lakka tushishibdi. Bu yo‘lakni yoritib qo‘yishgan ekan.

– Bu yerdan juda ajoyib bir hid taralyapti, to‘g‘rimi? – deb so‘rabdi yo‘lboshchi sichqon. – Butun yo‘lakka moy surtib chiqilgan! Bundan ham yaxshisi bormi?

Nihoyat, to‘y bo‘lib o‘tadigan zalga ham yetib borishibdi. O‘ng tomonda faqat o‘zaro pichirlashgan va kulishgan sichqon xonimlar, so‘l tomonda esa oldingi oyoqlari bilan mo‘ylovlarini burab-burab qo‘yayotgan sichqon janoblar turishgan ekan. Qoq o‘rtadan, pishloq bo‘lagining kavagidan kelin-kuyovlar joy olgan bo‘lib, hammaning ko‘z oldida muttasil o‘pishishar ekan. Nima qipti, ular unashtirilgan bo‘lib, endilikda nikohdan o‘tishayotgan ekan-da.

Mehmon ustiga mehmon kelaveribdi; sichqonlar bir-birlarini bosib o‘ldirib qo‘yishlariga bir bahya qolibdi; mana, kelin-kuyovlar shundoq eshikning bo‘sasiga taqalib qolishib-

di, demakki, endi hech kim kirolmas ham, chiqolmas ham ekan. Ushbu zalga ham xuddi yo'lakdagi kabi moy surtib chiqilgan, boshqa noz-ne'mat yo'q ekan; mehmonlarga ovqatdan keyin tortiladigan meva o'rniga no'xat donasini olib kelishibdi, kelin-kuyovlardan birining qarindoshi bu no'xat donasiga ularning ismlarini, ya'niki faqatgina bosh harflarini kemirib yozgan ekan. G'aroyibligini ko'ring!

Barcha sichqonlar to'y ajoyib bo'lganini, o'z vaqtlarini judayam zo'r o'tkazganlarini aytishibdi.

Yalmar uyiga qaytibdi. Unga kibor bir davrada o'tirish nasib etgan ekan; biroq endi uning qalayi askarchanikiga ovora bo'lib borishiga va mundirni unga kiydirib qo'yishiga to'g'ri kelibdi.

Juma

– Ishonging kelmaydi, kekxa kishilar shunchalik ko'pki, ularning qo'rquvi nuqul meni o'ziga jalb etadi! – debdi Ole-Luk-oye. – Ayniqsa, ahmoqona ish qilib qo'rganlar meni hol-jonimga qo'yishmaydi. «Mehribonim, azizim Ole, – deyishadi menga ular, – biz tunlari kiprik qoqmay chiqamiz, butun kechani uxlay olmay o'tkazamiz, nuqul atrofmizni qilgan bema'ni ishiamiz qurshab oladi. Ular xuddi irkit yovuz jodugarlar kabi to'shaklarimiz chekkasiga kelib o'tirib olishadi va bizga qaynoq suv sepishadi. Agar sen kelib ularni quvib yuborsang, biz jon-jon deb senga buning haqini to'lardik, Ole! – tag'in xo'rsingancha qo'shib qo'yishadi: – Tuning xayrli bo'lsin, Ole! Pullar deraza tokchasi-da, Ole!» Lekin men hech kimnikiga pul uchun bormayman.

– Bu kecha biz endi nima qilamiz? – deb soʻrabdi Yalmar.

– Tagʻin toʻyga borishni xohlaysanmi? Faqat kechagidaqasiga emas. Singlingning oʻgʻil bolacha kiyingan, German degan katta qoʻgʻirchoqʻi Berta degan qoʻgʻirchoqqa uylanmoqchi; buning ustiga bugun u qoʻgʻirchoqlarning tugʻilgan kunlari boʻlgani uchun koʻpgina sovgʻalar tayyorlab qoʻyilgan.

– Bilaman, bilaman! – debdi Yalmar. – Qoʻgʻirchoqlarga yangi libos kerak boʻlib qolsa, singlim darhol ularning tugʻilgan kunlarini nishonlaydi yoki toʻylarini oʻtkazadi. Bunaqasi yuz marta lab boʻlgan.

– Toʻgʻri, bu kecha esa bir yuz birinchisi, yaʼni oxirgisi boʻladi. Shuning uchun ham odatdagidan boshqacha bir tayyorgarlik koʻrish kerak. Mana bunga qara!

Yalmar stolga nazar tashlabdi. Uning ustida kartondan yasalgan bir uycha boʻlib, uning derazalari charaqlab turar, barcha qalayi askarchalar miltiq tutgancha qorovullik qilib turishgan ekan. Kuyov va kelin pol ustida stolning oyogʻi tomon engashgancha oʻyga choʻmib oʻtirishgan emish; oʻyga choʻmganlaricha bor ekan-da, axir! Buvining qora tizligini kiyib olgan Ole-Luk-oye ularni nikohlab qoʻyibdi; xonadagi barcha mebellar qalam yozgan harbiy ohangdagi maroqli bir qoʻshiqni kuylashibdi:

Bizning qoʻshiq shamolsimon

Uchsin kelin-kuyov tomon.

Ikkala yosh magʻrur, puxta –

*Temir chiviq, bir to'p paxta,
Yonlarida yumshoq kuchuk!
Ura! Ura! – deya qo'shiq
Aytamiz biz ular uchun.*

So'ngra yosh kelin-kuyovlar sovg'alarni qabul qilishibdi, biroq barcha taomlarni rad etishibdi, chunki ular o'z muhabbatlari bilan to'q ekanlar-da.

– Xo'sh, endi dalabog'ga boramizmi yoki chet elga jo'naymizmi? – deb so'rabdi kuyov.

Maslahatga qaldirg'ochni va to'rt marta kurk bo'lgan kekxa tovuqni chaqirishibdi. Qaldirg'och kattakon uzum boshlari pishib yotadigan, havolari juda yumshoq, tog'lari bu yerlarda tasavvur ham qilib bo'lmaydigan darajada rang-barang issiq o'lkalar haqida hikoya qilib beribdi.

– Biroq u yerlarda bizning ko'm-ko'k karamimiz yo'q! – debdi tovuq. – Bir gal men yozni o'z jo'jalarim bilan qishloqda o'tkazgan edim; u yerda uyum-uyum qumlar borki, istaganingcha titkilashing va ag'anashing mumkin. Bundan tashqari, biz uchun karam polizining eshigi hamisha ochiq edi. Oh, qanaqangi ko'm-ko'k karamlar edi ular! Men bundan go'zalroq joyni bilmayman!

– Bir bosh karam ikkinchisiga xuddi ikki tomchi suvdek o'xshab ketadi-ku, axir! – debdi qaldirg'och. – Shuning uchun ham bu yerning havosi tez-tez buzilib turadi.

– Nima qipti, bunga ko'nikish mumkin, – debdi tovuq.

– Lekin bu yer juda sovuq. Darhol muzlab qolasan.

– Karamga shunisi yaxshi, – debdi tovuq. – Bu yog‘ini olsang, bizda ham **iliq** kunlar bo‘ladi! Bundan ikki yil avval bizda yoz rosa besh hafta davom etgan edi. Qanaqa jazirama bo‘lgan edi o‘shanda! Hamma dimiqib ketgan edi. Darvoqe, bizda sizlarnikidaqa zaharli jonzotlar yo‘q. Qaroqchilar ham yo‘q. Bizning mamlakatimizni yer yuzidagi eng yaxshi mamlakat deb bilmagan odam pandavaqi bo‘lishi kerak. Bunday pandavaqi bu mamlakatda yashashga loyiq emas! – shu joyga kelganda tovuq yig‘lab yuboribdi. – Men ham sayohat qilib ko‘rganman. Kichkina bochkada butun boshli o‘n ikki mil masofani bosib o‘tganman. Sayohatning hech qiziq joyi yo‘q.

– Ha, tovuqning aqli butun, – debdi qo‘g‘irchoq Berta. – Tog‘larda tentirab yurish menga ham yoqmaydi, bir ko‘tarilasan, bir tushasan, bir ko‘tarilasan, bir tushasan! Yo‘q, biz qumlar uyum-uyum bo‘lib yotgan qishloqdagi dalabog‘ga boramiz, karamzor polizlarda sayr etamiz.

Oxiri shu qarorga kelishibdi.

Shanba

– Bugun endi nimani aytib berasan? – deb so‘rabdi Yalmar Ole-Luk-oye uni to‘shakka yotqizishi bilanoq.

– Bugun vaqtim yo‘q, – deb javob beribdi Ole va bolakayning boshi ustiga o‘zining chiroyli soyabonini ocbibdi. – Manavi xitoyliklarni bir tomosha qil.

Soyabon moviy daraxtlarning rasmi, ustida pakana xitoyliklar bosh tebratib turgan ko‘p-

riklarning surati solingan kattakon xitoy lagana o'xshab ketar ekan.

– Bugun butun dunyo ertangi kunning bashang liboslarini tayyorlab qo'yadi! – deya davom etibdi Ole. – Ertaga axir muqaddas kun, yakshanba. Men qo'ng'iroqxonaga borib, cherkov ajinalari qo'ng'iroqlarni qanday tozalaganlarini tekshirib ko'rishim kerak, yo'qsa ertaga bu qo'ng'iroqlar yaxshi jaranglamasligi mumkin; so'ngra dalaga borib, shamol o't-o'lan va yaproqlarning changini artgan-artmaganini ko'rishim lozim. Ishning eng og'iri hali oldinda: osmondagi barcha yulduzchalarni terib olib, bitta-bitta artib chiqishim kerak. Men ularni peshbandimga yig'ib olaman, lekin avval joylarini chalkashtirib yubormaslik uchun har bitta yulduzchani va u turadigan teshikni raqamlab chiqishim lozim, yo'qsa ular yaxshi joylashmaydi va osmonda bir-birining ortidan uchib yuradi!

– Quloq soling, janob Ole-Luk-oye! – deb qolibdi qo'qqisdan devorga osib qo'yilgan ko'hna portret. – Men Yalmarning bobokalonini bo'la-man va siz unga ertaklar aytib berishingizdan juda minnatdorman: biroq siz uning tushunchasini buzmasligingiz lozim. Yulduzlarni osmondan terib olish va ularni tozalash mumkin emas. Yulduzlar ham bizning yerimiz kabi bir yoritqich hisoblanadi va shunisi bilan yaxshi.

– Rahmat senga, bobokalon! – deb javob beribdi Ole-Luk-oye. – Rahmat! Sen oilaning boshi, «keksa donishmand»san, biroq, harqalay, mening yoshim senikidan kattaroq! Men ko'hna majusiymen, rimliklar va yunonlar meni

tushlar ma'budi deb atashadi. Men har qanday aslzoda xonadonga kirib borganman va kirave-raman, kattalar bilan ham, kichiklar bilan ham qanday muomala qilishni yaxshi bilaman. Endi esa sening o'zing ertak aytib berishing mumkin.

Shunday deya Ole-Luk-oye soyabonini qo'l-tig'iga qisgancha chiqib ketibdi.

– O'z fikringni aytishing ham mumkin emas-mi? – deya to'ng'illabdi ko'hna portret.

Voqea shu joyga yetganda Yalmar uxlab qolibdi.

Yakshanba

– Xayrli kech! – debdi Ole-Luk-oye.

Yalmar unga bosh silkibdi-da, sakrab turib, tag'in suhbatga aralashmasin deya bobokalonining portretini devorga qaratib qo'yibdi.

– Endi esa sen menga bir qo'zoqda tug'ilgan besh yashil no'xat haqida, tovuqning oyog'ini parvarish qilgan xo'rozning oyog'i to'g'risida, o'zini tikuv ignasi deb tasavvur qilgan chok ignasi haqida ertaklar aytib ber.

– Yaxshi narsa oz bo'ladi! – debdi Ole-Luk-oye. – Yaxshisi, senga bitta narsa ko'rsataman. Men senga o'z akamni ko'rsataman, uni ham Ole-Luk-oye deb atashadi, lekin u har bir kishining umrida faqat bir marta paydo bo'ladi. U kelgach, odamlarni olib o'zining otiga o'tqazadi va unga ertaklar aytib beradi. U faqatgina ikkita ertakni biladi, bittasi shu qadar ajoyibki, kishilar uni tasavvur ham qilisholmaydi, ikkinchisi shu qadar dahshatliki... yo'q, hatto buni aytishga ham til bormaydi!

Shu tariqa Ole-Luk-oye Yalmarni ko'tarib deraza oldiga olib boribdi va debdi:

– Hozir sen mening akamni, boshqa bir Ole-Luk-oyeni ko'rasan. Shuningdek, uni odamlar O'lim deb ham atashadi. Ko'ryapsanmi, u rasmlarda skelet shaklida tasvirlansa-da, umuman qo'rqinchli joyi yo'q. Uning kaftani otliq askarlarning mundiri kabi kumush iplar bilan tikilgan; yelkasida qora baxmal chakmoni hilpirab turadi. Otda qanday yelib borishiga bir qara.

Va Yalmar o'z tulporiga katta va kichiklarni mindirib, jon-jahdi bilan ot choptirib borayotgan boshqa Ole-Luk-oyeni ko'ribdi. U birovlarini o'z oldiga, boshqalarni ortiga mingashtirib olgan, biroq hamisha avval:

– Sening xulqing uchun olgan baholaring qanday? – deb so'rar ekan.

– Yaxshi! – deb javob berar ekan hamma.

– Ko'rsat-chi, – der ekan u.

Ko'rsatishga to'g'ri kelarkan; kimning baholari a'lo yoki yaxshi bo'lsa, o'sha kishini o'z oldiga o'tqazar va unga ajoyib ertaklar aytib berar, kimning baholari esa o'rta yoki yomon bo'lsa, ularni o'z ortiga o'tqazar va ular dahshatli ertaklarni eshitishlariga to'g'ri kelar ekan. Bunday ertak eshitgan kishilar dahshatdan qaltirab ketar, yig'lar, otdan tushib qolishni istar, lekin tusha olmas, chunki ular egarga qattiq yopishib qolgan ekanlar.

– Axir, O'lim ajoyib Ole-Luk-oye ekan-ku, – debdi Yalmar. – Men undan sirayam qo'rqmayman!

– Qoʻrqishning hojati ham yoʻq! – debdi Ole.
– Faqat ehtiyot boʻl, sening oʻz xulqing uchun
olgan baholaring doimo yaxshi boʻlishi kerak!

– Ha, mana bu ibratli gap boʻldi! – deb
toʻngʻillabdi bobokalonning portreti. – Demak,
baribir, baʼzida oʻz fikringni aytishingning zara-
ri yoʻq.

U judayam mamnun ekan.

Ole-Luk-oye haqidagi bor gaplar mana shun-
dan iborat! Kechqurun esa uning oʻzi senga
yana biror narsa aytib bera qolsin.

Usmon Qoʻchqor tarjimai

OSHIQ BULUT

arvish sarv daraxtining ostiga kelib o'tiribdi. Belbog'idan qamish nayini olib chala boshlabdi. Nayning teshikchalaridan go'yo avval yashirib qo'yilgan-u, darvish ularni puflab chiqargandek birin-ketin daraxtlar, tog'lar, daryo va yo'llar chiqa boshlabdi. Ular yer sharining bir chekkasiga daraxtlar ham, tog'lar ham, daryo va yo'llar ham bo'lmagan bir sahroga borib tushishibdi. Sahroda tog'lar qad ko'taribdi, daraxtlar o'sa boshlabdi. Daryolar oqib, yo'llar paydo bo'libdi va bu yerni Nay mamlakati deb atabdilar.

Darvish biroz nafasini rostlagach, yana chala boshlabdi. Nayning teshikchasidan qora soqolli, qushburun va bejo ko'zli bir kishi chiqibdi. Havoda bir necha marta o'mbaloq oshgach, darvishning yoniga o'tiribdi. Bu kishining ismi Sayfi, Qora Sayfi ekan. U atrofga olazarak ko'z yugurtirgach, darvishning cho'ntagiga qo'lini solib, hamyonini olibdi-da, qochib qolibdi. Darvish yerdan tosh olib, Qora Sayfini mo'ljallab otibdi. Tosh Qora Sayfiga shunday kuch bilan tegibdiki, u rezina to'pday tepaga sakrabdi. Shu sakraganicha yuqoriga ko'tarilib, uchib ketibdi. U uchib, uchib, oxiri Yer sharining oxirida joylashgan Nay mamlakatidagi baland bir tog'ning

tepasiga kelib tushibdi. To'g'rirog'i, tog'ning tepasida turgan kumush jilovli kul rang otning kumush bezakli egariga borib tushibdi. Egarga yaxshilab o'tirib olgach, Qora Sayfi atrofni ko'zdan kechirib chiqibdi.

Tog'dan vodiya tomon bir otar qo'y tushib kelarkan. Bu podalar Qora Sayfiga tegishli ekan. Tog' o'tloqlarida arslon yolli otlar o'tlab yurarkan. Bu otlar ham uniki ekan. Pastdagi yo'ldan har xil shirinliklar, qahva, fil suyagi va shoyi gazlamalar ortigan tuyalar karvoni o'tib borarkan. Bu karvonlar ham Qora Sayfiniki ekan. Vodiya ko'z ilg'aydigan joygacha ekilgan hamma bug'doy, arpa, paxta dalalari ham Qora Sayfiniki ekan. Qisqasini aytganda, Nay mamlakatining eng boy va badavlat odami Qora Sayfi ekan.

Qora Sayfi kul rang otda o'tirib olib, tog' tepesidan mamlakatini ko'zdan kechirarkan. Uning bejo ko'zlari ochko'zlikdan yaltirar, tikanga o'xshash qattiq qora soqoli titrarkan. Qora Sayfini shu yerda qoldirib, darvishga qaytamiz.

Darvish chalayotgan nayning teshikchasidan bir qiz uchib chiqibdi va sekingina darvishning yoniga tushibdi. Bu dunyodagi eng go'zal qiz ekan u. Uning oltin rang sochi to'pig'igacha tushar, yuzi esa oyga o'xsharkan. Uzun-uzun, qayrilma qora kipriklari qizning qo'y ko'zlarini yashirib turarkan. Qiz endigina o'n beshga kirgan bo'lib, ismi Oysha ekan.

Oysha Darvish otaning qo'llarini o'pibdi va unga ta'zim qilib, shunday debdi:

– Siz uchun hamma narsani qilishga tayyorman, buyuravering, ota. Agar qorningiz och bo'lsa, tarxon¹ tayyorlab beraman, agar uyqungiz kelayotgan bo'lsa, joy to'shab beraman.

Darvish jilmayib:

– Rahmat senga, Oysha, men och ham emasman, uyqum ham kelgani yo'q, – debdi.

Shunday deb darvish Oyshaning yelkasini silabdi. Oysha momiq parday havoga ko'tarilib, chiroyli chayqalib uchib ketibdi. Uchaveribdi, uchaveribdi, oxiri Yer sharining oxirida gullayotgan olma daraxtining shoxiga qo'nibdi.

Agar siz mendan, ulardan qaysi biri go'zalroq – Oyshami yoki olma gullarimi, deb so'rasangiz, menimcha, Oysha go'zalroq, deb javob berardim.

Oysha daraxt shoxiga yaxshilab o'rnashib olgach, olma gullari orasidan atrofni ko'zdan kechirib chiqibdi.

Olma daraxti bog'da o'sgan bo'lib, bu bog' Oyshaga tegishli ekan. Bog'da qizil, sariq, oq, nafarmon atirgullar, turli xil lola va qalampir gullar ochilib yotgan ekan.

Oysha olma daraxtidan tushib, chelakni olibdi-da, gullarni sug'ora boshlabdi. Qora Sayfi esa otini choptirib kelibdi va otidan tushmasdan eshik ortidan qichqiribdi:

– Oysha, ey Oysha!

Oysha chelakni yerga qo'yibdi.

– Yana keldingizmi? – so'rabdi qiz Qora Sayfidan.

¹ Tarxon – un va qatiqdan tayyorlanadigan taom.

– Ha, yana keldim. Sen bu bog‘ni menga sotmaguningcha har kuni kelaveraman, – deb qo‘pol javob beribdi Qora Sayfi.

Oysha bulbulnikidan ham yoqimli ovoz bilan:

– Men bog‘imni sizga ham, boshqa birovga ham sotmayman. Men bu haqda sizga bir necha marta gapirdim, – debdi.

Qora Sayfi qamchisining kumush dastasini devorga qarsillatib urib qichqiribdi:

– Bu mamlakatda, sening bog‘ingdan tashqari, hamma yer menga qarashli. Qurib ketgur bu bog‘ menga qarashli bo‘lgan mulk o‘rtasida xuddi qora tikandek qaqqayib turibdi. Nima qilsam ham bu bog‘ni ildiz-pildizi bilan qo‘porib tashlayman. Uni quritaman.

Qora Sayfi so‘zlarini tugatar-tugatmas, ostidagi oti to‘satdan kishnab yuboribdi va orqa oyoqlarida tik turib Qora Sayfini yerga yiqitibdi.

Siz nima uchun bunday voqea sodir bo‘ldi dersiz. Hozir tushuntiraman. Qora Sayfi devorning narigi yog‘ida turib Oysha bilan gaplashayotganda, yo‘ldan bir quyon o‘tib qolibdi. Quyon otning orqa chap oyog‘ini shunday qattiq tishlab olibdiki, jonivor og‘riqning zo‘ridan-kishnab yuboribdi va egasini ustidan yiqitibdi.

Xuddi shu vaqtning o‘zida yana bir hodisa yuz beribdiki, buni ham albatta aytishim kerak.

Qora Sayfi chang yo‘lda yotib olib og‘riqdan baqirayotgan, quyon esa qo‘rqqanidan qochib qolgan bir paytda Oyshaning bog‘idan oq kaptar uchib chiqibdi.

Oq kaptar Qora Sayfining ikkala qoshi o‘rtasini aniq mo‘ljalga olib, yuzini iflos qilibdi.

Qora Sayfining shunday jahli chiqib ketibdiki, og'riqmi ham unutib, birpasda sakrab oyoqqa turibdi. U kamonga o'qni joylab tarang tortib, oq kaptarni mo'ljalga olibdi. Buni ko'rgan Oysha qichqirib yuboribdi va oq kaptar «pirr...» etib uchib ketibdi.

Shunda Qora Sayfi otga minib qushni quvib ketibdi. Qora Sayfi kaptarni quva tursin, biz esa sizlar bilan darvishning yoniga qaytamiz.

Sarv daraxtiga suyanib olgan darvish nayini chalaveribdi. Uning teshikchasidan bu safar bir bulut uchib chiqibdi. Darvish nayini yana bir puflagan ekan, bulut balandlikka ko'tarilibdi va o'tloqda o'tlayotgan qo'zichoqdek sekin-sekin Yer sharining oxiridagi Nay mamlakatiga qarab jo'nabdi.

Bulut Nay mamlakatining chegarasini kesib o'tgach, pastda quyonni ko'rib qolibdi. Quyon daladagi boshhoqlar orasida o'tirib olib, mo'ylovini tozalayotgan ekan. Bu o'sha Qora Sayfi otining oyog'ini tishiab olgan quyonning xuddi o'zi ekan. Quyon boshini ko'tarib, bulutni ko'ribdi. Quyonning mo'ylov tozalayotgani bulutga yoqib, u o'zini to'xtata olmasdan xaxolab kulib yuboribdi.

Bulut nimaga kulayotganini quyon tushunmabdi. Axir quyon kulayotgan bulutni birinchi marta ko'rishi ekan-da, shuning uchun hayron qolibdi va bu unga ham yoqibdi. Ammo, biz bu haqda boshqa to'xtalib o'tirmaymiz.

Bulut bilan quyon bir-birlariga qarab turishganda, Qora Sayfi bir tepalikka yetib kelib, otini to'xtatibdi va osmonda yuzini iflos qilgan oq kaptarni axtara boshlabdi.

Nihoyat, u kaptarni ko'ribdi. Shu payt bulut pastga qarabdi va qoshlarini chimiribdi. Qora Sayfi yoyni tarang tortib, kaptarni mo'ljalga olayotganini sezib qolgan bulut unga tashianib, o'rab olibdi. Qora Sayfi to'satdan tepadan tushgan tuman orasida qolib, o'zini yo'qotib qo'yibdi. Uning ko'zlari hech narsani ko'rmay qolibdi. Aksa urib yo'tala boshiabdi. Kaptar bo'lsa, uni kutib turmay, uchib ketibdi. Bulut kaptarning qutulganini ko'rib xursand bo'libdi. Qora Sayfini o'z holiga qoldirib, bir yerga to'plangach, osmonga ko'tarilibdi va yo'lida davom etibdi.

Bulut tog'lar va vodiylar ustidan suzib o'tibdi. Birdaniga u pastda Oyshaning bog'ini ko'rib qolibdi.

Oysha lolaqizg'aldoqlar orasida yotganicha osmonni tomosha qilayotgan ekan. Qizning o'ng tomonida quyon, chap yelkasida esa Qora Sayfidan qutulib qochgan o'sha kaptar o'tirgan emish. Oyshaning quralay ko'zlari quyosh nuri-da porlar, oltin rang sochiari esa tovlanarmish. Bir qo'li bilan u quyonning quloqlarini qashir, ikkinchi qo'li bilan kaptarni silarkan.

Shu payt, bog' ustida bulut paydo bo'libdi. Bog'ga soya tushibdi. Ammo, soya uzoq davom etmabdi va tezda hamma yoq yorishib ketibdi. Hozirgina bog'ning chap tomonidan o'ng tarafga o'tgan soya, endi o'ng tomondan chap tomonga o'tibdi.

Shuni sizlarga aytish kerakki, bulut chap tomondan o'ng tomonga o'tayotganda orqasiga qarabdi va bog'dagi Oyshani ko'rib qolibdi. Shunda u tezlik bilan orqasiga qaytib, bog' us-

tida turib olibdi. Oysha ham bulutni ko'ribdi. Quyon ham, kaptar ham bulutni ko'rishibdi. Kaptar bulutni tanib, qanotlarini yengilgina sil-kitib qo'yibdi.

Bulut bo'lsa quyonni ham, kaptarni ham ko'rmabdi. Chunki Oyshaga qaragan har qanday kishi u insonmi, hayvonmi yoki bulutmi, baribir, Oyshadan boshqa hech kimni sezmas, ko'rmas ekan. Bulut «oh» debdi va ichida yana bir marta «oh» tortibdi. Oysha barmoqlarining uchini o'pib bulutga yuboribdi.

Oyshaning o'pichi bulutga yetib borgach, avvaliga juda uyalibdi. Keyin o'ziga kelib, ulkan atirgulga aylanibdi. Osmon shu vaqtgacha bunday ulkan oq atirgulni ko'rmagan ekan. Oysha ko'k atlasida ochilgan bu go'zal gulni tomosha qilib turganda, bulut yana qimirlabdi va cho'zilibdi. So'ngra bir yerga to'planib, yurakka aylanibdi. Osmon paydo bo'lganidan beri uning keng ko'kragida hozirgacha bunday oshiq yurak urmagan ekan. Oysha jilmayibdi. Bulut tag'in cho'zilibdi va yana bir yerga to'planib, o'zining avvalgi – bulut holatiga qaytibdi.

Qisqasini aytganda, bulut shu kundan boshiab Oyshani tark etmabdi. Oysha qayoqqa borsa, bulut ham ketidan borarmish. Oysha chap yelkasida kaptar, o'ng tomonida quyon bilan bog'dagi daraxtlarning tagini chopsa, tepasida bulut uni qo'riqlarmish. Oysha peshonasidagi terni artib, kafti bilan ko'zini quyosh nuridan yashirsa, bulut quyoshni to'sib, bog' ustiga soya tashlarkan. Oysha: «Soyada hordiq chiqarish yaxshi, ammo gullarga quyosh nuri

kerak-da», deb o'ylashi bilanoq, bulut darrov Xitoy soyaboni ko'rinishiga aylanar, soya faqat Oyshaga tushar, butun bog' esa avvalgidek quyosh nurlaridan bahramand bo'laverarkan.

Bir kuni kechqurun Oysha kichkinagina uyi oldidagi hovuzga tikilib, yulduzlar, o'roq oy va bulutning suvdagi aksini tomosha qilayotgan ekan. Uning chap yelkasida kaptar mudrar, tizzasida quyon o'tirganmish. Hovuzdagi suv oynadek tiniq va zilol bo'lishiga qaramasdan, undagi yulduzlar, oynning aksi xira emish. Oysha osmonga qarab, nimani ko'ribdi deng. Osmondagi yulduzlar va oy ham xira emish. «Ular-ga nima bo'libdi o'zi? Nima uchun ular yarqiramaydi?» deb o'ylabdi Oysha.

Bulut har doimgidek darrov Oyshaning fikriga tushunibdi va osmondan pastga qarab qichqiribdi: «Ularni biroz chang bosgan. Hozir artib qo'yaman, ular yana yarqirayveradi».

Bulut ulkan lattaga aylanib, hovuzga tushibdi. So'ngra osmonga ko'tarilib, avval oyni, keyin yulduzlarni shunday yarqiratib artibdiki, oy ham, yulduzlar ham dunyoga kelib bunchalik yarqiramagan ekan.

Oysha juda xursand bo'libdi.

– Rahmat senga mening aziz bulutcham, men seni juda yaxshi ko'raman, jonginam bulutcham, – deb o'rnidan turibdi va uyiga ketibdi.

Uning uyquasi kelibdi. Bulut esa osmondan pastga tushib, qizning ostonasida o'tirib olibdi. Oysha o'rniga yotibdi. Bulut bo'lsa sozga aylanib, Oyshaning derazasiga yaqinlashib, alla ayta boshlabdi:

*Uxla yoqimtoyim, uxlay qol,
Uyqu olib keldim bog'lardan,
Shivirlagan sho'x butoqlardan
Uyqu olib keldim, uxlay qol.
Oppoqqinam, alla-yo, alla.*

*Uxla qo'ziginam, uxlay qol,
Uyqu olib keldim samodan,
Yayrab uxla tungi navodan,
Suyanchim, tog'im, uxlay qol,
Sening uchun jonginam fido.
Alla-yo, alla...¹*

Bulut Oyshaga «alla» aytayotganida, bog'ga oyoq uchida Qora Sayfi kiribdi... Uning qo'lida katta pichoq bor ekan. Qora Sayfi to'rt tomonga alang-jalang qarabdi – qora niyatli kishilar hamma vaqt shunday alanglaydilar – va bog'dagi gullarni kesa boshlabdi. Har bir atirgul, qalampirgul yerga yiqilayotib, oh tortarkan. Ular gul bo'lganliklari uchun ham juda sekin «oh» tortishar, buni o'zlaridan boshqa hech kim eshitolmas ekan.

U yerda qanday bo'lganidan qat'i nazar, biz hikoyamizni cho'zib o'tirmaymiz. Qora Sayfi bog'da o'sayotgan yolg'iz qariqiz o'simligini kesib tashlash uchun pichog'ini ko'targan ekan, u to'satdan inson tilida gapira boshlabdi:

– Menga rahm qil! Mening ham senga yordamim tegib qolar!

Qora Sayfi rahm qilganidan emas, balki biror kun qariqizning unga yordami tegib qolishini o'ylab, uni kesib tashlamabdi.

¹ Safar Barnoyev tarjimai.

Bu paytda Oysha sozga aylanib, «alla» ayta-yotgan bulutning qo'shig'ini eshitib uxlab qolibdi. Shuning uchun ham bulut yana bulutga aylanib, osmonga ko'tarilibdi. Bulut tevarak-atrofni tepadan turib ko'zdan kechirib, keyin yana Oyshani qo'riqlash uchun uning ostonasiga qaytmoqchi bo'libdi.

Osmonga ko'tarilgach, Bulut oldinga, orqaga, o'ng va so'lga qarabdi. Tog'lar va qoyalar, hayvonlar va qushlar qattiq uyquda ekanlar. Bulutning ham uyquasi kelibdi, lekin u ko'zlarini katta-katta ochib, bog'da yurgan Qora Sayfini ko'ribdi. Qora Sayfi g'azab bilan bog'dagi gullarni kesayotgan ekan.

Bulutning boshiga qon quyilgandek bo'libdi.

– Eh, senimi, ablah, – qichqiribdi bulut va tezlik bilan yonida turgan oyning uchidan ushlab olibdi.

Bulut tezlik bilan pastga tushibdi va orqadan kelib, oyning o'tkir uchini Qora Sayfining shalvoriga tiqibdi.

Qora Sayfi nima bo'lganiga tushunolmay shoshib qolibdi. Siz ham uning o'rnida bo'lganingizda shoshib qolardingiz. U orqasiga o'girilib pichoq bilan oy o'rog'ini bulutdan bo'lgan qo'lida ushlab turgan bulutga tashlanibdi. Lekin uning pichog'i xuddi shishadan qilingandek oyning o'tkir tig'iga tegishi bilanoq mayda-mayda bo'laklarga bo'linib ketibdi.

Bulut bo'lsa, oy Qora Sayfi bilan yakka-ma-yakka olishayotganda o'roqning dastasini tashlab yuboribdi va osmonga ko'tarilibdi. Bulut osmondagi yulduzlarni uzib olib, yerga – Qora Sayfining boshiga tashiayveribdi.

Yerda – oy-o‘roqning hamda osmondan yog‘ilayotgan yulduzlar hamlasiga bardosh berish osonmas. Qora Sayfi ham dumiga konserva bankasi bog‘lab qo‘yilgan itdek bog‘dan qochib qolibdi.

Kelasi kuni ertalab bog‘da ishlayotgan Oysha qariqizga duch kelibdi.

– Achchig‘ing kelmasin, mendan xafa bo‘lma, qariqiz, – debdi Oysha, – ammo mening bog‘imda sen uchun joy yo‘q. O‘z xohishing bilan ket, bo‘lmasa, seni ildiz-pildizing bilan qo‘porib tashlayman.

– O‘z xohishim bilan bu yerdan hech ham ketmayman, – javob beribdi qariqiz, – agar qo‘lingdan kelsa, yulib tashla.

Oysha ketmonchasida qariqizni ildiz-pildizi bilan qo‘porib olibdi-da, devordan otib yuboribdi. Qariqiz devor ortida ilonga aylanibdi-da, chang yo‘ldan bilanglaganicha sudralib ketibdi.

Qariqiz chang yo‘ldan sudralib ketgunicha, juda ko‘p vaqt o‘tibdi, kech kirib, qorong‘i tushibdi. Qora Sayfi yana Oyshaning bog‘i eshligiga ot choptirib kelibdi. Uning ovozi xuddi karnaydek jaranglab ketibdi.

– Oysha, men dunyoda eng boy odamman. Menga turmushga chiqqim, – debdi u.

– Siz menga emas, bog‘imga ega bo‘lmoqchisiz, – javob beribdi Oysha, – sizga teggandan ko‘ra, toshga aylanganim ming marta yaxshi.

Bu so‘zlar Qora Sayfini g‘azablantiribdi. U bog‘ga sakramoqchi bo‘lib kumush egarda tik turibdi.

Bu voqealarni tepadan kuzatib turgan Bulut birpasda qo‘rqinchli sharpaga aylanibdi va

pastga tushib, Qora Sayfiga tashlanibdi. Qora Sayfi shunchalik qo'rqib ketibdiki, o'z tilini tishlab olishiga sal qolibdi. Keyin otiga qamchi bosib qochib ketibdi.

Bulut-sharpa Qora Sayfini vodiyning oxirigacha kuzatib boribdi, so'ngra qaytib kelib, bog'ga kiribdi va paxmoq bo'ribosar itga aylanib, Oyshaning oyoqlari ostiga yotibdi.

– Rahmat senga, mening aziz bulutcham, – debdi Oysha va itni silab qo'yibdi.

Bulut cho'pon itlariga yarashmagan qiliq bo'lsa ham xursandligidan vovillab yuboribdi va dumini likillatibdi.

Oysha Bulut bilan gaplashib turganida, biz Qora Sayfi nima qilayotganiga qaytaylik. Vodiyning oxirida Qora Sayfi to'satdan qariqizni ko'rib qolibdi.

– Salom, Sayfi og'a, – debdi qariqiz, – Oysha seni ham quvib yubordimi? Meni egaringning qoshiga ilib, qayoqni ko'rsatsam, otni o'sha yoqqa qarab hayda.

Qora Sayfi qariqizning aytganini qilibdi.

Ular ko'p yurishibdi, tog'lar va vodiylardan o'tishibdi. Qariqiz Qora Sayfiga bir qop va ko'zacha sotib olishni buyuribdi. Qora Sayfi egarning chap tomoniga qopni, o'ng tomoniga ko'zachani ilibdi.

Ular yana ko'p yurishibdi, ko'p yurishsa ham mo'l yurishibdi. Tog'lar va vodiylardan, o'rmonlar va yong'oqzorlardan o'tishibdi. Qora Sayfining oti charchaganidan oriqlab, ignaday bo'lib ketibdi.

O'n beshinchi kuni yo'l ularni oxiri ham, chegarasi ham ko'rinmaydigan dashtga olib kelibdi.

O'ttizinchi kuni ularning to'rt tomonidan qoyalar o'sib chiqibdi. Jazirama issiq emish. Yer qaqrab, yorilib ketgan emish. Qora Sayfi qarasa, osmonda birorta ham bulut yo'qmish. O'ttiz beshinchi kuni tunda qoyalar ham, yer ham ortda qolibdi. Oy yorug'ida Sharqdan to G'arbgacha qumdan boshqa hech narsa ko'rinmabdi.

Qora Sayfining oti butunlay kuchdan qolibdi. Qirqinchi kuni qariqiz:

– Keldik, bu yer Qurg'oqchilik mamlakati. Qopni qum bilan to'ldir, – debdi.

Qora Sayfi terisi borib suyagiga yopishgan otidan tushib, qopni Qurg'oqchilik mamlakati-ning qumi bilan to'ldiribdi va uni otga yuklab, o'zi ham otga minibdi. Og'irlikni ko'tarolmagan ot tilga kirib:

– Menga rahming kelsin, Sayfi og'a! Men axir yurolmayman-ku. Qanday qilib bir qop qumni olib ketaman? – debdi.

Ammo Qora Sayfi otga rahm qilish o'rniga, uni qamchi bilan savalabdi. Bechora kul rang ot esa qoqilib va cho'loqlanib yo'lga tushibdi.

– Endi, – debdi qariqiz, – biz Shamollar mamlakatiga jo'naymiz.

Ular yo'l yurishibdi, yo'l yurishsa ham mo'l yurishibdi. Tog'lar va vodiylardan oshishibdi. To'satdan ularning yuzlariga shunday kuchli shamol urilibdiki, ular oldinga bir qadam ham jila olmabdilar. Balandligi osmonning yettinchi qavatiga yetgan, ildizlari esa yetti qavat yer qa'riga kirib ketgan ulkan daraxtlar ko'rinibdi. Shamoldan ularning har bir bargi, shoxchalari chayqalar ekan. Daraxtlarning tanalari goh yergacha egilar, goh balandga ko'tarilar ekan.

– Men oʻrnimdan qoʻzgʻalolmayman, – debdi Qora Sayfi, – shamolga qarshi yurishga otning ham, mening ham kuchimiz qolmadi.

Ammo qariqiz:

– Turish mumkin emas, otga qamchi bos! – debdi.

Quturgan shamolga qarshi koʻkragini tutgan; tanasidan ter oʻrniga qon oqayotgan otni toʻxtovsiz qamchilab, Qora Sayfi tagʻin uch kecha-yu uch kunduz yuribdi. Nihoyat ular dengiz boʻyiga yetib kelishibdi. Dahshatli toʻlqinlar oʻrkach-oʻrkach boʻlib balandlikka koʻtarilar, soʻngra qoʻrqinchli tovush bilan qirgʻoqqa kelib urilar ekan.

– Keldik, – debdi qariqiz, – koʻzami shamolga toʻldirgin.

Qora Sayfi koʻzaning ogʻzini shamolga qaratib qoʻyibdi.

Shamol huvillagan va chiyillagan tovush bilan koʻzaga kirib ketibdi. Sayfi bir parcha teri bilan koʻzaning ogʻzini bemitibdi-da, qariqiz bilan mahkam bogʻlab qoʻyibdi. Soʻngra u koʻzani otga ortib, orqaga qaytibdi.

Shamol bu safar ularning orqasidan esgani uchun ot oʻqdek uchib ketibdi.

Sayfi oʻz yoʻlida ketaversin. Biz Oyshaga qaytaylik.

Bu payt hammalari shirin uyquda edilar: Oysha toʻshakda, oq kaptar – uning boshi tomonida, quyon – oyoqlari ostida, bulut esa deraza oldida orom olishardi. Qirq uch kunlik yoʻlni uch kunda bosib oʻtgan Qora Sayfi Oyshaning bogʻiga yetib kelibdi. Otdan tushibdi. Qopni

olib, bog'ga kiribdi. Qurg'oqchilik mamlakatining qumini bog'ning hamma yeriga sepib chiqibdi: atirgullar ham, lolalar ham, qalampirgullar ham, daraxtlar ham chetda qolmabdi. O'zi shosha-pisha tezda ketib qolibdi.

Tong otibdi. Oysha ham, kaptar, quyon, Bulut ham ayanchli ingrashlardan uyg'onib ketishibdi. Ular bog'ga yugurib chiqishsa, lolalar, atirgullar, qalampirgullar, daraxtlar, hovuzchadagi suv o'zidan-o'zi ayanchli ingrab, quriyotgan emish. Gullar sarg'aygan, barglar esa xuddi alangada qolgandek qovjirayotgan, hovuzchadagi suv esa, go'yo tagida teshiklari bordek pasayib ketayotgan emish. Hammasi ham bir ovozda ingrab, ayanchli qichqirar emishlar: «Bizni qutqar, Oysha, biz sarg'ayib, so'lib, qurib ketyapmiz, o'lamiz, bizni qutqar, Oysha!»

Oysha o'zini yo'qotib qo'yganidan nima qilishni bilmay, bir gulni qo'yib, ikkinchisining oldiga yuguraveribdi. Qora Sayfi bo'lsa otda o'tirgancha, devorning naryog'idan mo'ralab, qora tirnoqlari bilan butaga o'xshagan qattiq, qora soqolini qashlab, miyig'ida kulayotganmish.

Bog'da so'lib, yerga engashmagan bironta ham gul qolmaganidan keyin, Qora Sayfi:

– Menga bog'ingni sot, Oysha, baribir bu endi bog' emas, qabriston-ku! Bu yerni menga sotgin-da, o'zing xohlagan joyingga jo'na! – deb qichqiribdi.

Oysha Qora Sayfiga:

– Men hech qayerga bormayman. Yaxshisi, men ham mana shu qurbon bo'lgan gullarim yonida halok bo'layin, – deb javob beribdi.

Oysha bilan Qora Sayfi gaplashib turganlarida Bulut osmonga ko'tarilibdi va o'sha yerdan hamma narsaga razm solib turibdi. Bulut shunchalik xafa bo'libdiki, na og'zini ochibdi, na qo'lini qimirlata olibdi. Kaptar Bulutning yoniga uchib kelib:

– Bulut og'ajon, hoy, Bulut og'ajon! Oyshaga tezroq yordam bersang-chi! – debdi.

– Men nima ham qila olaman? – chuqur xo'rsinibdi Bulut. – Qanday yordam qila olaman? Oysha uchun jonimni berishga ham tayyorman!

– Unday bo'lsa, joningi ber! – qichqiribdi kaptar.

– Rostdan ham, – debdi Bulut, – men esi pastning xayolimga kelmaganini qara-ya!

Bulut bu so'zlarni aytishga ulgurmasidanoq undan yomg'ir quyib yuboribdi.

Qora Sayfi g'azablanib, bulutga yoydan o'q ota boshlabdi.

Shu payt ko'zaning og'ziga bog'lab qo'yilgan qariqiz tilga kiribdi:

– Bulutga qarshi o'q otasanmi, yaxshisi meni yechib olib, ko'zani och!

Qora Sayfi shu ondayoq Bulutga to'g'rilab ko'zani ochibdi. Shamol chiyillab, Bulutga tashlanibdi.

– Ehtiyot bo'l, Bulutjon! – qichqiribdi pastdan Oysha.

Bulut yurakka aylanibdi. Quturgan shamol Bulutga urilib, bitta katta yurak mingta kichkina yurakchalarga aylanib qolibdi.

Qora Sayfi pastdan turib shamolga baqiribdi:

– Unga rahm qilma, qiyma-qiyma qilib, maydalab tashla!

Quyon pastdan Bulutga qichqiribdi:

– Bo'sh kelma, Bulut og'ajon!

Mingta kichik yurakcha shamol bilan olishib, birlashishga harakat qilishayotgandi. Oq kaptar esa uzoqroqqa uchib ketgan yuraklarni tumshug'ida yaqinroqqa olib kelardi. Oysha, quyon, Qora Sayfi, kul rang ot, qariqiz – hammalari osmonga tikilgancha, biri bulutga dalda berib, biri shamolga dalda berib qichqirishardi.

Hikoyamizni cho'zib o'tirmaymiz. Yurakchalar birlashib, yana ulkan bitta yurakka aylanibdi. Shunda qariqiz Qora Sayfiga:

– Meni osmonga ot! – deb qichqiribdi.

Sayfi uni yuqoriga otibdi. Qariqiz-ilon Bulut-yurakni o'rab olib, uni bo'g'a boshlabdi. Shamol bo'lsa Bulutni bo'laklay boshlabdi. Shu payt oq kaptar qariqizga tashlanib, uni cho'qiy boshlabdi. Qariqiz mayda-mayda bo'laklarga bo'linib, Qora Sayfining oyog'i ostiga kelib tushibdi.

Quturgan shamol ham harsillab, kuchli keta boshlabdi. Qora Sayfi g'azablanibdi, Oysha bilan quyon esa xursandliklaridan qichqirib yuborishibdi.

Shamol kuchsizlanib, g'oyib bo'lgandan so'ng, Bulut ko'zga aylanibdi va achchiq-achchiq yig'labdi.

Oq kaptar:

– Nimaga yig'layapsan, Bulut og'ajon. O'zingga rahming kelyaptimi? – deb so'rabdi.

– Men Oysha qiz uchun o'lyapman. O'zimga aslo rahmim kelayotgani yo'q, faqat Oysha

bilan vidolashayotganimga achinyapman. Shuning uchun yig'layapman! – deb javob beribdi Bulut.

Bulutdan chelakdan quyilgandek yomg'ir quyilibdi. Bog'dagi gullar jonlanib, boshlarini ko'tarishibdi. Xuddi avvalgidek, hamma yoq yashnab ketibdi.

Oysha qiz ko'z yoshlarini artib, osmonga qarab qichqiribdi:

– Bulutjon, mening aziz Bulutjonim, bas! O'lmagin! Men istamayman! O'lmagin!..

Qora Sayfi tobora kuchli yog'ayotgan yomg'irdan shalabbo bo'libdi. Jahldan va sovuqdan uning tishlari takillar emish. Keling, hozircha Bulutni ham, Oysha va Qora Sayfini ham o'z holiga qo'yaylik va oq kaptarga nima bo'lganini ko'raylik.

Oq kaptar bu payt sharmanda bo'lib qochib ketayotgan quturgan shamolni quvib borarkan. Tog'ning tepasida u shamolga yetib olibdi.

– Shamol og'ajon, – debdi kaptar, – Qora Sayfi seni sharmanda qildi, chunki u sening kuchingdan o'zining qabih ishlari uchun foydalanmoqchi edi. Shuning uchun ham sen oddiy bir bulutni yenga olmading. Qora Sayfi seni sharmanda qilganini qanday kechirasan? Sen uni jazolash kerak, deb o'ylamayapsanmi?

Shunda quturgan shamol tezda orqasiga qaytibdi. Chang, to'zon ko'tarib va chiyillab Qora Sayfiga tashlanibdi, uni egardan ko'tarib olib, osmonga otibdi va chirpirak qilib yerga tashlabdi.

Sayfi yana otga minib olmoqchi bo'lganda, kul rang ot:

– Sen menga rahm qilmading, men ham senga rahm qilmayman! – deb Qora Sayfini chunonam tepibdiki, u yana yerga ag‘darilib tushibdi. Quturgan shamol esa uni ezib, oldiga solib quvibdi va baland jarlikdan tashlab yuboribdi.

Qora Sayfi jarlikdan tushib tura tursin-da, biz Oysha bog‘iga qaytaylik.

Gullar Oyshaning bog‘ida jilolanib, daraxtlar yana gullay boshiabdi. Oysha hovuz bo‘yida o‘tirar, uning chap yelkasida kaptar, oyog‘i ostida quyon joylashgan, osmon ko‘m-ko‘k bo‘lib, hamma yoq quyosh nuridan charog‘on ekan.

Oyshadan boshqa hamma jilmayar ekan.

– Nima uchun g‘amgingan? – so‘rabdi oq kaptar qizdan.

– Bulutjon mening gullarimni ham, o‘zimni ham bizning hammamizni qutqardi, o‘zi esa halok bo‘ldi. Bizni qutqarish uchun o‘ldi!.. Men qayg‘urmasam, u haqda kim ham qayg‘ursin?

Oysha xo‘rsinibdi, qo‘y ko‘zlaridan marvariddek yoshlari dumalab hovuzga tushibdi.

– Bekorga g‘am yema, Oysha, – debdi quyon, – yaxshi odamlar, yaxshi hayvonlar va yaxshi bulutlar hech qachon nomsiz yo‘qolmaydi. Kim sevsa, o‘sha mangu tirikdir. Sen qara, hovuzga qaragin!

Oysha qiz qarasa, yomg‘ir suvi bilan limmo-lim to‘lgan hovuzdan quyoshning zarrin nurlari ostida ko‘m-ko‘k bug‘ ko‘tarilayotgan emish. Mana nihoyat, ko‘m-ko‘k bepoyon osmonda yana Bulut paydo bo‘libdi. Bulut yana o‘z holiga qaytgach, tepadan pastga – Oyshaga,

bog'ga qarabdi, so'ngra ulkan og'izga aylanib, lablariga tabassum yoyilibdi.

Shunday qilib, mehribon va rahmdil zotlar Nay mamlakatida baxt-saodatga erishibdilar. Qora kuchlar esa jazosini tortibdi. Xuddi mana shu yerda Darvishning nayi bayon qilgan hikoya tugabdi va Darvish nayini belbog'iga yashirib, jo'nab ketibdi.

G.Normatova tarjimasi

YOQUT XALQ ERTAKLARI

XAMIR POLVON

atta shaharning chekkasida bir chol-kampir yashasharkan. Ular juda g'arib va kambag'al ekanlar. Hatto farzandlari ham yo'q ekan.

Kunlardan bir kun kampir xamir qora turib qo'g'irchoqdek kichkina bola topib olibdi. Ammo ertasiga u bir yoshlik chaqaloqdek, indiniga ikki yoshlik go'dakdek bo'lib turganmish. Bola kuniga emas, soatiga o'sarkan.

Xamirdan topib olingani uchun ham uni Xamir Polvon deb atay boshlashibdi. Xamir polvon o'n yoshga yetganida, jussasi juda ham katta bo'lib ketibdiki, tengdoshlari u bilan o'ynashga qo'rqib qolishibdi. Har qanday bolani ham bir musht bilan cho'ziltirib qo'yar ekan.

Xamir polvon o'n yettiga chiqqanida chol-kampir uni yer yuzini aylanib, yaxshi-yomonni ajratish, o'zini el-yurtga tanitish uchun safarga otlantirishibdi.

Yigit daryoning qirg'og'iga chlqib, oqim bo'ylab ketaveribdi. Ko'p yuribdi, mo'l yuribdi oxiri to'rtta daryo bir joyga quyiladigan, to'rtta tog' birlashadigan joyga yetib boribdi. Qarasa, bir baquvvat odam o'rmondagi daraxtlarni sug'urib yagana qilayotganmish.

– Nimalar qilyapsan, ey yaxshi odam? – so'rabdi u.

U bo'lsa:

– Haddan tashqari kuchim ko'payib ketayotganidan podsho menga o'rmondagi to'nkalarni sug'urib, jar va chuqurliklarni tekislashni buyurdi. Meni Tog' Polvon deb atashadi, – debdi.

– Ajab ish topibsan-da! Baribir hamma to'nkalarni qo'porolmaysan, jar va chuqurlarni tekislay olmaysan. Meni Xamir Polvon deyishadi. Yur men bilan, dunyo ko'ramiz, – debdi bizning polvon.

Tog' Polvon biroz o'ylanibdi-da, ko'nibdi:

– To'g'ri aytasan. Yur, ketdik.

Yurishibdi, yurishsa ham mo'l yurishibdi, bir katta shaharning chekkasiga kelishibdi. Ne ko'z bilan ko'rishsinki, bitta uyning oldida bir polvon yigit odamlarni kursilarga bog'lab sava-layotganmish.

– Nima qilayapsan? – so'rashibdi Xamir Polvon bilan Tog' Polvon, – bu bechoralarga azob bergandan ko'ra yur biz bilan, dunyo ko'ramiz.

– Meni Jazo Polvon deyishadi. Umrin bo'yi podshoning amri bilan jinoyat qilgan odamlarni jazolayman, – debdi Polvon.

– Kaltak bilan odamlarni tuzatib bo'lmaydi. Qolaversa, ha deb bir xil ish qilish juda zerikarli. Shuning uchun yur biz bilan, – deyishibdi polvonlar.

Jazo Polvon ham xivichlarini tashlab, yangi tanishlari bilan yo'lga ravona bo'libdi.

Ular ko'p yurishibdi, ko'p yurishsa ham mo'l yurishibdi. Oxiri bo'm-bo'sh, nurab ketgan shaharga kelishibdi. Bitta uyga kirib joylashib olibdilar.

Tong otgach, Tog' Polvon bilan Xamir Polvon ovga ketishibdi. Jazo Polvon uyga qarab qolibdi. Kechga yaqin u do'stlariga go'sht pishirib, endi dasturxonga qo'ygan ekan, uyning derazasi taqiliabdi.

– O'z hukmdoringni uyga qo'y! – debdi kimdir tashqaridan. Jazo Polvon uydan chiqsa, otda bir chol turganmish. O'zi bir qarich, soqoli yuz qarichmish.

Jazo Polvon cholni otdan tushirib stol yonidagi kursiga o'tqazibdi.

– Menga ana u go'shtni olib ber-chil! – buyruq beribdi notanish mehmon.

Polvon unga go'shtning yarmisini olib beribdi. Chol bir zumda uni yeb qo'yibdi-da, yana buyuribdi:

– Endi qolganini ham ber!

Lekin Jazo Polvon qolgan go'shtni bermabdi. Shunda chol aytganini qilmagani uchun uni ikki buklab taxta so'riga otib yuboribdi. Go'shtning qolganini yeb, xizmatkoriga o'zini olib ketishni buyuribdi. Jazo Polvon ikkinchi marta go'sht pishirishga kirishibdi. Ovqatni kechiktirgani uchun o'zini jazolab, bolta bilan chap oyog'ining bosh barmog'ini chopib tashlabdi.

Xamir Polvon bilan Tog' Polvon kelganlarida esa chopib olgan barmog'ini ovqatning kechikishiga bahona qilib ko'rsatibdi. Qandaydir bir qarich choldan dashnom olganini aytishga oriyati yo'l qo'ymabdi. Ertasiga Tog' Polvon uyga qarab qolibdi. Xamir Polvon bilan Jazo Polvon ovga ketishibdi. Oqshom paytida Tog'

Polvon go'shtni endi pishirib turgan ekan, yana deraza taqillabdi.

– O'z hukmdoringni uyga qo'y!

Tog' Polvon ham ehtrom bilan cholni uyga olib kirib kursiga o'tqazibdi.

– Qani yigit, ana u go'shtni menga olib ber-chil! – buyuribdi chol.

Tog' Polvon yarmidan ko'proq bo'lakni unga uzatibdi. Chol uni yamlamay yutib yuboribdi, yana talab qila boshlabdi.

– Ana unisini ham olib ber!

Lekin Tog' Polvon ham cholga boshqa go'sht bermabdi. Shunda chol uni ham bog'lab so'riga otibdi. Qolgan go'shtni yebdi-da, odamiga o'zini olib ketishini buyuribdi.

Urina-urina Tog' Polvon zo'rg'a arqondan qutulibdi. Keyin ikkinchi marta ovqatga olov yoqibdi. Kechga qolganiga sabab ko'rsatish uchun bosh barmog'ini kesib tashlabdi. Qaltiroq mit-ti choldan kaltak yeganini tan olish unga ham og'ir bo'libdi. Xamir Polvon bilan Jazo Polvon kelganda esa:

– Bexos qo'limni kesib yubordim, shuning uchun ovqat kechikdi, – debdi.

Uyga qarash navbati Xamir Polvonga yetibdi. Hamma gap kechagiday takrorlanibdi. Polvon go'sht pishirib bo'lishi bilan uzun soqolli chol kelib kursiga o'tiribdi-da, xo'jayinlardek buyruq bera boshlabdi. Ammo Xamir Polvon bezbet cholga mutlaqo go'sht bermabdi. Shunda chol mushtlashishga tushib ketibdi. Biroq natija u o'ylaganchalik bo'lib chiqmabdi. Xamir Polvon cholning uzun soqolidan ushlab olib uy-

dan tashqariga olib chiqib yo'g'on ustunga soqoli bilan chirmab bog'lab tashlabdi.

Biroz o'tib Tog' Polvon bilan Jazo Polvon kelishgan ekan, Xamir Polvon ularga dashnom bera boshlabdi.

– Uyat emasmi, qirchillama yigitlar?! Qandaydir qiltiriq cholga bo'sh kelib bekordan bekorga barmoqlaringizni kesib o'tiribsizlar-a. Shu ham ish bo'ldimi? Borib ko'ringlar, men uni soqolidan ustunga bog'lab qo'ydim.

Polvonlar tashqariga chiqishsa, Chol ham, ustun ham yo'q emish. Chol boyaqish ustunni sudrab qochib qolgan ekan.

Hammalari cholning ketidan yo'lga tushishibdi. Yo'l yursa ham mo'l yurishibdi. Asta-sekin yeta boshlashibdi. Chol bo'lsa ketidan polvonlar quvib kelishayotganini sezib qolib, o'zini tor va chuqur daraga otibdi. Dara borgan sari torayaveribdi. Cholning soqoliga bog'langan ustun bir u yerga tegarmish, bir bu yerga. Oxiri tiqilib qolibdi. Cholning soqoli uzilib ketibdi-da, uning o'zi pastga qarab uchib tushibdi.

Xamir Polvon hamrohlarini tashqarida qoldirib o'zi uzun arqon bilan daraga tusha boshlabdi.

Pastga yetgandan keyin qarasa, temir uy turibdi. Ichiga kirsa, chol zo'rg'a-zo'rg'a nafas olib chalajon yotganmish.

Polvonni ko'rib chol debdi:

– Obbo Xamir Polvon-yey, shu yerga ham yetib keldingmi? Har holda mendan xabar olmoqchimasdirsan? Ammo meni o'ldirganingdan senga nima foyda? Mening ikkita qizim bor. Shularni olginda menga tegma. Tinchgina o'lay.

Xamir Polvon cholning qizlarini olib chiqib ketibdi. Tog' Polvon bilan Jazo Polvon ularni arqonda tortib olishibdi. Ammo navbat Xamir Polvonga kelganda arqon uzilib ketibdi. Bizning Polvonimiz boshqa yo'l topib daradan chiqishga majbur bo'libdi.

Yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi, oxiri beshta jasur yigitlarga duch kelibdi. Ular Qurt podshoning beqiyos go'zal qizini xotinlikka so'rab ketishayotgan ekan. Har bir yigit alohida-alohida xislatga ega bo'lib, biri mohir mergan, ikkinchisi chaqqon chopag'on, uchinchisi hid biluvchi, to'rtinchisi eshituvchi, beshinchisi og'ziga butun bir dengizning suvini sig'dira oladigan ekan. Mard yigitlar Xamir Polvonni ham qo'shib olishibdi.

Oltovlon Qurt podshoning saltanatiga yetib borib bong urishibdi.

– Biz, – deyishibdi ular, – oltitamizdan birimizga qizingni berishingni so'rab keldik.

– Agar qizimga yugurib yetsalaring beraman. Yetolmasanglar hammangizni qo'shmozor qilaman, – debdi podsho.

Yigitlar podshoning shartiga ko'nishibdi. Qiz bilan chopag'on yigit yugurishadigan bo'libdi. Poyga boshlanibdi. Yigit qizdan birpasda o'zib ketibdi. Ammo Qurt podsho jodu bilan uni uxlatib qo'yibdi. Yigit yuguribdi-yuguribdi, lekin yo'lning o'rtasida daraxtning chopilgan shoxidek shilt etib yiqilib, o'sha zahoti uxlab qolibdi.

Shunda Mergan yigit kamondan mo'ljallab turib shunday o'q uzibdiki, o'q chopag'onning

burnimi timdalaganicha sidirib ketibdi. Chopag'on irg'ib turib yana yugurib ketibdi. Malika unga yaqinlasha olmabdi ham.

Qurt podsho shovvozlariga qizini berishga majbur bo'libdi. U kuyovni qizning o'zi tanlashini uqtiribdi va hamma yigitlarning qator turishiarini talab qilibdi. Ammo pahlavonlar uning istagini bajarishgan zahoti ularning ustiga cho'yan qopqoq tashlab yuboribdi. Qopqoqning atrofiga yantoq, pichan, shox-shabba uyib yoqib yuboribdi.

Qopqoq qiziy boshlabdi. Sal o'tmay qip-qizil cho'g' bo'lay-bo'lay deb qolibdi. Og'ziga dengizni sig'diradigan yigit bo'lsa, paytdan foydalanib baliq qovurib yeyayotgan emish. Bu holni ko'rgan do'stlar qichqirib yuborishibdi:

– Biz o'lay deyapmiz-u, sen baliq yeb yotibsan. Topgan vaqtingni qara. Tezroq dengiz suvidan purka.

– Shoshilmanglar. Hozir juda baliq mazali ketyapti. O'tni bo'lsa biz har qachon ham o'chiraveramiz.

Shunday deb bir suv purkagan ekan, qizib yotgan cho'yan qopqoq parcha-parcha bo'lib ketibdi.

G'azabga to'lgan yigitlar ayyor Qurt podshoni o'sha zahoti yanchib tashlashibdi. Uning qizi – go'zallikda tengsiz malikani bo'lsa hammalari bir ovozdan Xamir Polvonga olib berishibdi.

Aytishlaricha, Xamir Polvon malika bilan ko'p yillar baxtli umr kechiribdi.

KOROX-SIMIRIKI¹



ta-bobolarimiz toza qalb va mohir qo'llar-ni eng katta boylik, deyishadi.

O'tgan zamonlarda bir boy kishi qizi bilan yashar ekan. Uning xotini o'libdi va u boshqa ayolga uylanibdi. Keyingi xotining ham qizi bor ekan. Faqat erining qizidan katta ekan.

Ko'p vaqt o'tmay boy ham kasal bo'lib o'libdi.

Katta uyda xotin, uning qizi va o'gay qiz qolibdi. O'zining qizi kun bo'yi pardoz-andoz bilan band bo'larkan, ish qilishni istamas ekan. O'gay qizi bo'lsa uyni yig'ishtirar, ovqat tayyorlar, o'tin olib kelar, kiyim tikar, yana qo'shiqlar ham aytishga ulgurar ekan. O'gay ona bo'lsa uni qarg'agani-qarg'agan ekan. Erta-yu kech qarg'ar, hatto urar ekan.

Kattasini – o'gay onaning qizini Suryaga-Sox, ya'ni dangasaxon, kichigini esa – o'gay qizini odamlar Yulesit-Qiz – chevarxon deb atashibdi. O'gay ona qizi bilan g'iybatdan bo'shamas ekan. Nuqul og'ir ishlar o'ylab topisharkan. Chevarxon bo'lsa hamma ishlarni o'ynab-kulib, tez va chaqqon bajarib qo'yaverar ekan.

Ona-bola qanday qilib bo'lsa ham o'zlariga xush yoqmagan Yulesit-Qizni yo'qotish payiga tushibdilar. Oxiri o'gay ona yetimni chaqirib shunday debdi:

¹ Korox-simiriki – bekinmachoq o'yini.

– Taygaga borgin-da, menga savat to‘qish uchun tol novdalarini yig‘ib kel. Faqat yaxshisidan olib kel. Mayda shoxlari bo‘lmasin.

– Oqshom bo‘lib qoldi-ku, – debdi qizcha. – O‘rmonda qanday qilib tunayman?

– Bor, bor! Ko‘p gap sotma? – baqiribdi ona.

Yulesit-Qiz noiloj taygaga yo‘l olibdi.

O‘gay ona esa qiziga maqtanibdi:

– Uni o‘rmonda yirtqich hayvonlar tilka-tilka qilib yuborishadi.

Yulesit-Qiz yolg‘izoyoq yo‘ldan titrab-titrab boraveribdi. Oyoq kiyimining teshiklaridan qor kirib rosa izillatarmish. Yupun kiyim yirtiq-larida shamol o‘ynarmish. Sovuq. Taygaga yetgun-cha qosh qorayibdi.

Qizcha bir quchoq novda yig‘ibdi. Birdan ko‘ziga eski uy ko‘rinibdi. Derazasidan yorug‘shu‘la ham tushib turganmish. U juda ham xursand bo‘lib ketibdi. «Juda yaxshi bo‘ldida, – o‘ylabdi qizcha. – Hoynahoy bu yerda ovchi yashasa kerak. Boray-chi, zora bir kecha tunashga ruxsat bersa». Novdalarini ko‘tarib o‘sha tomonga yuribdi.

Ichkariga kiribdi. Lekin u yerda hech kim yo‘q emish. Egasi ovga ketgandir-da, deb o‘ylab atrofga qarasa loy o‘choq turibdi. Tagida o‘tinlar ham tayyormish. Uning ustida esa qozoncha, qozonchanning ichida yog‘och cho‘mich bormish. Xullas, hamma narsa saranjom-sarish-ta! «Bu yerda tadbirkor, yaxshi xo‘jayin yashar ekan», – o‘ylabdi u.

Yulesit-Qiz yumushsiz uzoq o‘tirolmabdi. Axir u ish qilishga o‘rganib qolgan chevar qiz

emasmi?! Darrov o't qalab ovqat pishiribdi. Keyin o'tirib xo'jayinni kuta boshiabdi. Uyning egasidan esa darak yo'q emish! Qizchaning juda qorni ochib ketibdi.

Xo'jayin taygada tunab qolgandir, degan xayol bilan ovqatni endi yeya boshlagan ekan, burchakdan bitta sichqon otilib chiqib, qizning tizzasiga sakrab chiqib olibdi:

– Menga ham ovqatingdan ber, – debdi u.

– Sening kelganing juda yaxshi bo'ldi, – xursand bo'lib ketibdi Yulesit-Qiz, – endi zerikmaymiz.

Ovqatni birgalashib yeyishibdi. Bir qoshiq o'zi olarmish, bir qoshiq sichqonga berarmish. Taom tamom bo'libdi. U shu qadar mazali ekanki, sichqon idishni toza qilib yalab ham qo'yibdi.

– Maza qildik, – debdi sichqon, – katta rahmat. Sen juda ham xushko'ngil qiz ekansan. Shuning uchun men senga yordam beraman. Sen kimning uyida turganingni bilasanmi o'zi?

– Yo'q, bilmayman, – javob beribdi qiz.

– Bu uyda tayganing xo'jayini bo'lgan ayiq yashaydi, – debdi sichqon. – Hademay kelib qoladi. U senga: «Kel, korox-simiriki, ya'ni bekinmachoq o'ynaymiz», – deydi. Sen rozi bo'l. U senga qo'ng'iroqcha beradi. Sen uni darrov menga uzatgin-da, o'zing burchakka o'tirib ol».

Sichqon gapini tugatar-tugatmas, eshik lang ochilib, kattakon ayiq kirib kelibdi. Yulesit-Qizni ko'rishi bilan bo'kira boshlabdi:

– Sen nega mening taygamga kelding. Novdalar uzibsan. Yana uyimga kirib olibsan?

– Achchiqlanma, ayiqpolvon, – debdi qizcha, – nima ham qila olardim. O'gay onam menga novda yig'ib uni tozalashni buyurdi. Savat to'qir emish. Uning gapini qaytara olarmidim? Uning ustiga kech kirib qoldi. Bu uyni ko'rdim-u, panoh izlab kiraverdim.

– Men seni yeb qo'ysam-chi? – debdi Ayiq.

Ammo qiz hech ham qo'rqmabdi.

Ayiq ajablanibdi.

– Sen mendan qo'rqmaysanmi?

– Yo'q, – debdi qiz, – qo'rqmayman. Sen avval men bilan bekinmachoq o'ynagin. Keyin ko'ramiz. Kim yutib chiqsa, o'sha qo'rqitadi.

– Bo'pti, – deb kulibdi Ayiq, – kel, Korox-simiriki o'ynaymiz. Agar men seni tutib olsam, yeyman. Tutolmasam, sen boy bo'lasan.

Qizcha rozi bo'libdi. Ayiqning ko'zlari-ni bog'labdi. Ayiq qizning qayerdaligini bilish uchun uning qo'lga qo'ng'iroqcha tutqazib qo'yibdi.

Qizcha esa sichqonning aytganlarini yodidan chiqarmagan ekan. Qo'ng'iroqni sichqonga beribdi-yu, o'zi burchakka yashirimib olibdi.

Shunday qilib, sichqon tishlab olgan qo'ng'iroq jiringlab ketibdi. Ayiq panjalarini ochib o'sha tomonga otilibdi. «Hozir qizchani tutib olaman», – deb o'ylabdi-da. Qayoqda deysiz. Sichqon kichkina emasmi. Lipillab u yoqdan bu yoqqa yugurarmish. Ayiqning tumshug'i tagidan shunday chap berib choparmish-ki, asta qo'yavering. Qizcha bo'lsa burchakda damini yutib, jim o'tirganmish.

Ayiq polvonni ter bosibdi. Nafaslari tiqilib qolayozibdi.

– Bo‘ldi, bas, ro‘molingni yech. Sen yutding, – debdi u zo‘rg‘a.

Qizcha sichqondan sekingina qo‘ng‘iroqni olibdi-da, Ayiqning ko‘zlaridan ro‘molini yechibdi.

– Juda chaqqon ekansan. Senga o‘xshagani-ni uchratmagandim, – ajablanibdi u. – Endi men seni taqdirlayman. Qishloqqa borgin-da, eng ma‘qul joyni tanlab ro‘molingni o‘sha joyga tashla.

Qizcha Ayiqqa qulluq qilib, unga bildirmay sichqon bilan xayrlashibdi. Novdalarini olib uyiga otlanibdi. Uydan chiqishi bilan qarasa, egnida yangi, chlroyli po‘stin, oyoq kiyimi op-poqqina emish. Hatto turli naqshlar bilan beza-tilganmish, o‘ziga tuzukroq qarab olish uchun tol novdalarini yerga tashlagan ekan, ulardan shunday ajoyib savat to‘qilib qolibdiki, shu paytgacha bunaqasini hech kim ko‘rmagan ekan. Savatni qo‘ltig‘iga qistiribdi-yu, qo‘shiq aytib uyiga yuguribdi.

Qizcha qishloqqa kirib boribdi. Uyning osto-nasiga qadam qo‘ya turib o‘ylabdi: «Qiziq, bu Ayiq mening ro‘molim haqida nimalar degandi? Qani uni bir yerga tashlab ko‘ray-chi!» U shun-day deb, durrasini yerga tashlabdi.

Ro‘moli qorga tushar-tushmas kattala-sha boshlabdi. Oxiri katta uyga aylanibdi. U ko‘rkam va hashamatli emish, xonalarida qim-matbaho anjomlar, kiyim-kechaklarni sanab ham bo‘lmasmish. Uning oldida qo‘ra ham bormish. Uning ichida sigir-buzoqlar ma‘rab yotganmish.

Nimasini ham aytaylik, Ayiq qizchaga bitta to'kis xo'jalikni sovg'a qilibdi. Yulesit-Qizcha esa shu qadar chiroyli bo'lib ketibdiki, o'sha atrof-dan unaqasini hech ham izlab topib bo'lmas-mish. Uning o'zi avval ham go'zal edi-ku, ammo yirtiq-yamoq kiyimlar husnini yashirib turardi-da.

Birdan Yulesit-Qiz o'zini qo'lga olibdi: tez-roq o'gay onasining oldiga borib savatni, berish esiga tushib qolibdi. U yangi hovlisidan chiqayotgan ekan, unga qarab odamlar yugurib kelishayotganmish.

– Qaranglar, qaranglar, – qichqirisharmish ular, – yetimcha katta uyning bekasiga aylanibdi. Endi u qishlog'imizning eng boy kelini bo'lib qoladi.

To's-to'polonni eshitib o'gay ona bilan erka qizi ham tashqariga chiqishib lol qolishibdi. Yulesit-Qiz bo'lsa ularga ajoyib to'qilgan yangi savat uzatayotganmish. Hayron bo'lganlaridan ona-bolaning tillari aylanmasmish. O'zlariga kelib, nafaslarini rostlaganlaridan keyin asta-sekin qizchani, gapga solishibdi. Yulesit-Qiz ham bor gapni aytib beribdi, hech narsani yashirmabdi.

– Mayli, – debdi o'gay ona, – bizda, bundan ham yaxshi bo'ladi.

Qizini yaxshilab kiyintirib taygaga boylik olib kelish uchun jo'natib yuboribdi.

Suryaga-Sox yolg'izoyoq yo'ldan ketayotganmish-ku, o'zicha xayol surarmish: «Mana ko'rasan, men Ayiqni shunday aldayki! Bir emas, ikkita uy so'rab olaman».

Ko'p o'tmay ayiqning yashash joyini topibdi. U ham tayyor o'tinlarni ko'ribdi. Ammo o't yoqishga erinibdi. Mehnatga ko'nikmagan danga-sa emasmi? O'tirib Ayiqni kuta boshlabdi.

Sovuq badan-badanidan o'tib ketgandan keyin ikkita g'o'fani olib, bir amallab o't yoqibdi. Shundan keyin qorni ochganini ham sezibdi. Rosa jahli chiqibdi. Ammo nachora. Oxiri ovqat qillshga majbur bo'libdi. Suryaga-Sox ilgari mutlaqo ishga ko'nikmaganligidan ovqati kuyib ketibdi. U buni hatto sezmasdan endi yeyishga kirishgan ekan, burchakdan bir sichqon otilib chiqib, tizzasiga o'tirib olibdi. Keyin yal-na boshlabdi:

– Qizcha, qizcha, menga ham ovqatingdan ber.

– Tur-yey, ipirisqi! – baqirib yuboribdi Suryaga-Sox uni uloqtirib tashlarkan.

Sichqon hech narsa demasdan nariroqda kutib turibdi.

– Shoshmay tur, – debdi qiz, – men yeb olay, keyin senga beraman, idishni yalab qo'lasan.

Sichqon dumini bir likillatib iniga yugurib kirib ketibdi. Suryaga-Sox ovqatdan bitta tatib-di-da, tupurib yuboribdi. Pishirgan ovqati juda taxir ekanda. Shundan so'ng sichqonni chaqira boshlabdi.

– Kelaqol, men hazillashdim! Pishirganim-ning hammasini senga beraman.

Uning gapiga ishonib sichqon qaytib kelibdi. Faqat bitta tatib ko'rishim o'zida qizning nima sababdan uni chaqirganini bilibdi. Mo'ylovlarini panjalari bilan artib, nari ketibdi.

«Mayli, – o‘ylabdi u, – ziqnaliging uchun seni bir jazolayki».

– Nega yemayapsan? – so‘rabdi tantiq.

– Rahmat, men yeb qo‘ysam, senga qolmaydi, deb cho‘chidim. – Sichqon shunday javob berib qochib ketibdi.

Shu payt eshik ochilib Ayiq kiribdi.

– Kim senga mening taygamga kelishga ruxsat berdi? Yana mening uyimga kirib olibsan? – bo‘kiribdi u. – Nega bu yerga kelding?!

– Sovg‘alar uchun, – debdi Suryaga-Sox, – sen mening singlimga uy in‘om etibsan. Menga bo‘lsa ikkitasi kerak.

– Mayli, – rozi bo‘libdi ayiq, – hozir sen bilan Korox-simiriki o‘ynaymiz. Tutolmasam ikkita uy olasan, ammo tutib olsam, o‘zingni yeyman.

– Bo‘pti, – ma‘qullabdi qiz, o‘zi bo‘lsa: «Hozir sichqon kelib qo‘ng‘iroqni olib yugura boshlaydi. Men esa ikkita uyli bo‘lib olaman», – deb o‘ylarmish.

Sichqon uning yoniga kelib:

– Hozircha sen yugurib turgin, keyin idishdagi ovqatni yalashga berganingdek, men izingdan yuguraman.

Qiz ana shunda sichqonni xafa qilgani-ni tushunibdi, lekin vaqt o‘tgan ekan. «Mayli, – o‘ylabdi qiz. Sichqonning oyoqlari kichkina, meniki katta-katta. Demak, men tezroq yuguraman».

Shunday xayolga boribdi-da, sichqonni shunday turtibdiki, bechora sichqon oqsoqlanib qolibdi. Keyin ro‘molni yechib ayiqning ko‘zlarini bog‘labdi. O‘zi undan qo‘ng‘iroqni olib, chopa boshlabdi.

Qo'ng'iroq jiringlab, qizchaning qayerdaligini bildirib turibdi. Ayiq uni o'sha zahoti tutib olibdi. Keyin ko'zidan durrani olib debdi:

– Mayli, men seni yemay qo'yaqolay. Sendaqa yovuz va dangasa qizni yeb kasal bo'lib qolishdan qo'rqaman. Seningcha bo'lsin. Ikkita emas, ko'proq uy beraman. Ishiaringni ham boshqalar bajaradi. Ro'molingni olgin-da, tashqariga chiqib qorga tashla.

Suryaga-Sox shoshib ro'molini yulib olib, Ayiqning xonasidan tashqariga qochib chiqibdi-yu, uni qorga tashlabdi. Birdan Suryaga-Sox qo'llarini silkitib osmonga qarab ucha boshlabdi.

– Kak-ku! – baqiribdi u. – Kak-ku!

U o'zicha: «Qayoqqa? Men qayoqqa uchayapman? – demoqchi bo'larmish, ammo nuqul, – kak-ku, kak-ku» – deya olarmish, xolos.

Shunday qilib, ishyoqmas Suryaga-Sox Kak-kuga aylanib qolibdi. U o'zining ishini ham qilishga erinadi. Qushlarini o'zi katta qilmaydi. Goh u inga, goh bu inga tuxum qo'yib yuradi. Shu sababli uning uyasi ham yo'q.

Suryaga-Soxning onasi uni rosa kutibdi. Keyin hoynahoy Ayiq bergan sovg'alarni olib kelolmayotgandir, deb o'zi taygaga boribdi. Ayiq uni yo'lda uchratib so'rabdi:

– Sen ham kelyapsanmi? Ehtimol senga ham sovg'alar kerakdir. Mayli, olaqol.

Shundan so'ng Suryaga-Soxning onasi mushuk bo'lib qolibdi. Mushukka nimani ko'rsatmagin: «Menga, menga», deyaveradi.

Qiziga sichqon yordam bermaganini bilib, sichqonni rosa axtaribdi, sichqon bo'lsa qochib ketibdi.

O'sha paytdan buyon mushuk o'sha sich-qonni izlarmish, ammo hech topolmasmish.

Yulesit-Qiz bo'lsa kamchiliksiz yashay boshlabdi. Hamma yumushlarni o'zi qilarmish. Qo'shnilariga ham yordam berarmish.

Agar siz ana shunday chaqqon, chevar qizni uchratsangiz, bilingki, u o'sha Yulesit-Qizdir. U bo'lmasa uning bolalari, bolalari bo'lmasa nabiralaridir.

O'shandan buyon xalq ishchanlarni Yulesit-Qiz deb ataydi.

DONO QIZ

 adim zamonlarda bir chol yakka-yu yagona o'g'li bilan yashar ekan. Yigit juda jasur va kuchli ekan. Ammo aqli zaif ekan.

Kunlardan bir kun qariya o'g'lini uyda qoldirib, bug'uga minganicha uzoq yo'lga o'tlanibdi. Yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi, oxiri bir qishloqqa yetib kelibdi. Qishloqning o'tovlari tepalikning bag'riga bir tekis qilib qurilganmish.

Chol bitta o'tovning qarshisida to'xtabdi-yu, ichkariga kiribdi:

– Assalomu alaykum, yaxshi odamlar! – debdi u.

– Vaalaykum assalom, musofir! – javob berishibdi unga uydagilar. – Qanday yangiliklar bor?

– Yangiliklar ko'p emas.

Chol uyning to'riga o'tiribdi-da, qizga zehn solib qarabdi. «Chiroyiga gap yo'q. Xuddi yomg'irdan keyin charaqlab chiqqan quyoshga o'xshaydi. Lekin o'g'linga o'xshagan ovsar emasmikan. Qanday qilsam, bilib olarkanman?» – o'ylar emish u.

Shu payt qiz o'rnidan turib ovqat qila boshlabdi. Go'shtni to'g'rab, sho'rva pishiribdi. Kosaga ovqatni solib cholning oldiga qo'yibdi. Chol undan so'rabdi:

– Qizim, menga ayt-chi, kosamga necha cho'mich sho'rva solding?

– Anig'ini bilmadim, – debdi qiz, – lekin bizning o'tovga kelguncha bug'ungiz nechta qadam yo'l bosganini aytsangiz, men ham savolingizga aniq javob berardim.

«Qiz tushmagur es-hushliga o'xshaydi», – o'zicha debdi chol.

Keyingi safar chol o'tovga o'g'li bilan kelibdi.

– Gapni indallosini aytganda, farzandlarimizni qovushtirib qo'ysak, yomon bo'lmasdi, – debdi chol qizning otasiga.

Qizning otasi rozi bo'libdi.

Shu-shu chol o'g'li va aqlli kelini bilan avvalgidan ham yaxshiroq yashay boshlabdi.

Kunlardan bir kun ota-bola uy bekasini qoldirib ovga ketishibdi.

Daryo bo'ylab yo'l yurishibdi, mo'l yurishibdi, daryo ikki tomonga ayrilgan joyga yetib kelishibdi. Chol hir tomonga, o'g'li ikkinchi tomonga ketibdi. Shunday qilib, ota-bola bir-birini yo'qotib qo'yishibdi.

Chol bexos azaldan dushmanlikda bo'lgan urug' odamlariga duch kelib qolibdi. Ular cholni ushlab olib daraxtga bog'lab qo'yishibdi. Keyin o't yoqishib chol bechorani tutunda bo'g'ib o'ldirmoqchi bo'lishibdi.

Chol oxirgi niyatini eshitishlariga ularni zo'rg'a ko'ndiribdi. U so'zlarini shunday boshlabdi:

– Mening uyimda yakka-yu yagona o'g'lim qolgan. O'g'limga shu gaplarimni aniq yetkazinglar: men kuchdan qolib, archaning po'rsil-

dog'iga aylandim. Silkinyapman, yosh barglar bilan olishyapman. Va yana aytingki, o'g'lim mening gaplarimni eshitgach, shimolda o'sayotgan ikkita qayinning uchini kesib tashlasin. Shundan keyin g'arbg'a qarasin, qayinzorni ko'rgach, hamma qayinlarning uchini kesib, mening oldimg'a olib kelsin. Agar o'g'lim ularni qanday kesishni bilmasa ko'rpamning tagidagi oq tosh yordam beradi. Agar gaplarimni anglamas, unga yostig'i ostidagi o'tkir pichoq yordam beradi. O'g'limga shunday denglar.

Dushmanlar o'zaro maslahatlashibdilar, shunda ularning boshlig'i bir qarorga kelibdi:

– Kelinglar, uning o'g'liga bu gaplarni yetkazaylik. Yo'l-yo'lakay o'zini ham gumdon qilamiz.

Dushmanlar cholning uyiga ikkita yosh sheriklarini jo'natishibdi.

Yigitlar cholning uyiga kelishibdi, ammo uyda faqat cholning kelinini uchratishibdi.

– Ering qani? – so'rashibdi ular.

– Hozir kelib qolsalar kerak, – javob beribdi kelin.

Yigit rostdan ham ko'p o'tmay kirib kelibdi.

– Hoy yigit, otang senga bir gap aytib yubordi. Yaxshilab eshit, – deyishibdi ular va cholning aytganlarini so'zma-so'z takrorlab berishibdi.

Yigit ularni yaxshilab tinglabdi. Xotini bo'lsa, undan ham yaxshiroq eshitib, fikr qila boshlabdi. Kelganlar so'zlarini tamom qilganlari zahoti er-xotin o'zlaricha maslahatlashibdilar.

Gapni xotin boshiabdi:

– «Men kuchdan qolib, archaning po'rsil-dog'iga aylandim. Silkinyapman, yosh barglar bilan olishyapman», – degani – meni daraxtga

bog'lab qo'yishdi degani bo'ladi. «O'g'lim mening gaplarimni eshitgach, shiinolda o'sayotgan ikki qayinning uchini kesib tashlasin» – bu shiimoldan kelgan ikki yigitning boshini olib tashlashni anglatadi. «G'arbga qarasin, qayinzorni ko'rgach, hamma qayinlarning uchini kesib mening oldimga olib kelsin», – deyilganidan otamizning dushmanlar qurshovida qolgani ni bilsa bo'ladi. Siz ularni o'ldirishingiz kerak. «Agar o'g'lim ularni qanday kesishni bilmasa, ko'rpamning tagidagi oq tosh yordam beradi» – bu otamizning qilichi. «Agar gaplarimni anglamasa, unga yostig'i ostidagi o'tkir pichoq yordam beradi». Yostiqlarning ostidagi o'tkir pichoq – bu men – sizning dono xotiningiz. Tushundingizmi? Harakatingizni qiling.

– Ha, men hammasini tushundim! – debdi yigit va otasining ko'rpasi ostidan o'tkir qilichni olib bitta zarba bilan dushmanlarni boshidan judo qilibdi.

Shundan keyin o'rmonga boribdi-da, dushman urug'dan bo'lgan raqiblarni topib, birma-bir qilichdan o'tkazibdi. Otasini eson-omon qutqarib qolibdi.

Mana chol o'z o'g'liga qanday dono qizni topgan ekan.

SIS-KUO

 u yorug' dunyoda g'aroyib tabiatli Sis-Kuo degan xushchaqchaq odam yashagan ekan. Uning aql bovar qilmaydigan kulgili ishlari, o'tkir tilining dong'i uzoq-uzoqlarga yetibdi.

Kunlardan bir kuni podshoh Sis-Kuoni o'z huzuriga chaqirib debdi:

– Sis-Kuo, sening ayyor va aqlli odam ekanliging haqida ko'p eshitganman. Ertaga mening oldimga yerning og'irligini, yulduzlarning sonini, yerdan quyoshgacha bo'lgan masofani bilib kelasan. Agar sening hisobing to'g'ri chiqmasa, boshingni kundada ko'rasan.

Sis-Kuo unga javoban shunday debdi:

– Juda mushkul vazifa topshirdingiz, podshohi olam. Ammo men savollaringizga javob topaman.

Shu gap bilan podshoh huzuridan chiqib ketibdi.

Sis-Kuo podshohning savoliga tuni bo'yi javob axtaribdi. Tong otgach, podshoh oldiga o'tlanibdi. Saroyga kirgach, podshoh so'rabdi:

– Savollarimga javobni topib keldingmi?

– Podshoh janoblari, ha, bilib keldim. Yerdan quyoshgacha bo'lgan masofa ikki million chaqirim ekan, yerning og'irligi to'rt million pud kelarkan, yulduzlarning soni esa ikki millionta ekan.

Podshoh Sis-Kuoning tutilmay, ikkilanmay aniq-aniq javob berayotganiga taajjublanib, isbot talab qilmoqchi bo'libdi, ammo shu zahoti shahdidan qaytibdi. Axir, Sis-Kuo undan aytgan hisoblarining nimasi noto'g'ri ekanini so'rab qolishi mumkin ekan-da. Podshoh bu savolga qayerdan javob topsin?!

– Endi mening, malikaning, podshohligimning bahosini bilib kel, – debdi podshoh unga yangi vazifa topshirib, – faqat javobing ertadan kechga qolmasin.

Yana tuni bo'yi Sis-Kuo boshimi qotirib, javob topibdi va aytilgan vaqtga yetib kelibdi.

– Xo'sh, men, malika va podshohligim qancha turar ekan, bilib keldingmi? – so'rabdi podshoh.

– Roppa-rosa yigirma to'qqiz so'm-u yigirma besh tiyin, – deb javob beribdi Sis-Kuo ko'zini baqraytirib.

Bu javobdan podshohning esi og'ib qolay debdi.

– Qani darrov tushuntir-chi, bu so'm va tiyinlarni qayerdan hisoblay qolding. Yo'qsa se-ning tentak boshingni shu zumda bolta bilan choptirib tashlayman.

Sis-Kuo shoshilmay, batafsil tushuntira ketibdi.

– Iso Payg'ambarni o'ttiz besh so'mga xochga tortishgan. Siz har qancha obro'li podshoh bo'lsangiz ham undan qimmat turmaysiz. Shuning uchun sizni yigirma sakkiz so'mga baholadim. Davom etamiz. Sizning podshohiingizda bir so'mi bor odam shu so'mga yarasha xotin

olishi mumkin. Shunday qilib, sizning xotiningiz – malikaning bahosi ham bir so'm bo'ladi. Sizning podshohlik qasringizni qurgan me'morlarga siz bor-yo'g'i yigirma besh tiyin haq to'lagansiz. Shuning uchun ham mening hisobim bilan siz, malika, podshohligingizning qimmatini jami bo'lib yigirma to'qqiz so'm yigirma besh tiyin bo'ladi.

Podshoh bunday ochiq va qat'iy hisobdan g'azabga kelibdi, ammo Sis-Kuoning gaplariga qarshi chiqa olmabdi. Faqat g'azab bilan baqiribdi:

– Mening podshohligimdan jo'na. Shu kundan boshlab qorangni ko'rmay!

Ertasi kuni podshoh qasrining derazalarini ochsa, qarshisida Sis-Kuo hech narsa bo'lmaganday aravada turganmish. Podshoh alam bilan baqiribdi:

– Boshingni kundada ko'rmoqchisan, shekilli, Sis-Kuo. Axir men podshohlik yerimda qorangni ko'rmay degandim-ku.

Bu g'azabga Sis-Kuo pinak buzmay javob beribdi:

– Men o'tirgan yerning sizga hech qanday aloqasi yo'q, chunki bu yer qo'shni podshohlikdan olingan.

Podshoh qasrdan chiqishga erinmabdi. Sis-Kuoning aravasiga yaqinlashganda esa, qaysi ko'z bilan ko'rsinki, g'ildiraklarning ostida qo'shni podshohlikdagi gullar va o'tlar bilan qoplangan qatlam yer turganmish.

Sis-Kuo aqlli yechim topgani uchun podshohning unga bo'lgan alami biroz tarqab-

di. Sis-Kuo bundan xabar topib, ma'lum vaqt o'tgach podshoh huzuriga kelibdi.

– Podshohi olam! Menga biron vazifa topshirib ishga oling.

– Seni ishga ololmayman. Hamma vazifalarning odamlari to'liq, – javob beribdi podshoh.

– Juda bo'lmasa pashshalarning ustidan nozir qilib oling, – deb so'zida turib olibdi Sis-Kuo.

Kulgi uchun podshoh rozi bo'libdi.

Shu-shu Sis-Kuo doimo podshohning oldida turadigan, yomida yopishqoq yelimli xalta va yelimlangan kurakcha olib yuradigan bo'libdi. Podshohning yaqin atrofiga bironta pashsha kelib qo'ngani zahoti uni o'ldirar ekan-da.

Kunlardan bir kun podshoh o'zining podshohligiga qarashli hamma noiblarini chaqiribdi. Bu majlisga Sis-Kuo ham yetib kelibdi. Podshoh uning shaytonligidan cho'chisa ham haydab yubormabdi.

Podshohlik yig'in-majlisi avji qizib o'tayotgan bir paytda qorni ko'kimtir bir pashsha podshohning naqd peshonasiga kelib qo'nibdi. Sis-Kuo yaxshilab yelimlangan kurakcha bilan podshohning peshonasiga bir urib pashshani o'ldiribdi. Bir tomondan u to'g'ri qilibdi: axir podshohning o'zi Sis-Kuoni pashshalar ustidan nozir qilib tayinlamaganmi?! Ammo podshoh va uning noiblari Sis-Kuoning bu harakatini qattiq qoralashibdi va uning kallasini olib tashlashlariga oz qolibdi.

Oradan bir qancha vaqt o'tar-o'tmas Sis-Kuo bir noibning shayton o'g'lini behosdan o'ldirib qo'yibdi. Bolasi o'lgan noib podshohga shikoyat

qilibdi. Sis-Kuo qarasa, vaziyat juda og'irlashib qolgan emish. Shundan keyin Sis-Kuo o'zini kasalga solib yotib olibdi. Podshoh uni ko'rgani kelganda o'lgan kishiday kafanlashga tayyor bo'libdi-qo'yibdi.

Nafas olmayotgan Sis-Kuoni ko'rgan podshoh uning gunohlaridan o'tib shunday debdi:

– Sen, Sis-Kuo, o'ta ayyor va shum odam eding. Lekin endi sen boqiy dunyoga o'tib ketding. Shuning uchun men yer yuzida qilgan xatolaringni kechiraman.

Shu payt Sis-Kuo birdan ovoz chiqaribdi:

– Agar siz – podshohi olam meni kechirgan bo'lsangiz, o'lib nima qilaman. Hali yashasam bo'ladi-ku.

U shunday debdi-yu sakrab o'rnidan turibdi.

Podshohning so'zi – qonun. Kechirdim dedimi – kechirdi. Shundan qilib, bu safar ham Sis-Kuo bejazo qolibdi.

Ko'pmi-ozmi vaqt o'tgach, Sis-Kuo rostdan ham betob bo'lib qolibdi. Shu paytdan boshlab: «Sis-Kuo o'limidan oldin o'zining shumlik va ayyorliklarini sotarmish», – degan ovoza tarqabdi. Uning o'zi katta-kichik har xil qutilarga tashlandiq, keraksiz narsalarni solib mixlab tashlabdi-da, tepasiga narxini yozib qo'yibdi.

Xotiniga bo'lsa yaxshilab tayinlabdi:

– Bu qutilarni sotib olishga kelganlarga ko'rsatilgan narxda sot va shu zahoti pulini ol.

Sis-Kuo o'lganidan so'ng uning tul xotini oldiga noiblarning, savdogarlarning bolalari kelishibdi. Qutilarni savdolahmay pulini to'lab olib ketishibdi. Axir Sis-Kuodek aqlli, ayyor, hozirjavob bo'lishni kim xohlamaydi deysiz!

Qutilarning evaziga tul kampir kattagina pul ham ishlab olibdi.

Davlatmand xaridorlar qutilarni uyga olib kelganlari zahoti shoshilib ochar ekanlar, ammo uning ichidan chiqqan keraksiz narsalarni ko'rib, qo'llarini ikki tomonga yoyar ekanlar, xolos: «Bu yashshamagur Sis-Kuo hatto o'lganidan keyin bizni rosa aldabdi-da».

DUMALAB TUSHGAN G'O'LACHA

 or ekan-da yo'q ekan, qadim zamonda bir chol-u kampir bo'lgan ekan. Ular-ning yakka-yagona o'g'illari bo'lib, chol-kampir uni juda yaxshi ko'rar ekanlar.

Kunlardan bir kun chol o'tin yoribdi, o'g'li o'tinlarni uyga tashibdi, kampir o'choq oldiga o'tinlarni taxlabdi. Shu payt tepadan bitta g'o'lacha dumalab yerga tushibdi. Kampir shu zahoti yig'lashga tushibdi: «Agar mening o'g'lim uylanganida, uning bolasi bo'lganida, shu payt mening yonimda turganida, bu g'o'lacha uning boshini yorardi-ku».

Xonaga o'tinlarni ko'tarib kirgan o'g'li onasi-dan so'rabdi:

– Nega yig'layapsiz, ona?

– Jonim, bolaginam! – javob beribdi onasi.

– Men mana bu katta g'o'lanini tushirib yubordim. Agar sen uylangan bo'lganingda va bola ko'rganingda, u bolang mening orqamdan yurib yonimda turganida axir bu g'o'la uni o'ldirib qo'yar edi-ku.

Kampir yana ham qattiqroq ho'ngrab yig'lay ketibdi. Ammo o'g'il onasiga e'tibor bermay o'tinni tashiyveribdi. Chol o'tinni yorib bo'lib o'g'li bilan uyga kiribdi. Yig'layotgan kampirni ko'rib, chol so'rabdi:

– Kampir nega yig'layapsan?

– E, mana bu katta g'olani bilmasdan tushirib yubordim, – deb o'zining diydiyosini boshlabdi kampir. Axir agar bizning o'g'limiz uylangani-da, uni bolasi bo'lar edi. U mening oldimda turar edi. G'ola uning boshini yorar edi.

Kampirning aytib yig'lashi yana avjiga chiqibdi.

– Haqiqatan ham katta falokat bo'lishi mumkin edi, – debdi chol va kampirga qo'shilib, alam bilan yig'lay boshlabdi.

O'g'il har qancha ularni ovutishga urinmasin foyda bermabdi. Chol-kampir roppa-rosa uch kecha-yu uch kunduz yig'lashibdi.

Shunda o'g'il hech chlday olmay alam bilan debdi:

– Men ketdim. Bir bema'ni yig'ini boshladiniz. Men bu yig'ida hech qanday ma'ni-mat-ra ko'rmadim. Bu tentaklikning o'ziginas. Agar boshqa odamlar ham sizlarga o'xshagan bo'lishsa, qaytaman.

O'g'il gapini tugatar-tugatmas uydan chiqib g'arb tomonga yo'l olibdi.

Yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi. Oxiri bir qishloqqa yetib kelibdi. Qarasa, odamlar katta omborning tomiga bitta oq sigirni tortib yotishgan emish. Yigit so'rabdi:

– Nimaga omborning tomiga sigirni ko'tarib olib chiqmoqchisizlar?

Ular javob berishibdi:

– Xo'sh, sen qayerdan paydo bo'lib qolding? Axir sen yoqut emasman?

Yigitning hali ham hech narsaga aqli yetmayotganini ko'rishib, tushuntira boshlashibdi:

– Bu omborning tomida o't o'sadi. Biz sigirni tomga chiqarib o'tlatmoqchimiz.

– Unday bo'lsa, – debdi yigit, – bunday qilsa yaxshiroq emasmi. U shu zahoti tomga chiqib o'tni o'ribdi-da, sigirning oldiga tashlagan ekan, sigir mazza qilib o'tlarni yeya boshlabdi.

Qishloq ahli juda xursand bo'lib ketishibdi. Yigitni maqtay boshlashipti:

– Bu yaxshi odam bizga juda aqlli maslahat berdi-ku. Bo'lmasa shu paytgacha qiynalib sigirni tomga tortib yotgan bo'lar edik.

«Yo'q, bu odamlarning aqli mening ota-onamdan hech ham farq qilmaydi», o'ylabdi yigit va endi sharq tomonga yo'l olibdi.

Yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi, oxiri kech kirganda bir qishloqqa yetib kelibdi. Bir xonadonga kirib, tunash uchun joy so'rabdi.

Xonadon egalari uni yaxshi kutib olishibdi, ammo bir-birini qayergadir shoshirishibdi.

– Tezroq bo'linglar. Musofirga yemagini beringlar. Biz yumushimizga kech qolmaylik.

Yigit har qancha urinmasin, uy egalarining qayerga bu qadar shoshilayotganini anglay olmabdi. Hozirgina kelib, ularga savol berishni o'ziga ep ko'rmabdi.

Unga tezda kechki ovqat borishibdi va xo'jayin uyidagilarni yana shoshiribdi:

– Mehmonga tezgina joy tayyorlang. U uxlayversin. Sizlar tezroq bo'linglar, vaqt ketyapti.

«Bu odamlar shu qorong'i paytda qayerga shoshilishadi. Nima qilishmoqchi o'zi?» – yigit o'ylab o'yiga yetolmasmish. Uni joyiga yotqizishganda, o'zini uxlaganga solib yotaveribdi. Aslida ziyraklik bilan bo'layotgan hodisani kuzatibdi.

Uy egalari oldiniga o'choqqa o't qalashibdi-da, xonani yoritishibdi. Keyin kimdir chelakni, kimdir cho'michni, kimdir boshqa idishni uydan ko'chaga bo'm-bo'sh olib chiqib, uyga bo'm-bo'sh olib kirishar emish. Hamma yugurarmish. Tez uyga kirarmish, tez tashqariga chiqarmish: hech tinim bilishmash. Yigit chiday olmay so'rabdi:

– Sizlarga nima bo'lgan o'zi?

Uy egalari javob berishibdi:

– Sen anglamayapsanmi? Nima, sen yoqut emasmisan?

– Bunaqa ishlarni ko'rish menga hali nasib etmagan, – tan olib javob beribdi yigit.

Uy egalari unga tushuntira boshlashibdi:

– Biz uyning ichidagi yorug'likni tashqariga olib chiqyapmiz. Tashqaridan bo'lsa uyga qorong'ilikni olib kiriyapmiz.

– Bu ishni nima uchun qilyapsiz o'zi, – hali ham tushunmay so'rabdi yigit.

– Qiziq yigit ekansan-ku. Shunga ham aqling yetmayaptimi? – ajablanishibdi uy egalari. – Biz yorug'lik bilan qorong'ilikni aralashtirib, osmonni yorug' qilmoqchimiz... Bizni ishdan qo'yma.

Ular yana u yoqdan bu yoqqa yugura boshlashibdi.

– Baraka topgurlar, to'xtanglar. Tentak bo'lmanglar, – yalinibdi yigit. – Vaqti kelganda osmon usiz ham yorishadi. Foydasiz ishni qilishning nima keragi bor! – yigit o'rnidan turib eshikni to'sib olibdi.

Uy egalari unga quloq solishmabdi, to'polon qilib yuborishibdi:

– Xalaqit berma, chekkaga o‘t!

Uy egalarining o‘lib-tirilib qilayotgan ishlari yigitga juda foydasiz bo‘lib tuyulibdi.

Bu paytda vaqti bo‘lib osmon yorisha boshlabdi.

– Nahotki osmonni siz yorug‘ qilmaganingizni tushunmaysiz. Axir tong otyapti-ku, – debdi u.

– Rostdan ham osmon o‘zidan-o‘zi yorishyapti, – unga qarshilik bildirishmabdi uy egalari, – nahot bizning aqlimiz shunga yetmagan ekan?! Rahmat senga, yaxshi odam. Aqlli maslahating uchun minnatdormiz. Yaxshi ham bizning tomonlarga mehmon bo‘lib kelganing.

Yigit bo‘lsa ularning maqtovlarini eshitib, o‘zicha o‘ylar emish: «Mening ota-onam bularning oldida u qadar tentak emas ekan-kul!»

U shunday debdi-da, uyiga qaytishga qaror qilibdi.

Uning ota-onasi tug‘ilmagan nabiralarining azasini tutib bo‘lib, endi safarga ketgan soppa-sog‘ o‘g‘lonlaridan ajralib qolganlari uchun yig‘lashayotgan ekan.

O‘g‘illari qaytib kelgach, ular yig‘ini umuman to‘xtatib, tinch-totuv yashay boshlashibdi, mu-rod-maqсадlariga yetishibdi.

YEGEY-BETUK VA UNING AJOYIB TEGIRMONI

 or ekanda yo'q ekan, qadim zamonlar-da Yegey-Betuk ismli bir kishi yashagan ekan. O'zi yolg'iz bo'lib, boyligi ham yo'q ekan. Na xotini, na bolalari, na uy-ro'zgori-yu, na boshqa narsalari bo'lgan ekan. Uning butun boyligi o'tovi bilan don maydalaydigan kichkina qo'l tegirmondan iborat ekan, xolos.

Ammo tegirmoni oddiy emas, sehrli ekan. Yegey-Betuk qorni ochib qolganida kichkina temir belkurak bilan sekingina taqillatib ursa bormi, undan turli-tuman ziyofatbop ovqatlar tushaverar ekan.

Shunday qilib, Yegey-Betuk vaqti-vaqti bilan tegirmonini taqillatib kunini ko'rib yuraveribdi.

Undan o'n chaqirimcha narida esa hech kimni ko'rolmaydigan, hasadgo'y, ziqna, davlatmand chol ham yashar ekan. Uning katta podasi, xizmatkorlari bo'lib, Betukning uyi unikining oldida hujraga ham arzimas ekan. Ammo baribir chol Yegey-Betukka hasad qilar-kan. Hamma narsasi bo'lsayam Betuknikidaka tegirmoni yo'q ekan-da.

O'zini har qancha bosishga urinmasin, hasad kuchlilik qilib, qo'shnisinikiga o'g'li bilan qizini yuboribdi. «Yegey-Betukka aytinglar, – buyu-

ribdi chol, – u mening ko‘p yillik qo‘shningina emas, eng yaxshi do‘stim ham. Shunday ekan, eski qadrdonligi tufayli yarim davlatim evaziga tegirmonini sotsin».

Yegey-Betuk mehmonlarni kutib olibdi. Hol-ahvol so‘rabdi:

– Mening qo‘shnim, sizlarning otalaringiz sog‘-salomatmi?.. Qani tortinmanglar, ichkari-ga marhamat qilinglar. Hozir men sizlarga das-turxon yozaman.

Shunday deb kurakchasi bilan tegirmonini taqillatibdi. Mehmonlarning ko‘zi oldida undan shunday taomlar tushibdiki, aka va singilning ko‘zlari o‘ynab ketibdi. Ammo ular es-hushlari-ni yig‘ib olib otalari bergan topshiriqni baja-rishga kirishibdilar.

– Otamiz sizga salom aytdi va qulluq qili-shimizni buyurdi. Turmushimiz yaxshi. Yana topshirdiki, otamizning eng yaqin do‘sti va o‘rtog‘i sifatida eski qadrdonlik yuzasidan davlatining yarmi evaziga tegirmoningizni so-tarmishsiz.

Ularning gaplarini eshitib Yegey-Betuk shun-day javob beribdi:

– Olinglar, yenglar, qadrdon mehmonlar, tortinmanglar! Otalaringizga esa shunday deb qo‘yinglar: «Agar men tegirmonimni davlati-ning yarmiga sotsam, uzog‘i bilan bir yilda yeb tamom qilaman, tegirmomim bo‘lsa meni hami-sha boqadi. Uning ustiga, ko‘rib turibsizlarki, yomon boqmayapti. Shuning uchun tegirmonni berishdan menga hech qanday naf yo‘q. Otan-gizga shuni yetkazib qo‘yinglar. Aziz qo‘shnim va do‘stim mendan xafa bo‘lmasin.

Bolalar yeyishibdi, ichishibdi, mezbonga rahmatlar aytib, uylariga qaytishibdi.

Otalariga Yegey-Betukning gaplarini aytishganlarida, chol g'azabdan o'zini qo'yishga joy topolmabdi.

– E-e, o'rgilib ketdim o'sha gadoyvachchanning ipirisqi tegirmonidan! Men uning o'rnida bo'lganimda juda ham kekkayib o'zimni yalintirib o'tirmasdim. Yegey-Betuk mening undan boyroq ekanimni, hamma narsaga qurbim yetishini unutmasa zarar qilmasdi. Qolaversa, uning o'zi ham mening hukmimda. Yigitlar! – chaqiribdi chol xizmatkorlarini, – otlarni qo'shinglar-da, o'sha ishyoqmas o'jarnikiga boringlar. Aytinglar, yaxshilikcha tegirmonini bersin. Yana qaysarlik qiladigan bo'lsa, chambarchas bog'lab tashlanglar-da, tegirmonini menga olib kelinglar.

Xizmatkorlar chanalarni otga qo'shib, jon-jahdlari bilan hayda-hayda qilishib Yegey-Betuknikiga yetishibdi.

Yegey-Betuk har galgidek uyida ekan. Yigitlar o'tovga kirib, do'q qila boshlabdilar:

– Xo'jayinimiz yaxshilikcha tegirmonni sotishingni buyurdi.

– Men allaqachon, tegirmonni sotmayman, dedim-ku. Uning yarim davlati juda bo'lsa bir yilga yetadi. Keyin-chi?.. Sotmayman dedim, sotmayman. Cholga aytib qo'yinglar, mendan o'pkalamasin.

Yigitlar xo'jayinlari buyurganidek qilib, bechora Yegey-Betukka tashlanib, uni arqon bilan chirmab tashlashibdi. Uy egasining

dod-faryodiga qaramasdan tegirmonni olishibdi-da, jo'nab ketishibdi.

Olishuvdan charchagan Yegey-Betuk biroz damini olib, bir kuchangan ekan, arqon uzilib ketibdi. Eshikka otilgan ekan, ochilmabdi. Ko'pni ko'rgan xizmatkorlar eshikni tashqarisidan katta to'nka bilan tambalab qo'yishgan ekan. Shundan keyin Yegey-Betuk katta g'ola bilan eshikni bir urgan ekan, eshik simib ketibdi. U tashqariga chiqib olib, xizmatkorlarning ketidan quvibdi. O'rmondan yo'lni kesib chiqaman deb, hamma yoqlarini tilib yuboribdi. O'rmonning orqasidan bir kichik ko'lchasi bor o'tloqqa duch kelibdi.

Yegey-Betuk ko'lning qarshisidagi tepachaga o'tirib olib, shovqin bilan suvni simirib quritibdi-da, yo'lda davom etibdi. Qarshisidan tog' chiqibdi. Tog'ni qiyalab ketayotgan ekan, ayiqqa duch kelibdi. Yegey-Betuk unga yo'ldan qoch deganday mushtini ko'rsatibdi. Ayiq uning gapini tushunmabdi yo tushunishni xohlamasdan qattiq bo'kirib unga tashlanibdi. Yegey-Betuk bo'lsa uni yelkasidagi yolidan ushlab turib og'ziga tashlab yuboribdi-da, yana chopib ketibdi. Tog'ning shunday yon bag'ridan bir tulki yugurib borayotgan ekan, Yegey-Betuk unga ham yetib olib yutib yuboribdi.

Boy qo'shnisinikiga yaqinlashganida bir-biri bilan urishayotgan bir to'da ko'cha itlariga to'g'ri kelib qolibdi. U itlarni ham bittalab yutaveribdi.

Oxiri boynikiga yetib kelibdi.

– Qani, qariya, darrov menga tegirmonni qaytar-chi?!

Chol avvaliga rosa qo'rqibdi, ammo bildirmaslikka harakat qilib, xizmatkorlariga baqira boshlabdi:

– Hoy yigitlar, bu nima degan gap? Sizlarga mana bu bachchag'arni boylab tashlashni buyurmaganmidim? O'z xo'jayinlaringning gapini ikki qiladigan bo'ldilaringmi? Terilaringni shilib olmasimdan burun uni zanjirlangan itlar oldiga olib borib tashlanglar!

Boyning yigitlari o'sha zahoti kelishib Yegey-Betukni itlarning oldiga otib yuborishibdi.

Ko'ppaklar ham Yegey-Betukka otilishibdi. Ammo Yegey-Betuk og'zidan tulkini chiqarib yuborgan ekan, hammasi uning ketidan quvib o'rmonga kirib g'oyib bo'lishibdi.

Yegey-Betuk bo'lsa yana xo'jayinning oldiga kiribdi.

– Mening tegirmomimmi berasanmi, bermaysanmi?

– Bu ishyoqmaslar uni ayab itlarning oldiga tashlamaganga o'xshaydilar, – deb jig'ibiyroni chiqibdi cholning va o'shqiribdi. – Darrov uni ho'kizlarning orasiga otib yuboringlar, shoxlarida bir o'ynatishsiq.

Yigitlar Yegey-Betukni ho'kizlarning orasiga qo'yib yuborishibdi. Ammo Yegey-Betuk bir o'qchigan ekan, yutib yuborgan itlari sakrab tushibdi. Ho'kizlar ularga qarab yugurishib qo'tondan chiqib ketishibdi.

Yegey-Betuk yana uyga kiribdi.

– Mening tegirmonimni darrov ber-chi!

Boy tamoman quyushqondan chiqib ketibdi.

– Agar jonlaring kerak bo'lsa, uni yilqidagi eng baqquvvat ayg'irning oldiga tashlanglar. Bosib maydalab yuborsin.

Yigitlar shunday qilishibdi. Yegey-Betuk o'sha zahoti yutgan ayig'ini chiqaribdi. Ayiq ham och emasmi, otlarni bitta-bitta yamlay boshlabdi.

Yegey-Betuk bamaylixotir uyga kirib, tegirmonni talab qila boshlabdi.

– Axir bu ahvolga chek qo'yasizlarmi-yo'qmi, – deb baqiribdi jon-poni chiqib ketgan boy, – nima, meni masxara qilyapsizlarmi? Mana bu qaroqchini ushlab saroydagi ustunga bog'lab qo'ying, men qizdirilgan temir xivich bilan uni savalab jonidan judo qilaman.

Xizmatkorlar boyning aytganini bajarishibdi.

Yegey-Betuk bir amallab chol temir qizdirayotgan xonaning oynasiga cho'zilib yetib oynani sindiribdi-da, og'zidan suv chiqara boshlabdi. Suv avvaliga polni bosibdi, keyin ko'tarila-ko'tarila cholning bo'g'ziga kelibdi. Axir Yegey-Betuk butun boshli ko'lni simirib yuborgan edi-ku.

– Bo'ldi, taslimman, – deb yalina boshlabdi chol, – sen bilan o'chakishishning hojati yo'q ekan. Tegirmoningni olib yaxshilikcha jo'nab qol. Faqat cho'kib ketmasimdan oldin uyimdagi suvni yo'qotsang bo'lgani.

Boyning xo'jaligidagi narsalar: qimmatbaho kiyimlar, nodir buyumlar – hammasi suvning betida, oyna va eshiklarga tiqilib qolibdi.

Hech qachon kek saqlamaydigan Yegey-Betuk bir kerishib bog'langan arqonlarni uzibdi, suvni qayta o'ziga tortib yutibdi-da, tegirmonni yelkalab uyga jo'nabdi.

Ko'lining o'rniga yetib kelganida suvni qaytadan chiqarib, ko'lni to'ldiribdi. Uyga yetib kelgach, yangi eshik yasabdi. Tegirmonini bo'lsa azaliy joyiga qo'yibdi.

Kimdir Yegey-Betukning hozir ham tirikligini eshitganmish. Ajoyib tegirmoni uni yedirib-ichirayotganmish.

O.Madayev tarjimai

MUNDARIJA

Lyuis Kerroll. Alisa mo'jizalar mamlakatida. (<i>M.Zohidova tarjimasi</i>)	3
Sharl Perro. Zolushka. (<i>S.F.Ismoilova tarjimasi</i>).....	14
Eduard Vavrushka. Izquvar Brok. (<i>Ismoil Mahmud tarjimasi</i>).....	25
Sergey Aksakov. Olov gul. (<i>M.Zohidova tarjimasi</i>).....	54
Yuriy Kazakov. Teddi. (<i>O.Otaxon tarjimasi</i>)	72
Hans Kristian Andersen. Dyuymchaxon	109
Ole-Luk-oye. (<i>Usmon Qo'chqor tarjimasi</i>).....	129
Nozim Hikmat. Oshiq bulut. (<i>G.Normatova tarjimasi</i>).....	147

YOQUT XALQ ERTAKLARI

(*O.Madayev tarjimalari*)

Xamir polvon	167
Korox-simiriki.....	174
Dono qiz	184
Sis-Kuo.....	188
Dumalab tushgan g'o'lacha.....	194
Yegey-Betuk va uning ajoyib tegirmoni.....	199

Adabiy-badiiy nashr

LYUIS KERROLL

ALISA MO'JIZALAR MAMLAKATIDA

Ertaklar

Muharrir

Ma'mura QUTLIYEVA

Badiiy muharrir

Uyg'un SOLIHOV

Musahhih

Madina MAHMUDOVA

Sahifalovchi

Sunnat MUSAMEDOV

Texnik muharrir

Surayyo AHMEDOVA

Litsenziya raqami: AI № 252, 2014-yil 2-oktabrda berilgan.

Bosishga 2019-yil 16.08.da ruxsat etildi.

Bichimi 84x108 1\32.

Bosma **tobog'i** 13,0. Shartli bosma **tobog'i** 21,84.

Garnitura «Bookman Old Style».

Adadi 5000 nusxa. Buyurtma № 204.

Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlodi» NMMda tayyorlandi.

«Yoshlar matbuoti» MCHJda chop etildi.

100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

Murojaat uchun telefonlar:

Nashr bo'limi – (78) 147-00-14; (78) 129-09-72.

Marketing bo'limi – (98) 128-78-43; (93) 397-10-87.

Faks – (71) 273-00-14;

e-mail: yangiasravlod@mail.ru

**«YANGI ASR AVLADI» NMM TOMONIDAN
BOLALAR UCHUN QUYIDAGI ADABIYOTLAR
CHOP ETILGAN:**

Jozef Redyard Kipling

«MAUGLI»

Bichimi 84x108 1/32, 272 bet

Yumshoq muqova

Bolalik dunyomiz bilan bog'liq shirin xotiralarni yodga olganda, beixtiyor qalbimiz sevinchga, yuragimiz haroratga to'лади. Uning har bir dami, har bir lahzasi shu qadar yodimizga muhrlanganki, o'sha quvonchli fursatlarni farzandimiz yuz-ko'zida ko'rgimiz keladi.

Bizning sevimli ertak qahramonimiz bugun bolamiz quvonchiga sabab. Maugli haqida hikoya qiluvchi mazkur kitobni ham aynan yosh kitobxonlarimiz qalbiga sevinch ulashish, suyumli multqahramonlari bilan satrlar orqali hamsuhbat bo'lsinlar, degan niyat bilan nashrga tayyorladik.

Unutmang, Maugli – o'zgarmagan, uning boshdan kechirganlari, o'rmondagi hayoti, sarguzashtlari ham o'sha-o'sha. Ammo u qalban sizga qanchalik yaqin? Uning yuragida nimalar pinhon? Bu savollarga aynan kitobdan javob topasiz.

Alan Aleksandr Miln

«VINNI PUX VA UNING SARGUZASHTLARI»

Bichimi 84x108 1/32, 112 bet

Yumshoq muqova

Jahon adabiyotida bolalar uchun yozilgan kitoblar orasida Alan Aleksandr Miln ijodi, qahramonlari yosh kitobxonlarimiz qalbiga shu qadar yaqinki, u haqda eshitganda, ko'rganda hayajonlarini, quvonchlarini yashirolmaydilar.

«Vinni Pux va uning sarguzashtlari» nomli mo'jazgina kitobchani biz ilk bora o'zbek tilida yosh kitobxon do'stlarimiz e'tiboriga havola qilmoqdamiz.

Ularning sevimli qahramonlari – Vinni Puxning sarguzashtlari chindan-da maroqli, chindan-da hayratlanarli.

Bola qalbimizni to'qlinantiradigan asar mutolaasiga shoshilamiz.



Mazkur kitobga jamlangan Jyuis Kerroll (1832 – 1898), Sharl Perro (1628 – 1703), Eduard Vavrushka, Sergey Aksakov (1971 – 1859), Yuriy Kazakov (1927 – 1982), Hans Kristian Andersen (1805 – 1875) qalamiga mansub eng ajoyib ertaklarni biz kichik yoshdagi o‘quvchilarimizning talablarini inobatga olib tayyorladik. Aynan ushbu ertaklarni jamlaganimizning boisi – ertaklar qahramonlarini jajji kitobxonlarimiz yaxshi tamiydilar, Alisa, Qor malikasi, Dyuumchaxonlar ishtirokidagi bu ertak va multfilm qahramonlari hamisha ularning sevinchiga, ularning hayratiga sabab bo‘lgan.

Endi esa aziz bolajonlarimiz multqahramonlari bilan satrlar orqali sirlashadilar.



YANGI ASR AVLODI

ISBN 978-9943-27-703-8



789943 277038